

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI**

O‘SAROV UMIDJON ABDUMAVLONOVICH

**MAVZU: SOMONIYLAR DAVLATINING O‘RTA OSIYO
TARIXIDA TUTGAN O‘RNI**

**BITIRUV MALAKAVIY
ISHI**

Ilmiy rahbar: t.f.n. dots. To‘xtabekov K.A.

TOSHKENT - 2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-7
I.BOB. Somoniylar davlatining tashkil topishi va siyosiy hayoti	8-36
I. 1. Somoniylar davlati tarixiga oid manbalar tahlili va tarixshunosligi	8-18
I. 2. Mavorounnahr va Xurosonda Somoniylar hokimiyatining o‘rnatilishi va siyosiy hayoti	19-27
I. 3. Somoniylar davlatining inqirozi sabablari.....	28-36
II.BOB. Somoniylar davlatining boshqaruv tizimi va madaniy hayoti	37-78
II. 1. Somoniylar davlatining markazlashtirish siyosati va boshqaruv tizimi	37-44
II. 2. Somoniylar davlatining xo‘jalik hayoti va ishlab chiqarish munosabatlari.....	45-54
II. 3. Somoniylar davlatida madaniy hayot va din.....	55-78
Xulosa.....	79-83
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	84-87
Ilovalar	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Har bir xalqning davlatchilik va madaniyati tarixini o'rganish nafaqat ilmiy yoki nazariy, balki chuqur ma'naviy-ruhiy ahamiyatga ega bo'lib, har birimizda o'zimiz tug'ilgan va yashayotgan ona zamin bilan mustahkam aloqadorlik hissini rivojlantiradi. Mustaqillik yillarida xalqimizning o'z o'tmishiga qiziqishi kuchaydi. O'zligimizni anglash, tariximizni o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Chunki, xalqimizning madaniy-ma'rifiy an'analari va merosini o'rganishda, milliy g'oyaning shakllanishida tarix fanining ahamiyati beqiyosdir. Qadimgi va boy tariximizni o'rganish, uni keng ommaga yetkazish har bir tarixchi oldida turgan dolzarb vazifadir.

O'zbekiston tarixini xolisona va haqqoniy o'rganish masalasi Prezident I.A.Karimovning asarlarida alohida tahlilini topib, o'zbek xalqi davlatchiligi tarixidagi boy an'analarni tadqiq etish dolzarb muammo tarzida maxsus ta'kidlandi¹. Prezident belgilab bergan muhim vazifalar va tarixchi olimlar oldiga qo'yilgan masalalar shundan iboratki, asl manbalarga tayangan holda Vatan tarixiga yangicha yondoshib, qadimgi davrdan to bizning zamonimizgacha bo'lgan tarixiy jarayonlarni va voqyealarni o'rganishimiz zarur.

Tarixchilarimiz zimmasiga o'lkamiz tarixini xolisona va haqqoniy yoritish, unga adolat nuqtai nazaridan yondoshish va baho berish kabi ulkan vazifalar qo'yildi. O'zbekistonning qadimgi tarixi va madaniyati, qadimgi madaniy aloqalar mavzulariga katta e'tibor berilayotganligi ahamiyatga molikdir. Zero, O'zbekiston tarixidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarni aks ettiruvchi yozma manbalar va hujjatlarni yangi asoslarda tahlil etib umumlashtirish muhimdir. O'zbekiaston Respublikas Prezidenti ta'kidlaganlaridek "Mustaqillik yillari o'z o'tmishimizni, o'z madaniyatimizni

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ, -Т.: Шарқ, 1998. —46.; Қаранг: Халқ сўзи. -1998. 28июль.

xolisona bilib olish davridir. Bu jahon hamjamiyati, tarix oldidagi vazifamizni anglab olish davridir”².

Xalqimiz tarixini o‘rganish va uni targ‘ib etishda, o‘zbek davlatchiligi tarixida, uning madaniy rivojlanishida hukmdor sulolalar boshqaruvi, ularning ayrim vakillari alohida o‘rin tutadi. O‘zbek xalqi davlatchiligi taraqqiyotida Somoniylar sulolasining hukmronligi katta ahamiyat kasb etadi. Odatda sulolalar biron-bir o‘zlariga mansub yirik namoyanda faoliyati orqali mashhurlikka erishadilar (masalan, eftaliylar, anushteginiylar, temuriylar). Somoniylar ham shunday, ular aslida Somon qishlog‘i oqsoqoli Somonxudotning avlodlaridir.

Arablarga qarshi olib borilgan tinimsiz kurashlar natijasida IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Markaziy Osiyoda mustaqil davlatlar tashkil topdi. Bunday davlatlarning eng kattasi Somoniylar davlati edi. U Movarounnahr va Xurosondan Ray va Kavzingacha bo‘lgan yerlarni o‘z ichiga olgan. Chunonchi, Ismoil ibn Ahmad (892-907) davrida mazkur sulolaning ko‘zga ko‘ringan namoyandalari, Somoniylar markaziy davlat apparatini mustahkamlashdan manfaatdor bo‘lgan feodal zodagonlar, din peshvolari, barcha badavlat dehqon tabaqalarining qo‘llab-quvvatlashlari bilan xorijiytlarning yetakchilaridan Amir Husaynni ag‘darib tashlashga, Buxoroning Barnod va Romiton tumanlarida boshlangan dehqonlar harakatini bostirishga hamda qarshi boyonlarni davlat ishlaridan chetlashtirib tashlashga muvaffaq bo‘ldilar. 893 yili qadimiy Ushrushonaning mahalliy hokimiyatini ag‘darib tashladilar hamda iqtisodiy va siyosiy jihatdan ahamiyatga molik bo‘lgan bu hududni o‘z tasarruflariga olishga muvaffaq bo‘ldilar. Turk-qorluqlarning Sirdaryo bo‘yidagi yerlarga qilib turgan bosqinini to‘xtatib, Taroni bosib oldilar (893) hamda u yerdagi aholini musulmon diniga kirgizdilar.

Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida ham Somoniylar davlati (IX-X asrlar) katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu davr ilm-

² Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият. —Т.: Ўзбекистон, 1994, -24-б.

fan va ma'rifatning rivojlangan davri bo'ldi hamda Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ismoil Buxoriy, Imom at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband kabi ulug' mutafakkir olimlar va allomalar yetishib chiqishida muhim bosqich bo'ldi.

Mavzuning o'rganilganilish darajasi. (bu masala birinchi bobda – mavzuning tarixshunosligi qismida batafsil yoritilgan) Somoniylar davriga oid manbalar ichida Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiyning (899-959) “Buxoro tarixi” (944), Abu Rayhon Beruniyning (973-1048) “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar yoki “Osor ul-boqiya” (1000), Abu Ali Hasan ibn Ali Tusi – Nizomulmulkning (1018-1092) “Siyosatnoma” yoki “Siyar ul-muluk” (1091), asarlari o'sha davrning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixini o'rganishda alhida o'rin tutadi³. Shuningdek, Abul-Fazl Bayhaqiyning “Tarixi Ma'sudiy” (1030-1041), Abu Jafar Muhammad at-Tabariyning “Tarixi Tabariy”, Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”, Mahmud Qashg'ariyning “Devonu lug'at at-turk” kabi asarlarida ham o'sha davrning tarixi bayon qilinadi⁴.

Somoniylar davlati tarixiga oid batafsil ma'lumotlar tarixchi olimlar N.N.Negmatov, G.A.Hidoyatovning asarlarida batafsil yoritilgan⁵. Shuningdek, N.Ya.Bichurin (Otets Iakinf), V.V.Bartold, A.Yu.Yakubovskiy, S.A.Agadjanov, B.Axmedov, K.Shoniyozov kabi olimlarning asarlarida ham somoniylar davriga oid ma'lumotlar berilgan⁶.

³ Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. -Т.: Камалак, 1995, -126 б.; Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар (Осор ул-боқия). Танланган асарлар. 1-жилд. Т.: Фан, 1968, -345 б.; Абу Али Ҳасан ибн Али Тусий – Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулк). Т., Янги аср авлоди, 2010, - 239 б.

Абу-л-Фазл Байхаки. История Маъсуда (1030-1041). /Пер. с перс. А.К.Андерса. -Т.: 1962; Абу Джафар Муҳаммад ат-Табарий. История ат-Табарий. Т. Фан 1987; Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Т.: 1993; Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома. Уч жилдлик. Т.: Ғафур Ғулом нашриёти, 1984; Маҳмуд Қашғарий. Девону луғатит турк. Т.3.-Тошкент, 1963;

⁵ Негматов Н. Н. Государство Саманидов. Душанбе, Дониш, 1977, с. 277; Хидаятов Г.А. Крушение Саманидов. Т., 2003, с. 130.

⁶ Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. 1,2,3 тт. Материалы по истории Туркмении и туркмен. Т.1.-Москва, 1939; Бартольд В.В. Арабские завоевания и Туркестан при Саманидах. Соч. Т. 2. Ч.1.-М., 1963; Якубовский А.Ю. Махмуд Газнави.-Л., 1934;

Manba va adabiyotlar bilan bir qatorda mustaqillik yillarida mavzuga oid to‘plamlar nashr qilindi hamda gazeta va jurnallarda bir qator maqolalar chop etildi.

Shunday qilib, tadqiqot ob'ekti sifatida tanlangan mavzuga oid manba va adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, bu muammo alohida ilmiy mavzu sifatida hali to‘liq o‘rganilmagan. Ushbu jihatlar mavzuning tadqiqot sifatida tanlanishiga sabab bo‘ldi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tarixiy manba va ilmiy adabiyotlarda aks ettirilgan Somoniylar davlatining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga bag‘ishlangan masalalarni chuqur o‘rganish va qiyosiy tahlil asosida, Somoniylar davlatining taraqqiyoti va inqirozi sabablarini yoritish maqsadida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Somoniylar davlati tarixiga oid manbalarni qiyosiy tahlil qilish va tarixshunosligini o‘rganish, yangi ma'lumotlarni ilmiy muomalaga kiritish;
- Somoniylar davlatining tashkil topishi jarayonida O‘rta Osiyodagi siyosiy hayotni o‘rganish va Arab xalifaligining siyosiy inqiroz sabablarini tahlil qilish;
- Mavorounnahr va Xurosonda Somoniylar hokimiyatining o‘rnatilishi va siyosiy hayotini manbalar asosida tahlil qilish;
- Somoniylar davlatining markazlashtirish siyosati va boshqaruv tizimini tadqiq qilish va xulosalar berish;
- Somoniylar davlatining xo‘jalik hayoti va ishlab chiqarish munosabatlarini o‘rganish;
- Somoniylar davlatida madaniy hayotning rivojlanish sabablarini o‘rganish, ilm-fan taraqqiyotining sabablarini ochib berish;

- O'zbek davlatchiligi taraqqiyotida Somoniylar davlatining o'rni va ahamiyatini ko'rsatish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda Arab xalifaligi siyosiy zaiflashuvining tarixiy sabablari, Movarounnahr va Xurosonda mustaqil davlatlarning vujudga kelishi, xususan Somoniylar davlatining tashkil topishi va mustaqil bo'lishi jarayonlari manba va ilmiy adabiyotlar asosida nazariy tadqiq qilindi. Shuningdek, Somoniylar davlatining tashkil topishida alohida ahamiyat kasb etgan hukmdorlar tarixi o'rganildi. Somoniylar davlatining boshqaruv tizimi, xo'jalik va madaniy hayoti hamda Somoniylar davlatining inqirozi sabablari yangi ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Mustaqillik yillarida e'lon qilingan yangi ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida bayon qilingan Vatanimiz tarixini asl manbalarga tayangan holda haqqoniy o'rganish, xolislik va tarixiylik an'alariga asoslangan yangi uslubiy yondashuvlar, g'oyalar va xulosalarga yo'g'rilgan nutq va maqolalari o'zbek davlatchiligi tarixining chuqur ildizlari va boy o'tmishi O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, tadqiqotning nazariy-uslubiy yo'nalishlari O'zbekistonning yangi tarixi konseptual-metodologik talablarga asoslangan bo'lib, mavzuning tahlili jarayonida sivilizatsion yondashuvga rioya qilindi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining natijalari O'rta Osiyoning IX-XI asrlari haqida bo'lib, Somoniylar davlati haqidagi yangi ma'lumotlar o'quvchilarga kengroq tushunchalar berishi, tadqiqot ishida umumlashtirilgan ma'lumotlardan ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlarida hamda milliy istiqlol g'oyalariga sodiq komil insonni tarbiyalashda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning davriy chegarasi etib IX-XI asrlar olindi. O'zbekiston tarixining muhim sahifalaridan birini tashkil qiluvchi ushbu davr Somoniylar

davlatining tashkil topishi va rivojlanishi, madaniyat, ilm-fan va dinning taraqqiyot jarayonlari bilan belgilanadi. Bitiruv malakaviy ishi Somoniylar davlatining tashkil topishidan inqiroziga qadar bo'lgan davr voqyealarini qamrab oladi.

Tadqiqotning tuzilishi Bitiruv malakaviy ishi; kirish, ikki bob, 4ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan tashkil topgan. Bitiruv malakaviy ishining umumiy hajmi 84 bet, adabiyotlar ro'yxati bilan 88 betni tashkil etadi.

I - BOB. Somoniylar davlatining tashkil topishi va siyosiy hayoti

I. 1. Somoniylar davlati tarixiga oid manbalar tahlili va tarixshunosligi.

Yurtimiz tarixida ajralmas sahifa sifatida e'tirof etiladigan Somoniylar davri shunisi bilan ajralib turadiki, bu davrda o'lkada tinchlik siyosati hukmron bo'lgan va ilm-fan, madaniyat gullab yashnagan. Ushbu davrda o'lkamizdan mashhur mutafakkir olim Ibn Sino, islom ilmlarida katta shuhrat qozongan ilohiyotchi olim Abu Mansur Moturidiy kabi o'nlab allomalar yashab ijod qilgan. Shuningdek, ushbu davrda o'lkamizda islomiy ilmlar taraqqiy etgan va ko'plab ilm markazlari, jumladan "Dor al-juzjoniya", "Dor al-iyodiya", "Buxoro fiqh maktabi" kabi maktablar faoliyat olib borgan. Ushbu davr yana shunisi bilan ajralib turadiki, bu davrda o'lkada millatlararo o'zaro totuvlik, e'tiqodiy xurlik va diniy bag'rikenglik barqaror bo'lgan. Mazkur bitiruv malakaviy ishida qariyb bir yarim asr davomida Movarounnahrda mustahkam imperiya sifatida hukmronlik qilgan somoniylar davridagi shu barqarorlik tarixi haqida ma'lumot berishni maqsad qildik.

Somoniylar davlatida IX asrning oxirlarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarda muhim o'zgarishlar yuz bergani va bir necha yillar davomida tinch siyosat va sharoitlar hukmron bo'lib turgani Movarounnahrning asosiy ilmiy markazlaridan hisoblangan Samarqand shahrida ilmiy jarayonlarning jonlanishiga zamin yaratdi. Samarqandning buyuk ipak yo'lida joylashgani tijorat, san'at va ilm markazlaridan biriga aylanishiga sabab bo'lgan. Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, somoniylar davrida Samarqandda nafaqat islom dinining, balki boshqa dinlarning ham ta'lim markazlari faoliyat olib borgan.

Movarounnahr mintaqasining Somoniylar davridagi tarixi haqida birinchilardan bo'lib Muhammad Narshaxiy batafsil ma'lumot beradi. Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobi⁷

Somoniylar davlatining poytaxti – Buxoro tarixiga bag'ishlagan o'ziga xos qomusiy asardir. XIII asr muallifi Sam'oniyning "Kitob-ul-ansob" asarida

⁷ Абу Бакр ибн Жафар Наршахий. Бухоро тарихи. -Т., Камалак, 1995.-130б.

keltirilgan qisqagina ma'lumotga qaraganda, uning to'liq ismi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakiriyo ibn Xattob ibn Sharik bo'lgan. Naslu nasabi Buxoro ahlidan, 899 yilda shahar yaqinidagi Narshax qishlog'ida duyoga kelgan. 959 yilda 60 yoshida vafot etgan. "Buxoro tarixi" asarini u 943-944 mobaynida arab tilida yozadi. Kitobni Samoniylar davlatning hukmdori Abu Muhammad Nuh ibn Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil as-Somoni (943-954 yy.) ga bag'ishlaydi. Afsuski, "Buxoro tarixi"ning arab tilidagi asl nusxasi bizgacha yetib kelmagan. Uning faqat ancha-muncha qisqartirilib, fors-tojik tiliga ag'darilgan tarjimasigina yetib kelgan⁸.

"Buxoro tirixi" kitobida yozishda Muhammad Narshaxiy o'z kuzatishlari, mahaliy aholidan eshitgan va bilganlari bizgacha yetib kelmagan tarixiy hujjatlarga asoslanish bilan birga ko'pchilik tadqiqotchilar nazari tushmagan arabnavis mualliflarning asarlaridan ham keng foydalangan. Kitobda Madoiniy, Balazuriy va Tabariy asarlariga bo'lgan havolalar buning yorqin dalilidir. Bulardan tashqari, Muhammad Narshaxiy o'z asarida islomiyatga qadarli Buxoro tarixi va arablar bosqini bilan bog'liq bir qancha rivoyatlarni keltiradi. "Siyovush marsiyasi" va "Poykand fojiyasi" kabi axborotlar mana shunday xalq og'zaki rivoyatlari namunalaridandir. Buxoro va Poykandning islomiyaga qadarli bo'lgan hokimlari, Poykand ravotlari, arablarning Buxoroga tomon dastlabki yurishlari, shuningdek Muqanna to'g'risidagi axborotlarning bir qismi Muhammad Narshaxiyga mansub bo'lib, ular ma'lum darajada yozma manbalar hamda og'zaki rivoyatlar asosida bayon etilgan.

Sharg' va Iskijkat bozorining ta'rifi; Ismoil Somoni tomonidan Sharg' qishlog'i yerlarining xaridi; yiliga ikki marta Buxoroda bo'ladigan mohrshz iyd bozori; Ko'shki Mug'on yerlarining X asrdagi bahosi; shahar atrofi ko'shklarining o'ymakor sanamlar bilan bezatilgan eshiklari; "kashkashon"-savdogarlar bilan arablar o'rtasida bo'lib o'tgan mojaralar; nihoyat,

⁸ Муҳаммаджонов А. Муҳаммад Наршахий ва унинг "Бухоро тарихи" асари ҳақида./Наршахий, Бухоро тарихи, -120-б.

“oqkiyimliklar”ning rahnamosi – Muqannaning fojiali qismati to‘g‘risida cho‘rilaridan birining nabirasi og‘zidan eshitgan hikoyasi ayniqsa antiqa axborotlardan hisoblanadi. Abu Nasr Ahmad Quboviyning yozishicha, Muhammad Narshaxiy o‘z kitobini Nuh ibn Nasr as-Samoni davrigacha bo‘lgan Samoniylar sulolasining hukmronligi to‘g‘risidagi axborotlar bilan tugatadi.

“Buxoro tarixi”ning fors tiliga tarjimasi 1128 yilda Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Quboviy tomonidan amalga oshirilgan. Asar matnining tahlili shuni ko‘rsatadiki, Abu Nasr Ahmad Quboviy asarni tarjima qilishda uni faqat qisqartiribgina qolmay, balki IX asr mualliflaridan Abu Ja‘far Muhammad ibn Jarir at-Tabariyning “Tarixi Tabari”, Abulhasan Abdurahmon ibn Muxammad Nishopuriyning “Xazoinul-ulum” hamda Abu isxoq Ibrohim ibn al-Abbos as-Suliyning “Ahbori Muqanna” nomli asarlaridan olingan qimmatli ma'lumotlar bilan to‘ldiradi. “Buxoro tarixi”da keltirilgan xadislardan ma'lum bo‘lishicha, Abu Nasr Ahmad Quboviy hadis ilmining ulomalaridan biri mashhur muxaddis Muhammad Shamsudin Abu Bakr Zaranjariyning biz uchun noma'lum bo‘lgan asaridan ham foydalangan. Masalan, Buxoro shahrining paydo bo‘lishi, “Bozoro moh”, Arkning barpo etilishi, “Kampirok devor”, Buxoro va unga tobi joylarning dehqonchilik xo‘jaligi tafsilotlari hamda shaharning tarixiy topografiyasi (shahristondan tashqari) bayoniga bag‘ishlangan sahifalar Abu Nasr Ahmad Quboviyning Abulhasan Nishopuriy nomidan “Buxoro tarixiga” kiritgan qo‘shimchalaridan hisoblanadi⁹.

Shu bilan birga “Buxoro tarixi”ning tarjimoni va muharriri Narshaxiydek mahalliy mualliflardan bo‘lgani uchun asarni o‘z kuzatishlaridan to‘plagan hamda bilgan va eshitgan axborotlar bilan ham to‘ldirgan. Mana shunday ma'lumot va axborotlar asosida asarga bir butun sahifalar, ayrim hollarda esa butunlay yangi qism yoki boblar kiritilgan. Masalan, “Buxoro tarixi”ning

⁹ Смирново О.И. Некоторые вопросы критики текста («Сборник летописей» Рашид-ад-Дина: «Шах-намэ» Фирдоуси и «История Бухары» Наршахи). Письменные памятники Востока. Историко-филологические исследования. М., -1970, 165-6.

“Shamsobodning bino etilishi” va “Iyd nomozgohi” kabi boblarning xotima sahifalari va boshqalar Abu Nasr Ahmad Quboviy qalamiga mansubdir.

Quboviy tarjimasidan rosa yarim asr o'tgach, 1178-1179 yillar mobaynida Buxoro hukmdori sadr Abdulaziz ibn Burxonuddin uchun “Buxoro tarixi”ning fors-tojik matni ham yangitan tahrir qilinib, Mhammad ibn Zufar ibn Umar tomonidan ikkinchi marta qisqartirilib.qayta bayon etiladi. O.I. Smirovning fikricha, ayrim qo'shimchalar bilan bir qatorda “Buxoro tarixi”ni nomma-nom boblarga ajratish asarning mana shu ikkinchi muharriri qalamiga mansubdir.

XIII asrdan boshlab “Buxoro tarixi” noma'lum ko'chiruvchi muharrirlari tomonidan muttasil to'ldirib borilgan. Jumladan, “Buxoro arkining bino etilishi haqida” va “Buxoro shahrining devori” kabi boblarda Xorazmshoh Muhammad ibn Sulton Takash (1200-1220 yy.) farmoni bilan Buxoro arki devorining tiklanishi, 1165 yilda qurilgan shahar tashqi devorining ta'mir etilib, uning sirtidan Buxoroning ikkinchi qatordan tashqi devor bilan o'rab olinishi, shuningdek 1220 yilda Chingizxon boshliq mo'g'il lashkarlarining Buxoroga bostirib kirib, o'n ikki kun davomida arkni qamal qilib, olib borilgan jang oqibatida qal'a va shahar devorlari vayron etilib, Buxoroning bosqinchilar tomonidan olinishga bag'ishlagan sahifalar XIII asrning 20-yillaridan keyin “Buxoro tarixi”ga kiritilgan muhim qo'shimchalardir. Bu qo'shimchalar asarning tarjimoni Abu Nasr Ahmad Quboviy yoki uning ikkinchi muharriri Muhammad ibn Zufarlarga tegishli bo'lmay, balki yana bir noma'lum muharir qalamiga mansubdir¹⁰.

Yuqorida qayd etilgan juz'iy qo'shimchalar nazarda tutiladigan bo'lsa, bizgacha yetib kelgan “Buxoro tarixi”ning fors-tojik tilidagi nusxasi bir necha bor qisqartirilib, tahrir etilgan va aslidan tubdan farq qiladigan tarjimasidan ko'ra uning arabcha matni asosida ko'plab qo'shimchalar kiritilgan yana bir yangi asarga aylangan, deb tushinish mumkin. U vaqtda “Buxoro tarixi”ning

¹⁰ Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерки). Т., 1958, - 106.

tarjimoni va asosiy muhariri Abu Nasr Ahmad Quboviyni Narshaxiyning ham muallifi yoki asarning ommabop yangi variantini yaratgan o'z davrining o'tkir muarrix deb hisoblashga to'g'ri keladi.

Somoniylar o'z davlatida juda yaxshi yulga quyilgan hukmronlik tizimini urnatdilar. Turk g'ulomining xizmat pog'onasidan ko'tarilish jarayoni muarrix va davlat arbobi Nizomulmulk (1018— 1092) ning mashhur «Siyosatnoma» (Siyar ul-muluk) asarida bayon etilgan¹¹.

Manbalarda o'zlaridan keyin o'lmas noyob asarlar qoldirgan ko'plab yetuk olimu fozillarning muborak ismu shariflari saqlanib qolgan. Chunonchi, keyinchalik Gardiziy, ibn al-Asir hamda Juvayniy kitoblariga manba bo'lgan «Kitob fi-axbor vuloti Xuroson» asarining muallifi Abu Ali Husaya ibn Ahmad as-Salomiy, shuningdek, «Tarixi Buxoro»ning muallifi Abu Abdulloy Muxammad ibn Ahmad ibn Sulaymon al-Buxoriy (924 yilda vafot qilgan) hamda yuqorida nomi zikr etilgan Abu Bakr Muxammad ibn Ja'far al-Narshaxiy (959 yilda vafot etgan), Samarkand shazfi tarixiga oid «Kitob al-ikmal li ma'rifat ar-rijol» kitobining muallifi Abu Said ibn Abdurahmon ibn Muxammad al-Idrisiy (1014 yilda vafot etgan), sakkiz jildlik biografik asar «Kitob ahvoli Nishopur»ning muallifi Abu Abdulloy Muxammad ibn Abdulloy al-Bayyi al-hakim an-Naysaburiy (1014 yilda vafot etgan), «Kitob al-mufoxarat ahli Kesh va-n-Nasaf»ning muallifi Abulxaris Asad ibn Xamduyi al-Versiy (927 yilda vafot etgan), va nihoyat, «Tavarixi Xorazm minxa al-kofi» nomli Xorazmning qadimiy tarixi to'g'risidagi kitob muallifi Abu Ahmad ibn Muxammad ibn Sa'd ibn al-Kofiy (957 yilda vafot etgan) shular jumlasidan. Shu o'rinda Tabariyning mashhur asari «Tarix ar-rasul va-l-muluk va-l-xulafo»ning amir Abdulmalik I (954—961) va Mansur I (961—976) ning vaziri Abu Ali Muxammad Bal'amiy tomonidan 974 yili amalga oshirilgan forsha tarjimasini

¹¹ Низомулмулк. Сиёсатнома. -Т.: Янги аср авлоди, 1997. -240б.

ko'rsatish mumkin. Mazkur asar va uning tarjimasi bir necha marta nashr etilgan. Rofiya bilimdonlaridan fors klassik jug'rofiya maktabining asoschisi, falakiyot va jug'rofiyaga oid 60 dan ortiq asarlar muallifi (bu asarlardan ikkitasining: «Taqvim al-buldon» hamda «Kitob al-badi' va-t-tarix»ning nomi saqlanib qolgan) Abu Zayd Ahmad ibn Saxl al-Balxiy (850—934) ni aloxida ta'kidlab utish mumkin.

Somoniylar davridagi jug'rofiyaga oid adabiyotlar ichida Abu Zayd Balxiyning hozirgacha topilmagan asari muhim o'rinni egallashi mumkin edi. Vazir Jayhoiiy Buxoroga yuli tushgan ibn Fadlanni qizg'in kutib olgani ham ma'lum. Jayxoniy asari o'sha davrda odat bo'lgan an'anaga ko'ra «G'aroyib ad-dunyo», «Ajoyib al-buldon» deb atalgan bo'lishi mumkin. Mas'udiyning tubandagi so'zlari fikrimizni tasdiqlaydi: «Al-Jayhoniy dunyoni tavsiflab hamda u haqda hikoya qiluvchi, chunonchi, quidagi ajoyibotlar, shaharlar, poytaxtlar, dunyo va dengizlar, xalqlar va ularning yashash makonlari va boshqa g'aroyib voqyea-hodisalar to'g'risida asar yaratdi»¹².

Tarixchi manbashunos olimlar B.A.Ahmedov, A.A.Madrimov, D.Yu.Yusupova, G.S.Fuzailovalarning asarlariga qaraganda¹³ Movarounnahrning somoniylar davridagi tarixi haqida xorijiy tarixchilardan dastlab Astaxoriy (Ibrohim ibn Muhammad al-Forsiy al-Karxiy al-Astaxoriy Abu Is'hoq. U geograf olim bo'lgan. Kelib chiqishi Eronning Astaxor vohasidan. Ko'plab ilmiy safarlar qilgan. Uning “Suvar al-aqolim val masolik val mamolik” asari o'z davrining mashhur asarlaridan hisoblangan. 958 yili vafot etgan).

“Suvar al-aqolim val masolik val mamolik”, Ibn Havqal (Muhammad ibn Ali ibn Havqal an-Nasibiy al-Bag'dodiy al-Mavsiliy. Bu olim ham geograf bo'lgan

¹² Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. -Т. Укитувчи, 1994, -466.

¹³ Тарихий манбашунослик. Ўқув қўлланма. /Тузувчилар: А.А.Мадримов, Г.С.Фузайлова. -Т.: Фан, 2006, -.3216.

va ko‘plab safarlar qilgan. 978 yil atrofida vafot etgan) “Surat al-arz”, Maqdisiy (Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Bakr al-Banno al-Maqdisiy al-Bashshor Shamsiddin Abu Abdulloh. Tarixchi va geograf olim bo‘lgan. 947 yili Maqdisda tug‘ilgan. Tijorat bilan shug‘ullangan va ko‘p shaharlarga safar qilgan. 1000 yili vafot etgan) “Ahsan at-taqosim” nomli asarlarida batafsil ma’lumot berib o‘tganlar.

Movarounnahr o‘lkasi Damashqdan so‘ng Ma'mun davriga qadar Bag‘doddagi xalifalikka bog‘liq bo‘lgan. Ma'mun xalifa bo‘lgach, As'ad ibn Somonning farzandlarini o‘ziga yaqin kishilardan bilib, Movarounnahrda boshliq qilib tayinlagan. Shu bilan Movarounnahr somoniylar qo‘liga o‘tgan. Lekin 875 yilga qadar ular markaziy xalifalikka bo‘ysunar edilar. 875 yildan boshlab ular mustaqil imperiya sifatida somoniylar davlatini barpo qildilar¹⁴.

Mashhur tarixchi olim Ibn al-Asir: “Somoniy davlati yer yuzida keng yoyilib, ko‘p joylarni egallagan hamda siyrat va adolat jihatidan eng yaxshi davlatlardan edi”, deb e’tirof etgan¹⁵.

Yana bir ensiklopedik olim Ibn Hallikon somoniylar davlati amirlarini shunday sifatlagan: “Somoniy podshohlari Movarounnahr va Xuroson sultonlarining siyrat jihatidan eng yaxshilari edi. Ulardan kim podshohlikka o‘tirs, “sultonlar sultoni”, deb atalar va shu nom bilangina tanilar edi. Bu nom unga go‘yo belgi bo‘lib qolar edi. Odatda ular adolatli, zakovatli va ilimli kishilar bo‘lganlar”¹⁶.

Ibn al-Asir somoniylar davlatining sultonlaridan Ahmad ibn Asadni shunday tariflagan: “Ahmad ibn Asad tama qilmaydigan, hamma yaxshi ko‘radigan kishi bo‘lib, uning odamlari pora olmas edi”. Ushbu sultonning o‘g‘li Ismoil haqida ham shunday fikrlarni bildirgan: “Ismoil oqil, adolatli, xalqiga yaxshi munosabatda bo‘ladigan, yumshoq odam edi”¹⁷.

¹⁴Сагдуллаев А.С., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. – Т.: Академия, 2006. -142б.

¹⁵Абу Али Ҳасан ибн Али Тусий – Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулк). -Т.:Янги аср авлоди, 2010, -239 б.

¹⁶Негматов Н. Н. Государство Саманидов. –Душанбе. ; Дониш, 1977, -277 с.

¹⁷Низомулмулк. Сиёсатнома. -Т.: Янги аср авлоди, 1997. 245 –б.

Somoniylar podshohlari ilmga va uning ahliga katta e'tibor bergan edilar. Buning tasdig'i o'laroq o'lkada ko'plab umumiy va xos kutubxonalar barpo etilgan edi. Ibn al-Asir somoniylar podshohi Ismoil ibn Ahmad ibn Asad(Amir Abu Ibrohim Ismoil ibn Ahmad ibn Asad ibn Somon fozil, olim, mohir chavandoz, shijoatli, ulamolarni hurmat qiladigan podshoh bo'lgan. Muhammad ibn Nasrdan uning barcha kitoblarini tinglagan. Undan Ibn Xuzayma va boshqalar dars olgan. U 908 yili Buxoroda vafot etgan)ni shunday tariflagan: "Ismoil yaxshi inson bo'lib, ilm va din ahlini yaxshi ko'rar va ularni hurmat qilar edi"¹⁸.

Manbalarda Ismoilning o'zi haqida shunday rivoyat qilinadi: "Samarqandda yashayotgan edim. Bir kuni zulm bilan olingan narsalar xususida o'ylanib o'tirgan edim. Shunda, Abu Abdulloh Muhammad ibn Nasr al-Faqih ash-Shofiiy kirib qoldi. Men u zotning ilmi va dinini ulug'lab darhol o'rnimdan turdim"¹⁹.

O'z davrida somoniy sulton huzurida ilmiy munozaralar tashkil qilinar va sultonning o'zi turib biron bir masalani so'rar edi. So'ng hozir bo'lgan ulamolar bunga javob berar edilar. Sultonlikdagi har bir jome masjidda kutubxona mavjud bo'lib, eng kattasi Marv shahrida joylashgan edi. Mazkur kutubxona turli lug'atlardagi nafis kitoblarni qamrab olgan. Shuningdek, sultonning maxsus kutubxonasi ham bo'lgan.

Somoniylar davrida Movarounnahr o'lkasi hadis, fiqh, lug'at va boshqa islomiy ilmlar bo'yicha yetuk olimlarni yetishtirib chiqargan. Ular o'zlarining jiddu jahdlari, ilm yo'lidagi qiyinchiliklarga sabr qilishlari bilan katta matonat ko'rsatganlar. Ular har qancha uzoq bo'lmasin, olis shaharlarga borib, mashaqqat bilan ilm olgan edilar. Bunday olimlardan mashhur muhaddis Muhammad ibn Hibbon va "Al-Ishrof" kitobining muallifi Abu Bakr ibn

¹⁸Наршахий. Бухоро тарихи, 56-б.

¹⁹ Абу Джафар Муҳаммад ат-Табарий. История ат-Табарий. -Т. Фан. 1987. -210 б.

Muhammad ibn al-Munzir va “At-Tahzib” kitobining muallifi al-Azhariy kabi ulamolarni misol keltirish mumkin²⁰.

Shuningdek, somoniylar davrida Movarounnahr va Xuroson o'lkalarida turli islomiy aqidaviy oqimlar bilan bir qatorda g'ayriislomiy oqimlarni ham uchratish mumkin edi.

Maqdisiy o'sha davrlarda Movarounnahr va Xuroson o'lkalarida o'zi shohid bo'lgan turli oqimlar haqida shunday yozgan: “Ushbu o'lkada ko'p sonli yahudiylar va oz sonli nasroniylar yashaydi. Bu o'lka turli ilmlar, jumladan, fiqh eng ko'p tarqalgan maskandir. Movarounnahr va Xurosonda asosan ahli sunna va jamoa mazhablari faoliyat olib borgan. Lekin Sijiston va Xirot kabi ayrim shaharlarda xorijiylar, Naysaburda mu'taziliylar ham uchrab turardi. Shuningdek, ayrim hududlarda shialar va karromiylarni ham uchratishimiz mumkin edi. Lekin bu o'lkada Abu Hanifa mazhabi asosiy mazhab hisoblangan. Shosh, Tus, Naso shaharlarida shofiiy mazhabiga e'tiqod qiluvchilar ham ko'p edi. Ta'kidlash joizki, o'lkada shialar bilan karromiylar, shofiiylar bilan hanafiylar o'rtasida o'zaro bahslar yuzaga kelsa, sultonning o'zi aralashib, ularning orasini isloh qilishiga to'g'ri kelar edi”²¹. Demak, somoniy sultonlarning o'zlari o'lkada e'tiqodiy va diniy bag'rikenglikni mustahkam turgan holda o'z nazoratlarida saqlaganlar.

Ibn an-Nadim somoniylar davrida manoniya firqasi a'zolaridan besh yuzga yaqini Samarqandda yashaganini, ularning boshliqlari bu yerga Bobildan ko'chib kelganini ta'kidlab o'tgan. Shuningdek, olim Movarounnahrda sumaniya firqasi tarqalganini, yahudiy va nasroniylar ham ko'pligini zikr qilgan.

Somoniylar davrida Samarqand tarixidagi geografik va ijtimoiy-madaniy omillar ta'lim jarayonlari, ayniqsa hanafiylikning mintaqada taraqqiy etishiga turtki bo'ldi. Hanafiya olimi Abul Muin an-Nasafiy “Tabsirat al-adilla” asarida

²⁰Хожа Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислам маданияти.-Т.: Шарқ,-2005. -1156.

²¹ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. -Т.: Фан,1993. -168 б.

ta'kidlashicha, Movarounnahr va Xurosonning Marv va Balx kabi shaharlarida mu'taziliya ta'limotini qabul qilganlardan tashqari Abu Hanifa izdoshlarining asosiy qismi usul va furu' mavzularida islom kirib kelgan davrning dastlabki kunlaridanoq hanafiya ta'limotini qabul qilgan edilar. Nasafiyning mazkur asaridagi "Movarounnahrda mu'taziliya ta'limotini qabul qilmagan hanafiylar" degan iborasidan, bu o'lkada hanafiya olimlari ikki guruhga bo'lingani ma'lum bo'ladi: 1.Hanafiy mu'taziliylar. 2.Abu Mansur al-Moturidiy tomonidan rivojlantirilib tizimga solingan va mu'taziliya fikrlarini rad qilgan hanafiy moturidiylar.

Ibn Zakariyo Yahyo ibn Is'hoqning "Sharh jumal usul ad-din" asarida bir rivoyat e'tiborga molikdir: Somoniylar davrida Movarounnahrda islom diniga yangi kirgan bir kishi musulmonlarning yetmish uch firqaga ajralib ketganini eshitadi. Shunda u qadariy-mu'taziliydan insonning fe'llari haqida so'raydi. Mu'taziliy quyidagicha javob beradi: "Men istaganimni qila olaman va o'zim xohlagan har narsaga kuchim yetadi". Yangi musulmon uning fikriga raddiya berib deydi: "Men bu e'tiqodni tanlamayman. Chunki bu e'tiqod orqali Allohning xohish va qudrati chetga chiqib qolmoqda". Shunda qadariy-mu'taziliy: "Agar mening fikrimni qabul qilmasang, ahli sunna val jamoa mazhabiga borib qo'shil", deb javob beradi. Shundan so'ng yangi musulmon o'zi yashayotgan joydagi jamiki firqalar vakillaridan inson fe'li haqida so'rab chiqadi va birontasining aqidasi qabul qilmaydi. U murojaat qilgan firqalarning barchasi: "Agar bizning aqidamizni qabul qilmasang, ahli sunna val jamoa mazhabiga borib qo'shil", degan fikrni aytishadi.

U firqalar vakillaridan ahli sunna val jamoa kimlar ekanini so'raganida, ular quyidagicha javob beradilar: "Ular har yerda ahli sunna val jamoa nomi bilan tanilganlar. Samarqandda "Dor al-juzjoniya" va "Dor al-iyodiya" a'zolari, Buxoroda "As'hobi Abu Hafs" (Abu Hafs al-Kabir tarafdorlari), Balxda Nusayr ibn Yahyo tarafdorlaridir. Ular ahli sunna val jamoa qarashlarini tarqatayotgan ilm ahli hisoblanadilar".

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, somoniylar davrida faoliyat olib borgan sultonlarning barchasi ilm-ma'rifatga xayrixoh bo'lganlar. Ular o'lkada yashab ijod qilgan barcha ulamolarning ilmiy meroslariga befarq bo'lmaganlar. Shuningdek, o'lkada islomiy firqa va oqimlar bilan bir qatorda boshqa din vakillarining ham faoliyatlari kuzatilgan. Ayniqsa, o'lkada nasroniylar va yahudiylarning uchrab turishi ham somoniylar davrida diniy bag'rikenglikka katta e'tibor berilganidan dalolat beradi. Yuqoridagi ma'lumotlar hozirgi kunda ham yurtimizda boshqa din vakillariga nisbatan hurmat-ehtirom bilan muomalada bo'lish, o'zaro tinchlik ostida yashashga undashi tabiiy holdir.

Ibn Xolliqon, Istahriy, ibn Havqal va Muqaddasiy keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, Movarounnahrning asosiy viloyatlarida, ayniqsa Zarafshon, Farg'ona vodiylarida, Ilaqda, Xorazmda qishloq xujaligi rivojlangan. O'rta Osiyo shaharlari qadimdan Yaqin va O'rta Sharq, Volga buyi va Xitoy bilan karvoi yo'llari orqali bog'lanib kelganlar. Bu haqda ibn Xurdodbeh, ibn Fadlan, Gardiziy asarlarida, shuningdek Xorazm va Volga buyida olib borilgan arxeologik qazilmalardan topilgan faktik materiallar mavjud.

X—XII asrlarda Movarounnahrda tarix va geografiyaga qiziqish ortib, bu ilmlarga e'tibor kuchayadi. Chunki bu davrda mahalliy aholining ma'naviy hayotida o'z ona tili va unda yozilgan tarixiy va adabiy asarlarga bo'lgan ehtiyoj ham tobora ortib bormoqsa edi. Ayni shu davrda Gardiziyning «Zaynulaxbor» («Xabarlar ko'rki»), Bayxaqiyning 30 jildlik tarixiy asari, Majiduddin Adnoniyning «Tarixiy mulki Turkiston», Muhammad Narshaxiyning «Tarixi Buxoro» kabi asarlari fors tiliga tarjima qilinadi.

I. 2. Mavorounnahr va Xurosonda Somoniylar hokimiyatining o'rnatilishi va siyosiy hayoti.

Movarounnahr va Xurosonda arab bosqinchilariga qarshi tinmay davom etgan xalq harakatlari xalifalikning qudratiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning siyosiy, ma'naviy va iqtisodiy poydevorini ma'lum darajada zaiflashtirdi. O'z navbatida mahalliy feodal zodagonlarning xalifalikni idora etishda keng ishtirok etishi uchun zamin tug'ildi. Ma'lumki, xalifalar bu qo'zg'olonlarni bostirish davomida bir necha bor mahalliy zodagonlardan yordam so'raganlar. Ko'rsatilgan yordam evaziga ularni ma'lum viloyat va o'lkalarning noiblari qilib tayinlaganlar. Tez orada mahalliy zodagonlar faqatgina Movarounnahr va Xurosonda emas, balki xalifalik markazida ham yuqori lavozimlarni egallashga muvaffaq bo'ldilar.

Davlatni idora etishda yuqori pog'onaga erishgan mahalliy zodagonlar sulolasidan biri barmakiylar bo'lgan. Xalifa Xorun ar-Rashid (786—809 yillar) barmakiylar qudratini oshib borayotganidan qo'rqib, bu sulolaning hammasini o'ldirib yuborgan. Dorun ar-Rashid o'limidan keyin taxt uchun bo'lgan kurashda yana bir mahalliy zodagonlar sulolasi tarix sahifasiga kirib keldi. Bu Tohiriylar sulolasidir. Sulola asoschisi Tohir ibn Husayn Xurosonning eng yirik yer egalaridan bo'lib u Xorun ar-Rashidning ug'li Ma'munni taxtga o'tirishiga yordam bergan. Ma'mun (813—833 y.) xalifa bo'lib olgach, Tohir ibn Xusayn tez orada xalifalikning eng nufuzli kishilaridan biriga aylandi. U bir necha vaqt xalifa qo'shinining bosh sarkardasi lavozimida ishladi. 821 yili esa xalifa uni Xuroson noibi qilib tayinladi. Tohir Xuroson noibligini poytaxti qilib Nishopur shahrini tanladi. Xurosonga qaytgach u o'ziga qarashli noiblikni mustaqil davlatga aylantirish rejalarini tuza boshladi. Bir yil o'tmasdanoq Tohir ibn Husayn xalifa ismini juma namozidagi xutbada qayd qilishni man qildi. Bu xalifaga nisbatan ochiq isyon edi. Lekin uning rejaları amalga oshmadi. U

to'satdan vafot etdi. Taxmin qilinishicha, uning o'limida xalifaning odamlarini qo'li bo'lgan²².

Xalifa Ma'mun Tohir ibn Husayn Xuroson noibi qilib uning ug'li Talxni tayinlaydi (822—828 yillar). Tohirning ikkinchi ug'li Abdullo noiblik qilgan yillarida (830—844 yillar) Xuroson xalifaga vassal Xisoblansa-da, aslida mustaqil davlatga aylandi. Xalifa Mutasim (833—842 yillar), bir necha bor Abdulloni bo'ysundirishga harakat qildi. Ammo bunda u muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Tohiriylar kuchli hokimiyat tuzishga, qishloq xo'jaligini tashkil etishga astoydil harakat qildilar. Yangi sug'orish inshootlarini barpo etdilar. Mahalliy amaldorlarni o'z lavozimlarini suiste'mol qilmasliklarini nazorat kildilar. Albatta bunda ular dehqonlar manfaatini emas, balki aholidan olinadigan soliqni xazinaga izchil kelib tushishini nazarda tutganlar. Ular na devdondan olinadigan soliq miqdorini, na ular o'taydigan majburiyatlarni kamaytirmaganlar. Soliqlar miqdori juda katta bo'lgan. Manbalarda qayd qilinishicha, 844 yil aholidan 48 million dirham soliq yig'ilgan; Soliqlarning ko'pchiligi dehqonlarni qo'zg'olon ko'tarishiga olib kelgan.²³ Tohiriylar bu qo'zg'olonlarni shavqatsiz bostirib turganlar.

Tohiriylar islom dinini xalq orasida keng yoyish siyosatini davom ettirib, islom ruhoniylarini o'z rejalarini amalga oshirishda tayanch deb bilganlar. Talx ibn Tohir noibligi (842—864) davrida zardushtiylik dini saqlanib kelgan Ustrushonada ham islom dini qabul qildirilgan. Davlatni idora etishda tohiriylar malakali, bilimli amaldorlarga muhtoj edilar. Shuning uchun ular bilimdon odamlarga homiylik qilganlar. Ma'lum toifadagi odamlarga bilim olish uchun keng sharoitlar tug'dirib berganlar. Manbalarda qayd qilinishicha Tohiriylar juda bilimdon bo'lganlar. Xususan, Tohir ibn Husayn va Abdullo ancha tanilgan shoir bo'lganlar.

²² Негматов Н. Государство Саманидов. -Душанбе, "Дониш", 1997, -21-б.

²³ Сагдуллаев ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Т.: Академия, 2000. -96б.

Abdullo vafotidan keyin Toxiriylar davlati asta-sekin inqirozga yuz tutdi va ko‘p vaqt o‘tmay ularning hokimiyati butunlay tugatildi. Tohiriylar sulolasining so‘nggi vakili Muhammad ibn Tohir (862— 873 yillar) Yoqub ibn Lays bilan bo‘lgan jangda mag‘lub bo‘ldi.

IX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo va Eron chegarasida xalq harakatlari kuchayib ketdi. Bu xalq harakatlaridan hunarmand misgar aka-uka Yokub va Amr ibn Layslar (safforiylar) o‘z niyatlarini amalga oshirishda foydalandilar. Avval ular qarokchilik qildilar va so‘ngra Seyistondagi roziylar — «e’tiqod uchun kurashuvchilar» qo‘shiniga qo‘shildilar. Lashkarboshilik qobiliyatiga ega bo‘lgan Yoqub tez orada bu qo‘shinning boshlig‘i bo‘lib oldi va 861 yilda Seyistonning poytaxti Zaranj shahrini Tohiriylardan tortib oldi. Yoqub 10 yil davomida Tohiriylarga qarashli yerlarning hammasini bosib oldi. 873 yilda Yoqub Muhammad ibn Tohir qo‘shinini tor-mor qildi va Tohiriylar poytaxti Nishopurni egalladi. Xalifa Xuroson noibligini Yoqubga topshirishga majbur bo‘ldi. 876 yili Yoqub katta qo‘shin bilan Bag‘dod tomon yo‘l oldi. Bag‘doddan 100 km uzoqlikda xalifa va Yoqub qo‘shinlari tuqnashdilar. Bu jangda Yoqub qo‘shini mag‘lubiyatga uchradi va u orqaga qaytdi. 879 yili Yoqub ibn Lays vafot etdi. Taxtga Yoqubning ukasi Amr ibn Laysni o‘tkazishdi (879—900 yillar). Amr ibn Lays xalifaga o‘z vassalligini bildirdi. Bunga javoban xalifa Amr ibn Laysni Xuroson va Eronning noibi ekanligini qayd qiluvchi yorliq yubordi²⁴.

Safforiylar xukmdorligi davrida xalqning ahvoli sezilarli darajada yaxshilanmadi. Vaholanki, ular xalq harakati natijasida hokimiyat tepasiga kelgandi. Safforiylar asosan mayda va o‘rta hol yer egalariga suyangan holda davlatni idora qildilar. Ular xalqdan olinadigan soliq mikdorini o‘zgartirmadilar. Safforiylar katta e’tiborni qo‘shin tuzishga qaratdilar. Qo‘shinda mustahkam intizom o‘rnatdilar. Navro‘z kunlarida qo‘shinlar maxsus ko‘rikdan o‘tkazilgan. Amirdan tortib oddiy lashkargacha ko‘rik paytida o‘z otlarini va qurol-

²⁴ Негматов Н. Государство Саманидов, -Душанбе,: “Дониш”, 1997,- 226.

yaroqlarini nazoratchiga ko'rsatgan. Lashkarlar har uch oyda maosh olganlar. Qo'shinning asosini ko'ngillilar tashkil etgan. Bu qo'shin turi asosan qochoq va yersiz dehqonlardan iborat bo'lgan. Ko'ngillilardan tamqari Safforiylar qo'shini yer egalarining o'g'illilaridan va qullardan iborat bo'lgan.

IX asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrda somoniylar sulolasi paydo bo'lgan. Somoniylar sulolasiga asos solgan Somon yirik yer egasi bo'lgan. Manbalarining birida u Balx yaqinidan, ikkinchisida esa Samarqand atrofidan yoki Termizdan bo'lganligi qayd etilgan²⁵. Somon Ma'mun Xuroson noibligi paytida unga xizmatga o'tgan va tez orada uning e'tiborini qozongan, Ma'mun ta'siri ostida xalq zardushtiylik dinidan voz kechib, islom diniga kirgan. Xuddi shu vaqtda Somoniyning o'g'li Asad ham xalifa Ma'mun e'tiboriga tushgan. Asadning to'rtta o'g'li bo'lgan va ular Ma'mun saroyida xizmat qilishgan. Ma'munning buyrug'iga binoan Xuroson noibi Asadning o'g'illarini 820 yilda Movarounnahr o'lkalariga noib qilib tayinlaydi. Xususan, Asadning katta o'g'li Nuhni Samarqand, Ahmadni Farg'ona, Yahyoni Shosh va Ustrushonani, Ilyosni Xirot noibi qilib tayinlaydi. Tohir ibn Husayn Asadning o'g'illarini yaxshi bilgan va ularga kerakli vaqtda yordam qo'lini cho'zgan.

Bu davrda Movarounnahrning Samarqand, Farg'ona, Toshkent va Ustrushona viloyatlarida noiblik kilayotgan somoniylar xonadonining siyosiy hayotida ham asta-sekin o'zgarishlar yuz beradi. Movarounnahrda avval Nuh, so'ngra Ahmad boshchilik qiladi. Hatto o'z nomlaridan misdan chaqalar zarb etadilar. Ahmad vafotidan (865) keyin uning o'g'li Nasr Samarqandni markazga aylantiradi. Buxoro vohasi, Naxshab (Qashqadaryo), Chag'onrud (Surxondaryo) vodiylaridan tashqari Movarounnahrning barcha viloyatlarini birlashtirish va uni Xurosondan ajratib olish choralarini ko'radi²⁶.

Tohiriylar davlatining barham topishi bilan vaziyat tubdan o'zgarib, istiqlol uchun qulay sharoit paydo bo'ladi. Chunki safforiylar Movarounnahrda hukmronlik qilishning uddasidan chiqq olmaydilar. O'z holiga tashlab qo'yilgan Buxoro ahli hatto safforiylarga

²⁵ Наршахий. Бухоро тарихи, -132-б.; Бартольд В.В. Сочинения. -Т.: 1, -267 с..

²⁶ Сагдуллаев А.С, Эшов.Б.Ж. Ўзбекистон тарихи. -Т.: Университет:1997.-135 б.

tobe bo'lishni xoxdamaydi. Shahar zodagonlari somoniylarga murojaat qilib, Samarqandga — Nasr ibn Ahmad huzuriga elchilar yuboradilar. Undan Buxoroni o'z qo'li ostiga olishni va somoniylar xonadonidan bir kishini Buxoroga hokim kilib yuborishni so'raydilar. Nasr bu taklifni mamnuniyat bilan qabul qilib, ukasi Ismoilni (874) Buxoroga noib kilib yuboradi.

Shunday qilib, IX asming oxirgi choragida Movarounnahrning deyarli barcha viloyatlari somoniylar tasarrufiga o'tib, u o'z mustaqilligini tiklab oladi. Xuddi shu vaqgdan boshlab Nasr ibn Ahmad o'zini butun Movarounnahrning boshlig'i deb hisoblay boshlaydi. Garchi ukalari Shosh viloyatining noibi Yoqub va Farg'ona hokimi Asadlar o'z nomlari bilan chaqa pul zarb etib, o'zboshimchalik qilsalar ham, ammo u somoniylar hukmronligi tarixida birinchi bo'lib kumush dirham zarb etadi. Kumush tangalar chiqarish davlat mustaqilligining ramzi hisoblanib, to shu vaqtgacha xalifalik viloyatlarida faqat tohiriylargina bunday dirhamni zarb etish huquqiga ega edilar. Shunday bo'lsa-da, Buxoro noibi Ismoil akasi Nasrga itoat qilishni istamaydi. O'ziga berilgan viloyatni mumkin qadar iqtisodiy jihatdan mustaqil idora qilishga intiladi. Samarqandga Nasrning xazinasiga yuboriladigan har yilgi soliqlarni turli bahonalar bilan to'xtatib qo'yadi. Aka-uka o'rtasida adovat paydo bo'ladi. U 888 yiddagi jangga olib keladi. Jangda Nasr qo'shinlari tor-mor keltiriladi. Shu yildan boshlab Ismoil butun Movarounnahrni birlashtirib, uning yagona hukmroni bo'lib oladi²⁷.

Ismoil Somoniy o'rta asrlarning qobiliyatli, serg'ayrat va nihoyatda zukko davlat arbobi edi. U Movarounnahrni birlashtirgach, markazlashgan mustahkam davlatni tuzishga intiladi. U o'z vatanida barkaror tinchlikni ta'minlab, uni mustahkamlashda hukmronlik qobiliyatini hamma nozik xususiyatlarini ishga soladi. Avvalo kattaqo'shin to'plab, ko'chmanchilar dashtiga askar tortadi. 893 yilda Tarozi shahrini fath etib, dashtliqlarga kaqshatqich zarba beradi. Bu somoniylar davrida ko'chmanchilarga qarshi qilingan oxirgi katta yurish bo'ldi. Natijada dashtlik qabilalarning Movarounnahr viloyatlariga bo'lgan uzluksiz

²⁷ Хидаятов Г.А. Крушение Саманидов. -Т.: 2003, -656.

bosqinlari barham topib, o'troq aholi endilikda vohalar atrofi bo'ylab yuzlab kilometr ga cho'zilgan mudofaa devorlari-yu, son-sanoqsiz qal'alarni bino qilish va ularni muttasil ta'mirlab turishdek og'ir va mashaqqatli mehnatdan, tashvishdan forig' bo'ladi. Xuddi shu davrdan boshlab, 300 km dan oshiqroq masofada Buxoro vohasining girdini o'rab turgan qadimiy mudofaa inshooti «Kampirak» devorining har yilgi odatiy hashari ham to'xtatilib, u qarovsiz qoldirilgan. Narshaxiyning yozishicha, Amir Ismoil o'zining kuchli qo'shinlarini nazarda tutib, «Toki men tirik ekanman, Buxoro viloyatining devori men bo'laman»²⁸, deb aytgan ekan.

Movarounnahr aholisining mustaqillikka erishib, bu diyorda Somoniylar davlatining tobora kuchayib borishi shubhasiz sharqiy viloyatlardan muttasil undirilib olinadigan katta boyliklardan mahrum bo'lgan Arab xalifaligini, bir tomondan, nihoyatda ranjitsa, ikkinchi tomondan, cho'chitar ham edi. Shu boisdan xalifalik safforiylar bilan so-moniylarni to'qnashtirishga va bu yosh ikki davlatning har ikkisini zaiflashtirib, boy viloyatlarda ma'lum darajada o'z ta'sirini qayta tiklashga harakat qiladi. 900 yilda ular . o'rtasida boshlanib ketgan urush Ismoilning g'alabasi bilan tugaydi. Butun Xuroson somoniylar qo'l ostiga o'tadi. Noilojlikdan xalifa Ismoilning bunday ulkan davlatini tan olishga, unga hukmdorlik yorlig'ini yuborishga majbur bo'ladi. Shunday qilib, IX asr oxirlarida Movarounnahr Arab xalifaligi istibdodidan abadiy xalos bo'ladi. Ismoil Somoniy butun Movarounnahrni o'z qo'li ostida kuchli bir davlat qilib birlashtiradi, Xurosonda tashkil topgan Safforiylar davlatiga barham beradi va uni o'z davlatiga qo'shib oladi. Natijada poytaxti Buxoro shahri bo'lgan zamonasining eng yirik mustaqil o'rta asrlar davlati tashkil topadi. Bu davlatni somoniylar xonadonidan bo'lgan hukmdorlar — amirlar X asr oxirlarigacha idora qiladilar.²⁹

²⁸ Наршахий. Бухоро тарихи, -326.

²⁹ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Т.: Шарқ, 2000, -946.

Abbosiylar xalifaligi davrida bir butun bo'lgan mazkur shahar va viloyatlar X asrning biriichi choragida undan ajralib chiqdi. Bu bo'linish to 935 yillargacha davom etdi. Natijada Mesopotamiya hamdoniylar (905—1004), Misr bilan Suriya ixshidiylar (935—969) qul ostiga, G'arbiy Eron buvayxiylarga, Tabariston bilan Gurgon mahalliy daylimiylar sulolasi bo'lmish ziyoriylarga, Movarounnahr bilan Xuroson somoniylar qo'liga utib qoldi. Tarixchilar o'xshatib aytganlaridek, xalifaga Bag'dod bilan Vaviloniyaning bir qismigina qoldi, xulos. To'g'ri, maxalliy hukmdorlar (mulk at-tavoif) hali ham xalifa hokimiyatini tan olar, uning nomini xutbaga qo'shib uqitar, tangalarda uning nomini o'z nomlari bilan bir qatorda zarb etar, vaqt-vaqti bilan xalifaga hadyalar yuborib turar edilar. Ammo ular Bardodga shunchaki qaram edilar, xolos. Xalifa nomigagina davlat boshlig'i bo'lib, hyech kanday real hokimiyatga ega emas edi. «Hozirgi vaqtda,— afsuslanib yozgan edi al-Mas'udiy,— islomning kuch-qudrati inqirozga yuz tutmoqda. [Bardoddan] ziyoratchilariing oyoqlari o'z ilib qoldi, g'azo urushlari esa sunib bormoqda... Shu paytgacha islomga g'alaba yor edi, hozir esa u bir qadar bukib qo'yilgan, asoslari nuragan; bu hodisa 943 yilda musulmonlar hammasi, xudo ishlarimizni o'zi o'ntlasin; xalifa al-Muttaqqiy (940—944) davrida sodir bo'ldi»³⁰.

Xalifalik vayronalarida vujudga kelgan davlatlarning eng kattasi Somoniylar davlati edi. U Movarounnahr va Xurosondan Ray va Kazvingacha bo'lgan yerlarini o'z ichiga olgan. Chunonchi, Ismoil ibn Ahmad (892—907) davrida mazkur sulolaning ko'zga ko'ringan namoyidalari; Somoniylar markaziy davlat apparatiki mustahkamlashdan manfaatdor bo'lgan feodal zodagonlar, din peshvolari, barcha badavlat dehqon tabaqalarining qo'llab-

³⁰ Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. -Т.: Ўқитувчи, 1994, -386.

quvvatlashlari bilan xorijiyning yetakchilaridan Amir Husaynni ardarib tashlashga, Buxoroning Barnod va Romiton tumanlarida boshlangan dehqonlar harakatini bostirishga hamda teskarichi boyonlarni davlat ishlaridan chetlashtirib tashlashga muvaffaq bo'ldilar; 893 yili qadimiy Ushrushonaning mahalliy hokimiyatini ardarib tashladilar hamda iqtisodii va siyosiy jihatdan ahamiyatga molik bulgan bu nohiyani o'z tasarruflariga olishga muaffaq bo'ldilar. Turk- korluqlarning Sirdaryo bo'yidagi yerlarga kelib turgan bosqinini to'xtatib; Tarozni bosib oldilar (893) hamda u yerdagi aholini musulmon diniga kirgizdilar. Mas'udiyning ta'kidlashicha, o'shanda 15 mingga yakin kishi asir qilib olingan. Qorluqlarning yo'lboshchisi ahlu oilasi bilan asir tushgan. O'sha jangdan sung Ismoil Somoniyni lashkari shu qadar katta boylikni qo'lga kiritdiki, har bir suvoriyga 10 ming dirxamga barobar o'lja tekkan. Tarixchi Narshaxiyni shohidlik berishicha, Ismoil o'shanda Tarozdagi butxonani masjidga aylantirgan.

Ismoil Somoniyni eng katta harbiy muvaffaqiyati Xurosonda safforiylar sulolasini ardarib, Balx ostonasida Amr ibn Lays (879—901) ustidan qozongan g'alabasi bo'ldi. Bu voqyea, ibn Xolliqonning ta'kidlashicha, hijriy 286 yilning 17 shavvalida (milodiy 899 yilning 26 oktyabrida) sodir bo'lgan. V. V. Birtold, ibn Xolliqon bergan ma'lumotlarga asoslanib, Amr ibn Lays bilan amir Ismoilni bir-biriga qarshi xalifa al-Mu'tadil (892—902) gij-gijlatib qo'ygan edi, deb yozadi³¹. Uning bundan ko'zlagan maqsadi, ularning o'rtasidaga ziddiatdan foydalanib, o'zining «darz» ketgan mavqyeini mustahkamlab olish edi. «Keyingi yillarda (893 yildan keyin),- deb yozgan edi ibn Xolliqon,- Amr Eronda o'zining mustahkam hokimiyatini o'rnatdi. O'z navbatida xalifa ham (Amrning) barcha xohish-istaklarini bajarishi lozim edi. (Xalifa)ning talab bilan 898 yili

³¹ Бартольд В.В. Сочинения. Т.: 1, -167 с.

barcha Xuroson ziyoratchilarini o'z saroyiga to'plab, Ismoilning taxtdan tushirilganligini, Amr esa Movarounnahr noibi etib tayinlanganligini e'lon qildi. Ketma-ket Nishopurga, Amr huzuriga, turli tuhfarlar hamda Movarounnahrqa noib etib tayinlanganligi tug'risidagi guvohnoma (bilan elchilar yuborildi. Ammo Amr musulmonlar hukmdori yuborgan in'omlarni ensasi qotibroq qabul qildi. Elchi Amr oldiga o'zi olib kelgan chopon va kiyimlarni yoyib qo'ydi. Amr xalifata hurmat yuzasidai choponlarni birma-bir kiyib ko'rdi. Nixoyat, elchi Amrga Movarounnahr noibligi tug'risidagi guvohnomani o'z atdi. Amr: «Buni nima qilaman, Ismoil **qo'l**idan Movarounnahrni 100 ming yalangoch shamshirsiz olib bulmaydi-ku»,— dedi. Elchi esa: «Buni o'zing bilasan, axir o'zing xohish-irodang shunday edi-ku»,— dedi. Amr guvohnomani khliga olib o'pib, boshiga qo'ydi, sung olib oldiga quydi»³²...

Shunday qilyb, Seiston (u yerda safforiylar hukmron edilar), Go'zganon (farig'uniylar hukmron edilar), G'azna (dastlab mahalliy hukmdor Alptegin qo'l ostida edi), Xorazm, Isfijob, Chagoniyon va Xuttalondan (ularning hukxmdorlari tobe edilar) tashqari, ulkan hudud (Movarounnahr, Xuroson) somoniylar tomonidan buysundirilgandi. Ular bu yerda 100 yilcha hukmronlik qildilar.

³² Наршахий. Бухоро тарихи, 52-б.

1.3. Somoniylar davlatining inqirozi sabablari

Somoniylar davrida Movarounnahr hamda Xurosonda somoniy amirlar, ularning oila a'zolari, dehqon zodagonlari, musulmon dini arboblari, yuqori mansabdagi turk gvardiyasi vakillari, chunonchi, Alp tegin, Sabuq tegin, Abu Ali Simjuriy, Foiq va boshqalar, shuningdek, badavlat savdogarlar hukmron sinf sirasiga kirgan. Ularning qo'lida katta-katta yer-suvlar, behisob boyliklar to'plangan edi. Ular mehnatkash halq ommasini, chunonchi, jamoa dehqonlari hamda shahar kambag'allarini ayovsiz ezar edilar. Mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida dehqon zodagonlari, shariat peshvolari, ayniqsa turk gvardiyasi boshliqlari katta rol o'ynaganlar. Chunonchi, Alp tegin Nuh I hukmronligi davrida (943—954) Xuroson hokimi bo'lgan. U, manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, shu qadar katta boylikka ega bo'lganki, bu uning Somoniylar davlati taqdirini hal etishiga yo'l ochib bergan. «Uning Xuroson va Movarounnahrda,— deb yozadi Nizomulmulk,— 500 dan ortiq qishloqni birlashtirgan mulki mavjud edi. Biron shahar yuh ediki, unda bu odamga tegishli saroylar, bog'-rog'lar, karvonsaroylar, hammomlar bulmagan bo'lsin. Uning ko'plab galla omborlari, ming-minglab quylari, yuz minglab ot-tuya va xachirlari bo'lgan». Nizomulmulkning mana bu so'zi ham e'tiborga sazovor: «Alp tegin Nishopurda ekanligida Xuroson amiri Nuh ibn Nasr qazo qildi. Amirning yaqin kishilari poytaxt Buxorodan Alp teginga maktub yo'llab, «Xuroson amiri qazo qildi, uning 30 yoshli inisi va 16 yoshli o'g'li qoldi. Shu ikki kishidan birini, senga ma'qul kelganini, davlat tepasiga quymoqchimiz, chunki sen davlat ustunisan»³³.

Markaziy davlat apparatining nisbatan mustahkamlanishi, mamlakatda osoyishtalikning vujudga kelishi iatijasida devdonlar hamda shahar aholisining ahvoli birmuncha yaxshilandi. Xalq endi ancha erkin nafas ola boshladi. Chunki u endi bosqinchilik urushlaridan, talon-torajlardan, og'ir xarbiy soliq va jarimalardan

³³ Низомулмулк. Сиёсатнома. Т.: Адолат, 1997. -456.

ancha holi bo'lgan edi. Bundan tashqari, mahalliy aholi arablar hukmronligi davrida o'zi uchun haqorat hisoblangan muhr bosish tartibidan qutilgan edi. Ammo shunga qaramay, keng mehnatkash ommaning ahvoli og'ir edi. Ziroatchilar asosiy soliq hisoblangan xirojdan tashqari yana kuplab turli soliq va jarimalar to'lashga, majburiy ishlarga — saroylar, yo'llar, ko'priklar, qal'alar, masjidlar, madrasalar qurilishiga, suv havzalari va ariqlarni ta'mirlashga jalb qilinar edilar. Ijarachilar juda og'ir ahvolda edilar. Ma'lumki, kupchilik dehqonlar katta mulk egalaridan yerlarni chorakor sifatida ijaraga olib ishlashga majbur edilar. Ijarachi — chorakorning o'z otulovi, omoch- buyinturugi, urugligi bulmagan va hosilning undan bir his- mi hisobiga chorakorlik hilishgan. Bunday holda ular o'z mustaqilligini yo'qotib, yer-mulk egasiga batamom qaram bo'lib qolganlar. A.Yu.Yakubovskiyning ta'kidlashicha, «dehqonlar amaldorlardan, ayniqsa moliya-solig'i idorasi xizmatchilaridan ko'p aziyat chekkanlar, chunki soliq-xiroj yigish ishlari bevosita o'sha idora tasarrufida edi»³⁴.

Hukmron sinfga qarshi ko'tarilgan bir qator qo'zg'olonlar mehnatkash xalq ommasining og'ir ahvolidan shohidlik beradi. Chunonchi, Narshaxiyning ta'kidlashicha, amir Ismoil 260 yil ramazon oyining 12 kuni (874 yilsing 1 iyul kuni) Buxoroga kelgan kuniyoq Romiton va Barxadda kutarilgan qudratli dehqon g'alayonlariga duch kelgan. Qo'zg'olopchilar soni 2000 kiyushdan ziyodroq edi.³⁵

Nasr II ibn Ahmad (914—943) davrida, ya'ni 930 yili Buxoroda kuchli dehqon g'alayonlari bo'ldi. Mazkur qo'zg'olonga novvoy o'g'li oshpaz Abubakr boshchilik qildi. Nihoyat, 961 yilda sodir bulgan

³⁴ Якубовский А.Ю. Махмуд Газнави.-Л., 1934, -74с.

³⁵ Каримов Ш, Р.Шамсутдинов. Ватан тарихи. -Т.: Ўқитувчи, 1997, -185б.

qo'zg'olonni eslash joizdir. Bunda qo'zg'olonchilar somoniylar saroyini yoqib yuborganlar.

Nasr II zamonida ruy bergan ijtimoiy xodisalardan yana biri shialar harakatidir. Bu harakat shunday kuchli bo'ldiki, O'z saflariga hatto Somoniylar davlatining yuqori lavozimidagi amaldorlarini, lashkarboshilarini, chunonchi, Husayn ibn Ali Marvoziy, bosh hojib Oytosh, amirning kotibi (dabiri xos) Abubakr ibn Abu Ash'os, Abu Mansur Choroni, Buxoro muxtasibi, moliya idorasining boshlig'i va boshqalarni ham tortgan edi. Ahvol shu darajaga borib yetdiki, Amir Nasr II ning o'zi ham karmatlar safiga kirdi.

Yirik yer egasi bo'lgan Ismoil mahalliy feodal zodagonlar va savdogarlarga suyanib davlatni idora qilgan. Lekin Ismoil ham, boshqa Somoniylar ham ichki ijtimoiy ziddiyatlarni yo'qota olmagan. Dehqonlarning yer egalari tomonidan qattik ekspluatatsiya qilinishi natijasida feodallarga qarshi qo'zg'olonlar bo'lib turgan. Bundan tashqari ayrim chekka o'lkalarning hokimlari markazlashtirish siyosatiga iloji boricha qarshilik ko'rsatganlar. Xususan, Xorazm, Afg'oniston hududlarida joylashgan hokimlar somoniylarga vassal bo'lsa-da, ular o'z yerlarida mustaqil siyosat yurgizganlar. Ular somoniylar saroyiga to'lanadigan soliqning ma'lum qismini emas, balki sovg'a-salomlar yuborish bilan kifoyalanganlar³⁶.

907 yilda Ismoil vafot etgach taxtni o'g'li Ahmad ibn Ismoil egalladi (907—914 yillar). Ahmad hukmronligi davrida bir qancha qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Xususan, amakisi Isxoq ibn Ahmad Samarqandda, Ray va Seyiston hokimlari isyon ko'tardilar. Bu isyonlar shavqatsizlik bilan bostirildi. Axmad uzoq vaqt hukmronlik qilmadi. Davlatni idora etishda arab tilini qayta tiklanishi ko'pgina maxalliy zodagon va Turk g'ulomlarining noroziligini uyg'otdi. 914 yilda u Turk g'ulomlari tomonidan o'ldirildi. Taxtga Axmadning 8 yoshli o'g'li

³⁶ Хидаятов Г.А. Крушение Саманидов. Т.: 2003, -114б.

Nasr ibn Axmad (914—943 yillar) o'tirdi. Saroyning ruxsati bilan davlat ishlarini vazir Abdullo Jayxoni boshqardi.³⁷

914 yilning oxirida Samarkandga yana qo'zg'olon ko'tarildi. Davlatning janubiy hududlarida bo'lgan Xusayn ibn Ali Marvoziy rahbarligidagi qo'zg'olon ayniqsa keskin tus oldi. Qo'zg'olon karmatlar g'oyasi bayrog'i ostida bo'lib o'tdi. Bu qo'zg'olon 918 yilda bostirildi. Marvoziy asir olindi. Ko'p o'tmay Marvoziy rahbarligidagi qo'zg'olon bostirilgach Axmad ibn Nux xokimiyatga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. 922 yilda esa Ilyos ibn Isxoq qo'zg'olon ko'tardi. Tinmay davom etgan qo'zg'olon va isyonlar Somoniylar davlatining qudratiga katta ta'sir ko'rsatdi va u asta-sekin tanazzulga yuz tutdi.

Nasr xukmronligi davrida Somoniylar davlati xududlarida karmatlar xarakati ancha keskin tus oldi. Karmatlar islomni yoyilishga, feodal munosabatlarning kuchayishiga karshi chiqindilar va oldingi an'analarni, kishlok jamoalarini kayta tiklashni yoklab chikdilar. Shuning uchun bu xarakatga keng xalk ommasi kushildi. Karmatlar goyasini amaldorlarning bir kismi va xatto Nasrning uzi xam kabul kildi. Nasrning bu kadami reakxion musulmon ruxoniylarning va turk gulomlarini noroziligini kuzgatdi. Natijada Nasr taxtdan voz kechishga majbur buldi. Taxtga Nasrning ugli Nux utirdi (943—954yillar). Nux karmatlarga karshi shavkatsiz kurash olib bordi. Ularning mol-mulklari musodara kilindi. Nux xatto uz otasi Nasrni zanjirband kilib, kal'aga kamab kuyishga buyruk berdi³⁸.

Nux xukmronligi davrida Somoniylar davlatini inkirozi kuzga yakkol tashlana boshladi. Bushab qolgan xazinani to'ldirish maksadida Nux soliklyar mikdorini kupaytirdi. Bu xalk noroziligini yanada oshirdi. Xalk noroziligidan foydalangan Nuxning amakisi Ibroxim ibn Axmad Xuroson noibi Abu Ali Chagoniy yordamida vaktincha Buxoro taxtini egallab olishga muvaffak buldi. Abu Ali Chagoniy Xurosonga kaytgach Nux yana Buxoro taxtiga kaytdi va

³⁷ Муртазаева Р.Х., ва б. Ўзбекистон тарихи (Маърузалар матни). -Т.: 2000.-178б.

³⁸ Негматов Н. Государство Саманидов, -Душанбе, : “Дониш”, 1997.-125-б.

isyonkor karindoshlarini kattik jazoladi. Lekin Somoniylarning Abu Ali Chagoniy bilan kurashi Abdumalik xukmronligi davrida (954—961 yillar) xam davom etdi. Abdumalik zamonida turk lashkarboshilarini davlat ishlariga aralashishi ancha kuchaydi. Xususan turk lashkarboshisi Alp Tegin «buyuk Xojib» lavozimiga kutarilgan. Abdumalik vafotidan keyin Somoniylar taxti uchun kurash yanada keskin tus oldi. Alp Teginning kat'iy xarakati bilan taxtga utirgan Abdumalikning ugli bor yugi 6 kun xukmdorlik kilgan. Taxtga Mansur ibn Nux (961—976- yillar) utirgan³⁹.

Soliqlarning yil sayin kupayib borishi, feodallarning uzaro janjallari, noiblarning markazga buysunmay kuyishi va saroydagi bulayotgan taxt uchun kurashlar somoniylar davlatini juda zaiflashtirib yubordi. Bu kurashlar anyiksa, Amir Mansur ibn NuxI(976—997 yillar) xukmronligi davrida keskin tus oldi. Ichki nizolar okibatida Nux II yettisuv va Kashkarda vujudga kelgan koraxoniylar davlatining Movarounnaxrxga kilgan yurishlariga keskin karshilik kilolmadi. Somoniylar davlatidagi siyosiy bekarorlikdan foydalangan koraxoniy Xorun Bug'roxon 990 yili Gapb tomon qo'shin tortdi va ikki yil davomida somoniylarga karashli bir kancha viloyatlarni uz davlati tarkibiga qo'shib oldi⁴⁰.

Talas, Ilok va Shoshda aytarli xech kanday karshiliksiz uz xukmronligini urnatgan Xorun Bugroxon 992 yili Somoniylar poytaxti Buxoro tomon kkushin tortdi. Bu jangda Nux II kkushinlari tor-mor etildi. Somoniylar amiri Nux II Buxoroni tashlab, Amudaryodan kechib utdi va Amul shaxrida yana Koraxoniylarga karshi kkushin tuplay boshladi. Koraxoniy Bugroxon Buxoroni xech karshiliksiz egalladi. Lekin bu yerda u mevalarni kup iste'mol kilish okibatida kasal buldi va orkaga kaytishga jazm kildi. Xorun Bugroxonni opkagakaytishiga yana bir sabab, axolini unga karshi bulganligidadir. Shuning uchun u Movarounnaxrxni bu vaktida o'z qo'li ostida ushlab qolishga ko'zi yetmagan.

³⁹ Негматов Н. Государство Саманидов, -Душанбе,: “Дониш”, 1997,- 131б.

⁴⁰ Ўзбекистон тарихи. 1 қисм. /А.Сагдуллаев, Б.Эшов таҳрири остида. -Т.: Университет, 1999. 2 нашри.- 136 .

Xorun Bugroxon Nuxning ugli Abdulazizni uz koshiga chakirib, taxtni unga topshirgan. Vaxolanki, agar u Movarounnaxrxrni uz *kuli* ostida saklab kolishga uzi istaganda, Buxoroga uz noibini tayinlar edi. Ibn al- Asirning yozishicha, Xorun Bugroxon Buxoroni tashlab chikib ketganidan sung uning kkushini yul yulakay axoliga xujum kilib katta ziyon yetkazgan. Orkaga kaytgan Koraxoniylar xkushiniga o'g'uz—turkman kabilalari xam xujum kilib, ularning kup mol-mulklarini tortib olganlar va uldirganlar. Xorun Bugroxon Buxoroni tashlab chikib ketganidan xabar topgan amir Nux II 992 yilni 12 avgustida poytaxtga kaytgan va chekinayotgan Koraxoniylar kkushiniga zarba berish yullarini izlagaya. Samarkand axolisi xam Koraxoniylar kkushiniga xujum kilib turganlar. Sog'ligi yomonlashgan Xorun Bugroxon Samarkanddan vataniga yul oldi va Kuchkorboshi degan joyda vafot etdi (992 y.)⁴¹.

997 yili Nux II vafot etdi. Taxtga utirgan Mansur ibn Nux uz amaldorlari bilan kelishishga xarakat kildi. Ammo bu xarakat yaxshi natija bermadi. Somoniylar saroyidagi eng nufuzli amaldorlardan xisoblangan Abu Ali Muxammad Isfijobiy amirga karshi isyon kutardi. Isfijobiyni iltimosiga binoan koraxoniy xukmdori Elik Nasr somoniylarga karshi kkushin tortdi. Lekin Elik Nasr Isfijobiyni uzini amir kilib Uzgandga junatdi. Bu paytga kelib somoniylar saroyida uzaro kelishmovchiliklar yanada kuchaydi. 999 yishh Mansur taxtdan tushirildi, va kuzi kur kilindi. Taxtga Mansurning ukasi Abdumalik ibn Nuxni utkazishdi.

Maxmud Gaznaviy 999 yilning may oyida Mansur uchun uch olish shiori ostida Movarounnaxrxrga karshi kkushin tortdi. U Somoniylar kkushinini tormor kilib katta uljalar bilan Gaznaga kaytdi. Yuzaga kelgan bu vaziyatdan Elik Nasr xam foydalanishga xarakat kildi. Negaki, bu jang okibatida Xuroson Maxmud Gaznaviy kuliga utgan edi. Shu yilning dekabr oyida Elik Nasr somoniylar sulolasini tugatish maksadida Buxoroga kkushin tortdi. Somoniylar Buxoro axolisi yordamida Koraxoniylarni shaxarga kirgizmaslikka xarakag

⁴¹ Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни.-Т.:Шарк, 2001, -236б.

kildilar. Lekin axolining kupismi Somoniylarni kullab-kuvvatlamadi va Elik Nasr Buxoroni .999 yilning 23 oktyabrida aytarli karshiliksiz bosib oldi. Elik Nasr Buxoroga Jafar Teginni tayinlab uzi Urganchga kaytdi.

Koraxoniylar Buxoroni bosib olgach, somoniylar sulolasiga mansub xamma odamlarni Uzgandga junatgan edilar. Bular orasida amir Abdumalik va Nux II ning yana bir ugli Abu Ibroxim Ismoil xam bor edi. U Uzganddan kochishga muvaffak bulib, ma'lum vakt Buxoroda Koraxoniylardan bekinib yurdi. Sungra Xorazmga borib, somoniylarning kolgan kkushinlarini tuplashga kirishdi. Abu Ibroxim Arslon Bamu raxbarligida Movarounnaxrga kkushin yubordi. Bu qo'shin Buxoroga xujum qilib Koraxoniy amaldorlaridan 17 kishini, Buxoro noibi Jafar Tegin bilan birga asir oldi. Arslon Bamu koraxoniylar qo'shinini Samarkandgacha ta'kib kildi. Samarkand noibi Tegin xon o'z qo'shini bilan qochayotgan koraxoniylar qo'shiniga yordamga chikdi. Lekin Tegin xon kkushini xam Somoniylar tomonidan tor-mor kilindi. Bu galabadan sung Abu Ibroxim Ismoil Buxoroga kaytdi va Muntasir (Zafao kiluvchi) lakabi bilan tangalar zarb kila boshladi. Muntasir Somoniylarning avvalgi shon-shuxratini tiklashga kirishdi. Bundan xabar topgan Elik Nasr katta krkushin bilan Movarounnaxrxrga yul oldi. Muntasir dali xarbiy kuchi koraxoniylar bilan tuknashuvga yetishmasligini sezib, uz kkushini bilan Movarounnaxrni tashlab Xurosonga yul oldi⁴².

1001 yilning mart oyida uning kushini Xurosonning zng yirik shaxarlaridan biri Nishopurni bosib oldi. Ammo kup utmay u bu shaxarni tashlab chikib ketishga majbur buldi va Ray shaxri tomon yul oldi. Muntasirning kudratini oshib borayotganidan xavotir bulgan Maxmud Gaznaviy Koraxoniylar bilan bitim tuzishga xarakat kildi. U Elik Nasrga elchilar yuborib, birgalikda Muntasirga karshi kurashishga da'vat etdi. Koraxoniylar va Gaznaviylar urtasida tuzilgan uzaro bitimga kura ikki davlat chegarasi kilib Amudaryo kabul kilindi va Maxmud Gaznaviy Elik Nasrning kiziga uylandi.

⁴² Сагдуллаев ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. – Т.: 1997, -1406.

1001 yilning sentyabr oyida Saraxs yaqinidagi jangda Muntasir kushini Gaznaviylar tomonidan tor-mor kilindi. U bu jangda uzining kup lashkarboshilaridan va askarlaridan ajraldi. 1003 yilning yozida bir kancha maglubiyatlardan sung Muntasir yana Movarounnaxrga kaytdi va kuchmanchi Saljukiylar yordamida Kopaxoniylarga zarba bermokchi buldi. Elik Nasr bundan xabar topib, uz kushini bilan Samarkandga yaqinlashdi. Al-Utbining yozishicha, Muntasir va Saljukiylar kechkurun Koraxoniylarga tusatdan xujum kilganlar va dushman kushinini bir kismini kirib tashlaganlar, kup asirlarni kulga kiritganlar. Katta xarbiy uljalarni kulga kiritgan Saljukiylar, keyinchalik uzlarining bu ishlaridan afsuslanib Koraxoniylar bilan alokalarini yaxshilashga xarakat kilganlar. Muntasir Saljukiylarning bu ishlaridan gumonsirab uziga sodik jangchilar bilan Amudaryodan utib Xurosonga ketgan va Sulton Maxmud bilan uz alokalarini yaxshilashga xarakat kildi va Sulton Maxmuddan Koraxoniylarga karshi yordam suradi⁴³.

1004 yilda Xorazmshoxdan maglub bulgan Muntasir yana Movarounnaxrga kaytdi. Dabusiya (Kattakurgon) yaqinida uning kushinlari tusatdan Koraxoniylarga xujum kilib, ularni tor-mor kildi Bu galaba Movarounnaxr axolisining Koraoniylarga karshi xarakati boshlanishiga turtki buldi. Samarkand gaznaviylarining boshligi Ibn Alamdor uzining uch ming kushiii bilan Muntasirga kelib kushildi. Samarkand shayxlari 300 ta kurollangan gulomlarni Muntasir junatdilar. Saljukiylar Muntasirga yordamga keldilar. Muntasirning xarbiy kudratini oshib borayotganligini kurgan Elik Nasr tezda kushin tuplab unga zarba bermokchi buldi. Lekin Ustrushonadagi Burgaza (Burnamada) kishlogi yadinida uning kushinlari Maglub buldi, va orkaga chekindi. Elik Nasr yana kup sonli kushin tuplab Jizzax va Xovos yadinida Somoniylar kushini bilan tuknashdi. Xal kiluvchi jangda Muntasirninglashkarboshilaridan biri Xasan ibn Tarik 5000 kushini bilan Koraxoniylar tomoniga utib ketdi. Xasan ibn Tarikning bu xiyonati va

⁴³ Сагдуллаев ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. – Т.: 1997, -1426.

saljukiylarning jang maydonini tashlab ketishi okibatida Somoniylar kushini jangda maglub buldi.⁴⁴

Amir Muntasir yana Xurosonga kochishga majbur buldi. Xuroson xokimlari bilan bulib utgan bir necha tuknashuvlardan sung Muntasir yana Movarounnaxrga, turtinchi marta Koraxoniylarga karshi kurashish madsadida kadam kuyadi. Koraxoniylar kushini bilan bulib utgan bir necha muvaffakiyatsiz to‘qnashuvlardan keyin holdan toygan Muntasirning lashkarlari qoraxoniylar tomoniga o‘tib ketdilar. Muntasir esa bir necha yaqin kishilari bilan qochishga muvaffaq bo‘ldi va ko‘chmanchi arablar qarorgoxiga keldi. Bu yerda uni Sulton Mahmudning noibi Mahruyning buyruri bilan o‘ldirishadi. Al-Utbinining yozishicha, bu voqyea 1005 yilning boshlarida ro‘y beradi va u Maymurg‘ qishlog‘iga ko‘miladi. Shunday kilib somoniylarning eng so‘nggi vakili bo‘lgan Muntasir somoniylarning avvalgi shon-shuxratini tiklay olmasdan o‘lib ketdi. Somoniylar xukmronligi shu tariqa Movarounnaxr va Xurosonda tugatilib, ularga qarashli o‘lkalarni Qoraxoniylar va G‘aznaviylar bo‘lib olishdi.

⁴⁴ Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Э.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. Т.: “Адолат”, 2001. 146б.

II.BOB. Somoniylar davlatining boshqaruv tizimi va madaniy hayoti

II. 1. Somoniylar davlatining markazlashtirish siyosati va boshqaruv tizimi

Somoniylar o'z davlatida juda yaxshi yulga quyilgan hukmronlik tizimini urnatdilar. Davlat boshida juda katta vakolatlarga ega bo'lgan amir turar edi. Somoniylar davlatining ma'muriy tuzilishi quyidagicha bulgan: **dastavval** boshqaruv organi dargox (oliy xukmdor saroyi) va devon (davlat idorasi)ga bo'lingan. Mamlakatning ichki siyosatida amirning shaxsiy gvardiyasi katta rol o'ynagan. Bu gvardiya turk g'ulomlaridan saralanib olinar, uning boshliqlari katta-katta davlat mansablarini egallar edilar. Turk g'ulomlari bunday sharafiga o'z oq yillar sadoqat bilan xizmat qilishlari evaziga muyassar bo'lar edilar⁴⁵.

Turk g'ulomining xizmat pog'onasidan ko'tarilish jarayoni muarrix va davlat arbobi Nizomulmulk (1018— 1092) ning mashhur «Siyosatnoma» asarida bayon etilgan. «Somoniylar davridayoq,— deb yozadi u,— shunday qoida mavjud edi. G'ulomlar mansab darajasi pog'onama-pog'ona, qilgan xizmatiga yarasha ko'tarilib borgan. Chunonchi, g'ulomni sotib olgach, u bir yil piyoda askar bo'lib xizmat qilar va zandoniy matosidan tikilgan qabo (kamzulga o'xshash ustki kiyim) kiyib saroy ahli qatorida yurar edi. Bular bir yilgacha xoh oshkora, xoh yashirincha otga mina olmas edilar. Sezib-bilib qolsalar u jazoga tortilardi. Bir yildan so'ng visoqboshi (3 rulomga bosh bulgan kichik komandir) hojib (gvardiyachi rulomlarning oliy mansabi) bilan uning xususida gaplashar, hojib unga yugani bilan turk otini, shuningdek oddiy kamar berishii buyurar edi. G'ulom yana bir yil ot ustida xizmat qilgach, unga qorajur (uzun shamshir) berar edilar. Xizmatining beshinchi yilida unga eng yaxshi egar, yuldo'z-yuldo'z qilib bezatilgan yugan, doroy matosidan tikilgan qabo, cho'qmor berar

⁴⁵ Ахмедов Б. Сомонийлар давлатининг тuzилиши. —Т.: //Хаёт ва қонун. 1994. №3-926.

edilar: chuqmorni g'ulom kamarining halqasiga ilib olar edi. Xizmatning oltinchi yilida u anvoyi kiyim-boshlar olar, yettinchi yili 16 kishi siradigan chodir hamda o'z otryadiga 3 g'ulomni olar edi va uni visoqboshi deb atardilar. U kumush bilan bezatilgan qora kigizdan tikilgan qalpoq, ganja qabosini kiyar edi. Uning mansabi, obro'si, birkirilgan g'ulomlari soni yil sayin oshib borar va u nixoyat dastlab xaylboshi (gvardiyachi rulomlarning hojibdan keyingi, ikkinchi mansabi), sungra hojib mansabiga sazovor bo'lar edi. U qanchalik obro'-e'tibor qozonmasin, qanchalik xizmat qilmasin, baribir 37 yil muddatdan keyingina uni viloyatlarga amir qilib tayinlar hamda unga yer-suv in'om etar edilar»⁴⁶.

Saroydagi eng ulur mansabdor hojibi bo'z urg (ulur hojib) bo'lib, unga saroy ahliga ko'z-quloq bo'lib turish vazifasi yuklatilgan edi. Alohida xizmat kursatgan hojibi bo'z urglar ayrim tumanlarga hokim qilib tayinlanar edilar.

Hojibi bo'zurgdan keyin sohib haras (saroy soqchilari boshlig'i) turgan. Bu mansab ummaviylar va abbosiylar davrida ham mavjud edi. U oliy hukmdorning farmonlarini ijro etuvchi shaxs bo'lgan. Bu haqda Nizomulmulk bunday deb yozadi: «Amiri haras mansabi hamma vaqt muhim mansablardan biri bo'lgan. Albatta, ulur hojib mansabi bundan mustasno. Amiri haras oliy hukmdorning farmonlarini ijro etuvchi bo'lganligi sababli, odamlar undan hukmrondan ko'ra ham kuproq qo'rqar edilar». So'ngra Nizomulmulk xalifa al-Ma'mun tili bilan bunday deydi: «Mening ikki amir harasim bor. Ularning har ikkisi erta tongdan to qopong'y tushganga qadar odam boshini tanasidan judo qilish bilan band, [jinoyatchilarning] oyoq-qo'llarini chopib tashlaydilar, cho'qmor bilan urib zindonga tashlaydilar»⁴⁷.

Dargohning xo'jalik ishlari bilan vakil shug'ullangan. «Hamma vaqt bu ish tepasida,— deb ta'kidlaydi Nizomulmulk,— mashhur va ishonchli odam turgan.

⁴⁶ Низомулмулк. Сиёсатнома, -876.

⁴⁷ Ўша асар, -886.

Shoh oshxonasidan tortib, to may omborlari va podshoh otxonasidan doimo ogoh bo'lib, hukmdorniig saroyi, bola-chaqasi, shuningdek saroyga ta'lluqli kishilardan ko'z-quloq, bo'lib turuvchi shaxs; har oyda, balki deyarli har kuni, oliy hukmdorning kengashlarida ishtirok etgan, u bilan muloqotda bo'lgan va zarur paytda saroyga zudlik bilan yetib kelib, oliy maqomga zz fikrlarini izhor etgan hamda mamlakatda ro'y berayotgan voqyealardan uni xabardor qilgan»⁴⁸.

Keyingi o'rinda xojayi bo'zurg (ulug' xoja) mansabidagi shaxs turgan. Xojayi bo'z urg saroy byurokratik apparatining boshida turgan.

Bulardan tashqari, dargohda)har xil xizmatkorlar, masalan, eshik oga, dasturxonchi kabi kichik mansabdorlar ham bulgan.

Byurokratik apparat Buxoro registoni atrofida joylashgan o'nta devon tomonidan boshqarib turilgan. Narshaxiyning ta'kidlashicha, ular quyidagilar: devoni vazir (ulur vazir devoni), devoni mustavfiy (moliya ishlari devoni), keyingi vaqtlarda devoni rasoil yoki devoni insho deb atalgan devoni amir al-mulk (davlat tayanchi devoni), devoni sohib shurat (amir gvardiyasi boshlig'i devoni), devoni sohib barid (aloha xizmati devoni), devoni mushrif (amir nazoratchisi devoni), devoni ad-diyya (amirning shaxsiy mulklarini idora qiluvchi devon), devoni muxtasib (ko'cha va jamoa joylaridagi tartibotni tekshirib turuvchi devon), devoni vaqf, devoni qo'z zot (qozilar devoni). Shunga muvofiq mustavofiy, xojayi omid, sohib shurat, mushrif, muxtasib, qozi al-qo'z zot va boshqa mansablar bo'lgan.⁴⁹

Joylarda hokimiyat sipoqsolar (katta mulklarda) va hokimlar (mayda ma'muriy idoralarda) qo'lida bo'lgan.

Movarounnahr mustaqilligining barqarorligi, avvalambor, markazlashgan mustahkam hokimiyatning qaror topishiga bog'liq edi. Buni yaxshigina

⁴⁸ Низомулмулк. Сиёсатнома, -906.

⁴⁹ Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012.-197-197 б.

anglagan somoniylar o'z ta sarrufidagi ulkan mamlakatni boshqarishda dastavval ixcham davlat ma'muriyatini tashkil etadilar. U podsho dargohi va devonlar — markaziy hokimiyatdan iborat edi. Dargohda amir harami va qarorgohi hamda saroy a'yonlariyu navkar va xizmatkorlarining turarjoylari bo'lar edi. Narshaxiyning ma'lumoti bo'yicha, Somoniylar davlati asosan devoni vazir, mustavfiy, amidal-mulk, sohibi shurat, sohibi muayyid, mushrif, mumallikayi xos, muhtasib, avqof va qazo nomlari bilan yuritiladigan 10 ta devonlar boshqaruvida idora etilardi. Ular orasida vazir devoni bosh boshqaruv mahkamasi hisoblanar va davlatning ma'muriy, siyosiy va xo'jalik tartiboti uning bevosita nazorati ostida tutib turilardi. Barcha devon boshliqlari vazirga tobe edi. Mustavfiy devoni xazina (moliya) kirim-chiqimlar; amidal-mulk — davlat hujjatlari va elchilik aloqalari; sohibi shurat — soqchiboshi, ya'ni harbiy, xususan, amirning muntazam turkiy saroy nav-karlari, uning ta'minoti; sohibi muayyid — maktubot va axborot, ya'ni pochta; mushrif — saroy ishboshqaruvchisi; mumallikayi xos — davlat mulklari; muhtasib — bozorlardagi toshu tarozular, narx-navo hamda fuqarolarning mafkurasi; qazo — adliya; avqof - masjid va madrasalarning vaqf xo'jaliklari bilan shug'ullanar edi⁵⁰.

Nasr ibn Ahmad (914-943) davrida Buxoroning Registon maydonida podsho qasri qarshisida devonlar uchun saroy qurilib, davlat mahkamasi mana shu maxsus binoda joylashgan edi. Mahkama xizmatchilari faqat saroy ahli, ruhoniylar va zodagon dehqonlardan bo'libgina qolmasdan, shu bilan birga ular muayyan bilimlarga ega bo'lishi shart edi. Odatda, ular arab, fors tillarini puxta egallab olgan, Qur'onni va shariatning asosiy qoidalarini yaxshi biladigan, turli fanlardan bir muncha xabardor bo'lgan savodli aslzodalardan tanlab olingan. Shubhasiz, bu o'rta asrlarning o'ziga xos amaldorlik madaniyati edi. Qadimiy an'analarga asoslangan bu madaniyat somoniylar davrida ancha-muncha boyitilgan edi.

⁵⁰ Наршахий. Бухоро тарихи, -566.

Markaziy mahkama viloyatlardagi mahalliy boshqarmalar bilan doimiy aloqada bo'lgan. Viloyatlarda, maktubot va axborot (pochta) devonidan tashqari, barcha devonlarning vakillari bo'lgan. Viloyat devonlari, bir tomondan, mahalliy hokimga, ikkinchi tomondan esa markaziy mahkamaning tegishli devonlariga bo'ysunar edilar. Viloyat hokimlari ba'zan vazir deb yuritilardi. Ular sulolaviy xonadonga tegishli amirzodalar yoki sobiq mahalliy hukmdorlar hamda zodagon dehqonlardan tayin etilardi. Bulardan tashqari, har bir shaharda rais — shahar boshlig'i hamda muhtasib — nazoratchisi bo'lardi. Ularni hokimning bevosita o'zi mahalliy aslzodalar yoki ko'pincha oliy tabaqa ruhoniylarning nufuzli vakillaridan tayinlar edi. Mansabdorlarning xizmat haqi uchun davlatning yillik daromad-buromadi (byudjeti) ning deyarli yarmi sarf etilardi.

Shu bilan birga IX-X asrlarda yirik mansabdorlarning davlat oldidagi xizmati uchun yer va suvdan iborat katta-katta mulklar in'om qilina boshlaydi. Bunday mulklar «ikto», unga ega bo'lgan mulkdorlar «muqto» yoki «iqtodor» deb yuritilardi. Iqto tarzida esa ayrim viloyat, voha, rustoq (tuman) yoki shaharlar hadya etilgan. Iqto dastavval asosan oliy tabaqa zodagonlar; sulola a'zolari — amir-zodalar va yirik mansabdorlarga in'om etilgan. Iqto mulklari avvalda bir umrga emas, balki ma'lum muddatga berilib, nasldan-naslga o'tkazilmagan. Iqtodorlar hadyaga berilgan mulklarga hali to'la egalik qila olmaganlar. Ular iqto yerlaridai tushadigan daromad yoki uning ma'lum qisminigina yig'ib olish huquqiga ega bo'lganlar xolos. Butun bir viloyat iqto qilib berilgan noib-vazirga ba'zan o'z nomi bilan chaqa-pul zarb etish huquqi ham berilar edi. Bu, shubhasiz, o'z navbatida markaziy hokimiyatni kuchsizlantirib, mahalliy hokimlarning boshboshdoqlik harakatlarining kuchayishiga olib kelar edi⁵¹.

Movarounnahr mustaqillikka erishib, Somoniylar davlatining qaror topishi va uning ravnaqida islom dini ruhoniylarining hissasi katta bo'ldi. Shu boisdan

⁵¹ Мухаммаджонов А.Р. Ўзбекистон тарихи. -Т.: Фафур Фулом нашриёти, 2004, -1026.

ularning obro'si oshib, poytaxt Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markazlaridan biriga aylandi. Shaharlarda qo'plab ibodatxonalar, shu jumladan, jome' maejidi, xonaqoh (g'aribxona) va namozgoh (iydi ramazon va iydi qurbon ibodatlari o'kiladigan sajdagoh)lar bino qilindi. Xuddi shu davrda musulmon Sharqidagi ilk madrasalardan biri Buxoro shahrida qad qo'gardi. Buxoroning qadimiy madrasasi shaharning Darvozai Mansur mahallasida xon hammomining yonida joylashgan edi.

Mamlakat ma'naviy hayotining asosi hisoblangan islom mafkurasiga bu davrda «ustod» deb atalgan din va ilm peshvolari rahnamolik qildirdi. Keyinchalik bu nom tark etilib, din peshvolari va islom ulamolarining rahnamosi «shayxulislom» nomi bilan yanada ulug'lanadi. Ustoddan keyin «xatib»lar turardi. Somoniylar islom mafkurasining rivojiga katta ahamiyat beradilar. Masjid, madrasa, xonaqohlar qurish uchun maxsus joylar va ularning sarf-xarajati uchun katta-katta mulklar ajratilib beriladi. Natijada diniy muassasalar tasarrufidagi yerlar kengayib, yangi turdagi diniy-vaqf xo'jaligi tarkib topadi. Masalan, Narshaxiyning yozishicha, Afshona qishlog'ining ekin yerlari atrofidagi yaylovli biyobonlar Ismoil Somoniy tomonidan Buxoro madrasasining talabalariga vaqf qilib beriladi⁵². Shuningdek, amir Registon maydoniga tutashgan va Dashtak deb shuhrat topgan keng qamishzor yerlarni Hasan ibn Muhammad Tolut ismli mulqdor arab lashkarboshidan 10 ming dirhamga sotib olib, Buxoro shahrining jome' masjidi vaqfiga qo'shib beradi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Lekin nima sababdan va qanday yo'l bilan masjid va madrasalar tasarrufida katta-katta yer va mulklar to'planishi hamda vaqf xo'jaligining tarkib topishi to'g'risida umumiy tushunchaga ega bo'dish uchun keltirilgan misollarning o'zi ham kifoya qiladi.

Somoniylar tashqi va ichki dushman xurujlaridan mamlakatni muhofaza qilish masalasiga katta z'tibor beradilar. Xususan, Ismoil Somoniy yaxshi qurollangan harbiy qo'shinlar va maxsus muntazam saroy yeqqchi navkarlar

⁵² Наршахий. Бухоро тарихи, -476.

sho'ratini tuzadi. Muntazam soqchilar oliy dargoh va shaxsan amirni hamda uning haramini qo'riqlash uchun turk g'ulomlaridan tuzilgan edi. Turkiston va Movarounnahr harbiy xizmatchi, mohir chavandoz turk o'smirlarini qadimdan doimiy ravishda voyaga yetkazib kelgan bo'lsa ham, ammo faqat somoniylargina turk yigitlarini birinchilar qatorida saroyning shaxsiy sho'rati safiga tortgan edilar. Saroy sho'ratiga qabul qilingan o'spirin turk g'ulomining harbiy xizmati ma'lum muddatda va qat'iy belgilangan tartibda o'tar edi. Xizmatning birinchi yili bo'zdan kiyim kiygan piyoda, ikkinchi yili yuganlangan otliq askar xizmatini bajarar edi. Uchinchi yili beliga qora cho'rin kamar bog'lanib, beshinchi yilga borganda u yaxshi kiyim-kechak va yulduzli yuganni olishga muyassar bo'ladi. Agarda xizmat davrida g'ulom nojo'ya harakatlar qilmagan bo'lsa, yettinchi yili unga «visoqboshi», ya'ni «chodir boshlig'i» degan unvon berilar edi va o'zi bilan qo'shib hisoblaganda 4 nafar askarga u boshliq bo'lardi. „runday unvonga erishgan g'ulom kumush ip bilan tikilgan qora rangli bosma namat qalpoq va qimmatbaho ganjaviy etik kiyib yurardi. G'ulomlar orasida eng qobiliyatli va uzoq yillar xizmat qilgan ayrim navkarlar «haylboshi», ya'ni otliq qo'shin boshlig'i, so'ngra esa «hojib» degan lavozimga ko'tarilar edi. Hojiblarning boshlig'i «hojib ul xujob» yoki «hojib ul buzruk» deb yuritilgan. Bunday unvon Somoniylar davlati saroyidagi oliy unvon hisoblanar edi. Hojiblar, ayniqsa, hojib ul xujob saroyda katta nufuzga ega edi. U saroyda turar va dargohning ishlarini boshqarar edi. Shu bilan birga u butun turk hojiblarining boshlig'i hisoblanar edi. Somoniylar muntazam soqchi qo'shinidan tashqari, ozod mehnat ahlidan tuzilgan harbiy qo'shinlarga ham ega edilar. Harbiy qo'shinlar va ularning ta'minoti bilan «ariz» boshliq «devoni ariz» deb atalgan maxsus mahkama shug'ullanar edi. Ariz qo'shinlarga maosh berar, uning intizomi, yarog'-aslahasi, oziq-ovqati va otlarining yem-xashagi bilan shug'ullanar edi. Qo'shinlarga xizmat haqi har 3 oyda, ya'ni yiliga 4 marta to'lanar edi⁵³.

⁵³ Мухаммаджонов А.Р. Ўзбекистон тарихи. Т.: Ғафур Ғулом нашриёти, 2004, -1056.

Shunday qilib, IX—X asrlarda Movarounnahr va Xurosonda Somoniylar davlati tashkil topdi. Oʻrta asrlar zamonining bu yirik davlatini boshqarishda hukmdor xonadon Sharqning qadimiy davlat boshqaruvi anʼanalariga suyanib, muntazam soqchi armiya va kuchli harbiy qoʻshinlarga ega boʻlgan markazlashgan boshqaruv mahkamasini tashkil qildi. Oʻrta asrning bu yirik davlati oʻzining boshqaruv tizimi jihatidan, shubhasiz, Oʻrta Osiyoda oʻrta asrlar davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyoti tarixini oʻrganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

II. 2. Somoniylar davlatining xo‘jalik hayoti va ishlab chiqarish munosabatlari

IX—X asrlarda Movarounnahr, Xuroson va Xorazmning shahar va qishloqlarida hunarmandchilikning ko‘pgina sohalari ancha-muncha rivojlangan bo‘lsa ham, ammo bu hududlar qishloq xo‘jaligi mamlakati edi. Aholisining asosiy qismi sug‘orma dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanar edi. yerlar asrlar osha takomillashib kelgan sershoxa sug‘orish tarmoqtari va turli-tuman suv inshoot (to‘g‘on, band, nova, koriz, chiqir, charxparrak, suvayirg‘ich)lari vositasida sug‘orilib obod etilgan. Serunum vohalarda sug‘orma dehqonchilik madaniyati — g‘allakorlik, sholikorlik, paxtachilik, sabzavotchilik, polizchilik va bog‘dorchilik yuqori darajada rivoj topgan.

Zarafshon, Qashqadaryo va Farg‘ona vodiysi, Shosh, Eloq hamda Xorazm vohalarida aholi ziro-atlarning deyarli barcha navlari: arpa, bug‘doy, tariq, mosh, adas (yasmiq), kunjug, no‘xat, zig‘ir, jut va shu kabilarni yetishtirar edi. Samarqand vohasida asosiy ekin g‘alladan tashqari zig‘ir, kanop va kanakunjut, Xorazmda esa kunjut ko‘p ekilardi. Zig‘ir, kunjut va kanakunjutdan moy olinardi. Movarounnahrning tog‘ oldi hududlari aholisi aso-siy mashg‘uloti bo‘lmish chorvachilikdan tashqari lalmikorlik bilan ham shug‘ullanar edi. Lalmi yerlarda asosan g‘alla yetishtirilardi. Murg‘ob, Buxoro, Samarqand va Shosh vohalarida paxtachilik kattagina o‘rinni egallagan edi. Paxtaning ingichka tolali g‘o‘za navlari ekilardi. G‘o‘zadan tashqari za‘faron va ro‘yan kabi nodir texnik o‘simliklar ekilib, ulardan turli xil dori-darmonlar va bo‘yoqlar tayyorlanardi⁵⁴

Movarounnaxr va Xorazmda bog‘dorchilik madaniyati ayniqsa keng ravnaqtopgan. Bog‘ va chorbog‘larda uzum, anor, anjir, olma, nok, behi, o‘rik, shaftoli, olxo‘ri, olcha, tut, jiyda va ko‘pgina boshqa mevalar yetishtirilar edi, xususan, uzumning o‘nlab navlaridan nihoyatda ko‘p hosil olinardi. Uzumdan magiz, shinni, sirka, musallas tayyor-lanar edi. Movarounnahr va Xorazmda

⁵⁴ Мухаммаджонов А.Р. Ўзбекистон тарихи, Т.: Ғафур Ғулом нашриёти, 2004, -1076.

sabzavot va poliz ekinlari serob bo'lib, qovunlari nihoyatda shirali bo'lardi. Buxoro va Xorazmning qirqma qovunlari va qovun qoqilar Sharqning uzoq-uzoq shaharlariga olib borilar edi. X asr muarrixii Narshaxiy Registon atrofida barpo etilgan muhtasham mehmonxonali va sarhovuzli chorbog'lardagi so'lim daraxtzorlar va shirin-shakar mevazor bog'larni ta'riflab, ularda «nashvati, bodom, yong'och, gilos, jilon jiyya va anbar bo'yli... har bir meva g'oyatda yaxshi va go'zal tarzda o'tqazilgan edi»⁵⁵, deb yozadi.

Dehqonchilik solig'i xirojdan xazinaga tushadigan da-romad davlat kiritim-chiqimining kattagina qismini qoplar edi. Shuning uchun ham somoniylar mamlakatda dehqonchilik xo'jaligini rivojlantirishga katta e'tibor beradilar. Avvalambor ular ayrim viloyat va vohalarda suv taqsimotini tartibga solib, ularning suv ta'minotini yaxshilash va iloji boricha ekin maydonlarini kengaytirishga harakat qiladilar.

IX—X asrlarda Movarounnahrning viloyat va vohalarida daryo va uning tarmoqlaridan ko'plab yangi-yangi sug'orish kanallari qazib chiqarilib, ularning daxanalariga suv bog'lab oluvchi to'g'onlar, miftohlar (shlyuz) va suv tashlagich novalar o'rnatiladi. Oqar suvga tanqis tog'oldi hududlari va daralar ichida bandlar bino qilinib, suv omborlari barpo etiladi. yer osti suvlaridan dehqonchilikda foydalanish uchun o'ta murakkab va nihoyatda mashaqqatli gidrotexnik inshoot — korizlar qazilib ishga tushiriladi. Suv manbalari sathidan balandroq joylashgan yer maydonlariga suv chiqarish uchun charxparrak, chiqir va dulobalardan keng foydalaniladi.

X asr arab geograflarning ta'riflashicha, Samarqand rustoqlaridan 8 tasi Zarafshon daryosidan chiqarilgan bir qancha katta-kichik shoxariqlardan sug'orilgan. Darg'om anhoridan sug'orilgan Varqsar, Maymurg', Sanjar-fag'on va Darg'om rustoqlari dehqonchilik maydonlarining uzunligi 10 farsax (60-70), kengligi 4 farsax (24-28) km bo'lgan. Uzunligi 2 kunlik masofaga teng bo'lgan Fay kanali orqali sug'orilgan voha Sug'dning eng obod qismi hisoblangan.

⁵⁵ Наршахий. Бухоро тарихи, 49-б.

Ibn Xavqalning yozishicha, Sug‘d daryosi Buxoro chegarasiga qadar faqat obod qishloqlar, bog‘ va bo‘stonlar hamda sug‘orish tarmoqlari bo‘ylab oqqan. Buxoro vohasi Samarqandga nisbatan keng va obod bo‘lgan. U 17 ta sug‘orish shaxoblari orqali sug‘orilgan. Istaxriy Zarafshon vodiysini tasvirlar ekan, uning unumdorligiga qoyil qoladi. Buxoro vohasini u moviy osmon gumbazi ostida to‘shalgan va qasrlar bilan naqshlangan yam-yashil gilamga o‘xshatadi. Sirdaryo havzasida, ayniqsa, Eloq (Ohangaron) va Parak (Chirchiq) vodiylari nihoyatda obod bo‘lib, juda ko‘p shahar va qishloqlar joylashgan edi⁵⁶.

Vohalarni suv bilan ta‘minlab turgan sershoxa sug‘orish tarmoqlarini muttasil loyqadan tozalash, behisob turli xil suv inshootlarini ta‘mirlash uchun har yili bahorda minglab hasharchilar qazuvga chiqqan. Kanallarga bog‘lab olingan suvni shoxariqlarga taqsimlab, suv ayirg‘ich darg‘otlarni nazorat qilish, dehqon paykallariga obirahmatni yetkazib berish uchun mirob, jo‘ybon va poykor kabi qator xalq irrigatorlari yoz bo‘yi oyoqda turgan.

Bu davrda birgina Murg‘ob vodiysida 10 mingga yaqin turli mansabdagi miroblar suv inshootlarining nazoratiyu suv taqsimoti bilan band bo‘lgan. IX asrdan boshlab Buxoro vohasining suv taqsimoti bilan shaxsan shahar qozisining o‘zi shug‘ullangan. Narshaxiyning yozishicha, Sayd ibn Xalaf Balxiy Buxoroga qozi bo‘lgach, «yaxshi qonun-qoidalar o‘rnatgan... toki kuchli kishi zaif kishiga zulm o‘tkazmasin uchun (shahar) to‘g‘onlarini qurdirib, Buxoro suvini adolat va insof yuzasidan taqsim qilishni» joriy etgan⁵⁷.

Shunday qilib, IX—X asrlarda dehqonchilikning taraqqiy qilishi bilan sug‘orish ishlari kengayadi. Injenerlik bilimi asosida qurilgan turli xiddagi gidrotexnika in-shootlari bilan jihozlangan sershoxa sug‘orish tarmoqlari barpo etiladi. Bunday o‘ziga xos sug‘orish inshootlarini tiklash va ishlatishda an‘anaviy asriy tajriba va malakaga ega bo‘lgan mahalliy miroblar yetishib, o‘rta

⁵⁶ Бартольд В.В. Соч. Т.: 2. Ч.1.-М., 1963, -2476.

⁵⁷ Наршахий. Бухоро тарихи, -916.

asrlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga xos tartib, qonun-qoidalarga asoslangan suv xo'jaligi tashkil topadi.

IX—X asrlarda Movarounnahr va Xurosonda chorvachilik, xususan, yaylov chorvadorligi yuksak darajada bo'lgan. Mamlakatning dasht va tog'oldi yaylovlarida otar-otar qo'y va echkilar, uyur-uyur yilqilar va tuyalar boqilgan. Qishloqlarda, ayniqsa, yirik shoxli hayvonlarning boshi va tuyog'i behisob bo'lgan. Shaharlarda esa xonaki hayvonlarning deyarli hamma turidan boqilgan. Chorvachilik mamlakat aholisini chorva mahsulotlari bilan ta'minlabshna qolmasdan, balki xo'jalikning hamma sohalar uchun ot-ulovlar yetkazib bergan. Ot, eshak, tuya va ho'kizlar qo'sh, arava, moyjuvoz va chiqirlarga qo'shilib ishlatshgan. Ayniqsa, davlatning harbiy qo'shinlari, xususan, suvori qismlarni ot, ulov bilan ta'min etishda muhim ahamiyat kasb etgan⁵⁸.

O'troq aholini chorvachilik mahsulotlari: go'sht, teri, jir va jun bilan asosan dashtli chorvador qabilalar ta'min etadi. Chorva va chorvachilik mahsulotlari dasht va voha aholisi o'rtasvda osoyishtalik yil-larida olib boriladigan gavjum ayirbosh savdoning xaridorgir mollaridan hisoblangan. Birgina xom teridan ko'nchilar charm va ulton (qalin tagcharm) pishirib, kosiblar poyabzal tikkan. Charmdan yoki teridan egar, jabduq, kamon, sandon (o'qdon), meshkob (terixalta), qamchin va darralar yasalgan. Hatto iylangan teri nog'ora, tabla, doira va torli musiqa asboblarning qoplamalariga tortilib, naqshlariga ishlatilgan. Xullas, chorvachilik hunarmandchilikning ko'pgina sohalarini xom ashyo bilan ta'minlab kelgan.

IX—X asrlarda aholining xo'jalik hayotida hunarmandchilik katta o'rin tutadi. Movarounnahr va Xorazm shaharlarida to'qimachilik, kulolchilik, degrezlik, chilangarlik, zargarlik, shishagarlik va duradgorlik kabi kasb-hunarlar ancha rivoj topadi. Natijada shaharlarning umumiy qiyofasi tubdan o'zgaradi. Unda katta-katta oliy imoratlar, ustaxonalar, masjid, madrasa, maqbara, namozgoh, xonaqoh va karvonsaroylar qad ko'taradi. Endilikda shaharlar ilk

⁵⁸ Негматов Н. Государство Саманидов, Душанбе.: Дониш, 1997, -746.

o'rta asrlarda ark (o'rda), shahriston (ichki shahar) va rabot (tashqi shahar) deb yuritilgan uch qismini yagona devor bilan qamrab olgan, o'ndan ortiq darvozali kattagina hunarmandchilik markaziga aylandi.

Shaharning do'nglik yerida joylashgan arkda odatdagidek podshohning qarorgohi – oliy dargoh, xazina, chaqa-tangalar so'qiladigan zarbxona va qamoqxona bo'lardi. Uning markazida Registon maydoni, devonlar mahkama saroyi, shuningdek, amirzodalar, saroy a'yonlari, ruhoniylar, mulkdor dehqonzodalar va davlatmand savdogarlarning hashamatli qasrlari, podshohlikning qurol-yarorg', asbob, egar-jabduq yasaydigan ustaxonalari, hunarmandchilik do'konlari va savdo-sotiq rastalari joylashgan edi. Bu davrda shaharga atrof qishloqlardan kosiblar, savdogarlar va boshqalar kelib o'rinishib, uning girdi bo'ylab kosib va hunarmandlarning yangi-yangi mahalla ko'ylari, bozor va rastalar paydo bo'ladi. Mahalla-ko'ylarda zargarlar, sarroflar, to'quvchilar, kulollar, misgarlar, temirchilar, duradgorlar va boshqa shu singari kosibu hunarmandlarning uy-joylari va do'konlari bo'lardi. Ayni davrda Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Shosh, Kesh, Aksikat kabi shaharlar o'rta asr hunarmandchiligining rivoj topgan yirik markaziga aylandi⁵⁹.

Narshaxiyning yozishicha, 1X asrda Buxoroda ark bilan shahriston oralig'ida podshohlikning “bayt ut-tiroz” nomi bilan shuhrat topgan katta to'qimachilik korxonasi bo'lgan. Unda oq, qizil, yashil va qo'g'ir tusli matolar, paloslar, darpardalar, yostiq jildlari, joynamozlar, ust kiyimliklar to'qilardi. Xalifayu podshohlar, amirlaru raislardan tortib deyarli hamma amaldorlargacha shu korxonada to'qilgan matolardan kiyinar edi⁶⁰.

Bu davrda Samarqand ham hunarmandchilik va savdoning yirik markazlaridan edi. Unda ayniqsa misgarlik, zargarlik va sarrojlik rivojlangan. Bu yerda kumush tusli singin, qizil rangli mamarajil, sinizi deb atalgan matolar, kimxob, shoyi va ro'mollar to'qilar edi. Samarqandda ayniqsa yuqori navli

⁵⁹ Негматов Н. Государство Саманидов, Душанбе.: Дониш, 1997, -786.

⁶⁰ Наршахий. Бухоро тарихи, -446.

qog'oz ishlab chiqarilar edi. Shosh o'zining ko'nychilik mahsulotlari va charm mollari bilan, Eloq esa kumush va qo'rg'oshin konlari hamda kumush tanga chiqaradigan zarbxonalari bilan mashhur edi. Movarounnahrning xo'jalik hayotida Xorazm ham katta rol o'ynaydi. Bu yerda hunarmandchilikning ko'pgina sohalari bilan bir qatorda Movarounnahr uchun juda nodir hisoblangan qayiqsozlik taraqqiy qiladi. Xorazm va Termizda yasalgan qayiqlar Amudaryo bo'ylab to Xorazm dengizigacha muttasiil mol tashib, savdogarlarning yukini yengil, uzog'ini yaqin qilardi.

Bu davrda shaharlar bilan bir qatorda qishloqlar ham mamlakatning iqtisodiy hayotida katta rol o'ynay boshlaydi. Movarounnahr va Xorazm vohalarida, ko'pgina yirik qishloqlarda to'qimachilik, misgarlik, duradgorlik kabi hunarmandchilikning bir qancha sohalari yuksaladi. Buxoroning Zandana qishlog'ida to'qilgan malla rang bo'z "zandanachi", Samarqandning Vador qishlog'ida tayyorlangan mato "vadoriy" nomlari bilan Sharqda mashhur edi. To'qimalari nihoyatda pishiq, sarg'ish tusdagi sidirg'a vadoriy nomli mayin mato zodagon tabaqa vakillari uchun juda manzur bo'lgan. Vadoriy matodan tikilgan kiyimlarni Xurosonda amirlar, vazirlar va qozilar kiyardilar. Vadoriy ko'ylakning bahosi ikki dinordan o'n dinorgacha borardi.

1X-X asrlarda Movarounnahr va Xorazmning qishloq va shaharlarida ayniqsa kulolchilik va shishagarlik avj olgan edi. Bu davrda yasalgan xilma-xil sirli va naqshinkor sopol idishlar, rangli shisha buyumlar juda sifatli bo'lgan.

Movarounnahrning tog'li mintaqalarida qadimdan davom qilib kelayotgan konchilik 1X-X asrlarda nihoyat darajada taraqqiy qiladi. Shosh viloyati, Farg'ona vodiysi, Nurota, Ustrushona, Xo'jand va Zarafshon tog'laridan temir, mis, qo'rg'oshin, oltin, kumush, feruza va boshqa qimmatbaho toshlar qazib olinardi. Eloq viloyati kumush va qo'rg'oshin olinadigan yirik markazlardan biri edi. Undagi Qoramosor tog'idan bu ikki tur ma'dandan tashqari oltin, mis, temir va feruza qazib olinardi. Farg'ona vodiysi tog'lari, ayniqsa, foydali qazilma boyliklariga boy edi. Undan temir, qo'rg'oshin, kumush, simob, mis, qalay,

feruza, navshadil qazib chiqarilardi. Hatto Farg'onadan o'sha vaqtlardayoq toshuo'mir va neft topilib ishlatilardi. 1X-X asrlarda neftdan ko'proq harbiy yurishlarda foydalanilgan. Qo'shinda maxsus "naftandoz" ya'ni "neft otuvchi"lar bo'lardi. Neft to'ldirilgan pilikli ko'zachalarga o't yoqib, dushman qal'asiga otlgan.

Bu davrda ham Badaxshon tog'lari o'zining la'li va lojuvard konlari bilan mashhur edi. Konchilik va ohangarlik davlat tasarrufida, konchilik o'z zamonida ko'p jihatdan ancha-muncha takomillashgan edi. Qazilma boyliklar ochiq maydondagi hamda bir necha yuz metrli chuqurlikdagi yerosti konlaridan qazib olinardi. Konlarning nihoyatda chuqur quduqlari, har tomonga yo'nalgan, baland-past lag'mlarini mustahkamlash, shamollatish va kon ichida to'planadigan sizotlarni tashqariga chiqarib tashlovchi moslama va in-shootlar o'rnatilar edi. Qazilgan rudalar sixg'altaklar vositasida yuqoriga chiqarilar edi⁶¹.

Konlarning yaqinida rudalarni eritib, ma'dan oluvchi ohangarlar va konchilarning qishloqlari bo'lardi. Kon qazish ishlariga asosan qullar, mahbuslar va qishloq jamoalari safarbar etilardi. Konchilarning mehnati nihoyatda mashaqqatli va xavfli, maishati esa o'ta yomon edi. Ular tog'lar ostidagi chuqur va qorong'u konlarda qorachiroqlar shu'lasida turli xil ma'danlar rudasini qazir edilar. Konchilarning bu og'ir sharoitda yer qa'rida halok bo'lishi uchun hyech kim qayg'urmas edi. Qadimgi konlarda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar jarayonida IX— X asrning qorachiroqlari, bolg'a, bolta, cho'kich, qozon va boshqa buyumlar hamda topilmalar yonginasida odam skelet-larining uchrashi buning yorqin dalilidir.

IX—X asrlarda mamlakatda, bir tomondan, dehqonchilik, ikkinchi tomondan, hunarmandchilikning rivoj topishi, shubhasiz, o'z navbatida ichki va tashqi savdoning kengayishiga olib keladi. Bu davrda Old Osiyoni Mo'g'uliston va Xitoy bilan tutashtirgan qadimgi karvon yo'li orqali olib borilgan tashqi savdo aloqalari, ayniqsa* gavjumlashib ketadi. Bag'dod shahridan boshlangan

⁶¹ Негматов Н. Государство Саманидов, Душанбе.: Дониш, 1997, -736.

katta karvon yo'li Hamadon, Nishopur, Marv, Omul, Buxoro, Samarqand, Shosh, Tarozi, Qulon, Marke, Bolasog'un, Suyob, Issiqko'lining janubiy sohili orqali o'tib, Sharqiy Turkistonga va undan Xitoyga kirib borar edi. Bu yo'lining Farg'ona orqali o'tgan janubiy, o'g'uzlar yoki Dashti Qipchoq orqali Janubiy Sibirga yo'nalgan shimoliy hamda Xorazm orqali Volga daryosi bo'ylab Xazar va Bulg'or davlatlariga eltadigan shimoli-g'arbiy tarmoqlari, ayniqsa, serqatnov bo'lgan⁶².

Karvonlarni suv va qo'noqlar bilan ta'minlab, uzoq va mashaqqatli yo'l azobini ma'lum darajada yengillashtirish uchun dashtlarda quduqlar qazilib, har bir bekatda rabotlar bino qilinadi. Karvonlar o'tadigan shahar va qishloqlarda karvonsaroylar quriladi. Ularda savdogarlaru sarbonlar va ularning hamroh xodimlariyu sayyohlar uchun hujralar, mollari uchun omborxonalar, tuyalar, otlar, xachirlar va eshak-lar uchun og'ilxonalar bo'lardi, ularda zarur yem-xashaklar va oziq-ovqatlar saqlanardi. Karvonlar huzurida ko'pincha tarjimonlar xizmat qilardi. Yo'ldagi qaroqchilardan karvonni muhofaza qilish uchun ba'zan xatarli joylarda uni qurollangan harbiy askarlar qo'riqlab borardi.

X asrda tashqi savdo muomalasida sarroflik cheklaridan keng foydalanilar edi. O'sha vaqtda savdogarlar o'zi bilan ko'p miqsorda pul olib yurmas edi. O'z pulini u shaharning inobatli sarroflaridan biriga topshirib, undan tegishdi hujjat — chek olardi. Mo'ljallangan shaharga borish bilan shu chekni sarrofga berib, unda ko'rsatilgan miqdordagi pulni to'laligicha qaytarib olishi mumkin edi. Hatto chek so'zining o'zi ham forscha ibora bo'lib, o'sha vaqtda ham bu so'z ayni shu ma'noda ishlatilar edi⁶³.

Ko'chmanchi chorvador aholini o'troq dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlari bilan ta'min etishda shimoliy yo'lining ahamiyati katta edi. Bu yo'l orqali o'g'uzlar dashti, Janubiy Sibir va Mo'g'ulistonga Movarounnahrning shahar va qishloqlaridan bo'z, kiyim-kechak, egar-jabduq, o'q-yoy, qilich, idish-

⁶² Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Т.: Шарқ, 2000, -98б.

⁶³ Ўша асар. -Т.: Шарқ, 2000, -99-б.

asbob, zargarlik buyumlari, dori-darmon, quruq meva, kunjut, zig'ir moyi va boshqa shu kabi mollar olib borilardi. Sibirdan turli xyldagi qimmatbaho mo'ynalar, ko'chmanchilar yurtidan esa asosan chorva mollari va chorvachilik mahsulotlari keltirilar edi.

Qubo, O'sh va O'zgan orqali Koshg'arga va undan ichki Xitoy viloyatlariga rangdor shisha va shisha buyumlar, sirli naqshinkor sopol idishlar, kiyim-kechak, egar-jabdug', meva va otlar, shuningdek, G'arb mamlakatlaridan keltirilgan zeb-ziynatlar va qurol-yarog'lar olib boriladi. Xitoydan asosan ipak, shoyi gazlamalar, kimxob va chinni idishlar olib chiqilar edi. Movarounnahr bozorlari orqali Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga ipak, ip va shoyi matolar, qumush, teri, jun, kigiz, turli xil mo'ynalar, tuya, qoramol, qo'y, asir va quruq mevalar olib chiqilar edi.

IX—X asrlarda Somoniylar davlatining Sharqiy yevropa mamlakatlari bilan olib borgan karvon savdosida Volga daryosining o'rta oqimlarida joylashgan xazarlar va bulg'orlar bilan bo'lgan mol ayirboshlash katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu savdoda, ayniqsa, Xorazm muhim o'rin tutgan. Itil, Xazar va Bulg'orga Movarounnahr va Xorazmdan guruch, quruq meva (yong'oq, mayiz, o'rik va h.k.), kanakunjut moyi, shirinliklar, tuzlangan baliq, bo'za, mushk-anbar, paxta, ip va shoyi matolar, movut, kimxob, galam va choyshablar, qulf, kamon, qayiq va kumush tangalar, shuningdek, Xitoy, Hindiston, Eron, Kichik Osiyo va boshqa mamlakatlardan keltirilgan mollar chiqarilar edi.⁶⁴

Bulg'or va Xazardan qimmatbaho mollar — mo'ynalar (savsar, qunduz, sassiqquzon, latcha, tulki, quyon va echki terilari), shuningdek, mum, shamlar, o'qlar, oqterak va qayin po'stloqlari, cho'qqi qalpoqlar, baliq moyi va tishlari, bulg'ori charm qalqonlar, slavyan qullari, qarchig'aylar, asal, qo'y va sigirlar

⁶⁴ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Т.: Шарқ, 2000.-99 б.

olib kelinar edi. Tashqi savdo muomalasida tohiriylar va somoniylarning kumush dirhamlaridankeng foydalanilar edi⁶⁵.

Viloyatlararo ichki savdo-sotiq hamda mamlakatlararo karvon savdosining avj olganligi, shubhasiz, o'z navbatida ko'p miqdorda chaqa va tangalarning muomalada bo'lishiga olib keladi. Ichki bozorlarda «fals» deb ataladigan mis chaqa, xalqaro savdo-sotiqsa esa kumush tanga - dirhamlar ishlatilardi. Mis chaqalarni markaziy hukumat ham, shuningdek, sulola a'zolaridan bo'lgan ba'zi mahalliy viloyat hokimlari ham, hatto ayrim yirik mulqsorlar ham chiqarar edilar. Kumush tangalar faqat huqumat boshlig'i nomidan Marv, Samarqand, Buxoro va Shoshda davlat zarbxonalarida so'qilar edi. Somoniylar «ismoiliy», «musayyabiy», «muhammadiy» va «g'itrifiy» nomlari bilan yuritilgan bir necha kumushdirhamlar chiqargan edilar. Ular orasida «ismoiliy» tangasi yuqori sifatli sof kumushdan zarb etilib, u asosan xalqaro savdo aloqalarida ishlatilar va kumush tanga holida ko'proq Sharqiy yevropa mamlakatlariga olib chiqilgan. Rossiya, Boltiqbo'yi hududlarida arxeologik qazishmalar jarayonida yuzlab somoniylarning qumush dirhamlari, o'nlab xazinalarning topilishi buning yorqin dalilidir.

⁶⁵ Ёрматов И. Илоқ тарихи. -Т.: 2005, -426.

II. 3. Somoniylar davlatida madaniy hayot va din

IX—XI asr boshlaridan Movarounnahr va Xurosonda sodir bo'lgan o'ta murakkab siyosiy vaziyatning tadrijiy rivoji va u bilan chambarchas bog'liq ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar mamlakat aholisining madaniy hayotiga ham kuchli ta'sir etdi.

Ma'lumki, Movarounnahr istilo etilib, xalifalikka qo'shib olingach, zabt etilgan o'zga mamlakatlar qatorida, bu o'lkada ham faqat islomgana emas, balki arab tili va uning imlosi ham joriy etildi. Chunki arab tili xalifalikning davlat hamda mafkurasi bo'lgan islom dini tili edi. Shuningdek, hududlari kengayib jahondagi eng yirik davlatga aylangan Arab xalifaligida davlat tili fan tili ham edi. Shu boisdan kadimiy madaniy an'analarga boy Ajam va Movarounnahrda qo'p jihatdan arab tilining mohiyati oshib, uni o'zlashgirishta bo'lgan intilish kuchli bo'ldi. Islomni qabul qilgan aholining qo'pchilikka yod arab tili bilan muloqoti, garchi faqat ibodat vaqtlarida Kur'oni Karimning qisqa suralarini tilovat qilishdan iborat bo'lsa-da, ammo mahalliy zodagonlar arab tilini xalifalik ma'murlari bilan yaqinlashish va mamlakatda o'z siyosiy faoliyatini tiklab, uni mustahkamlashning garovi deb hisoblaydilar, uni o'zlashtirishga astoydil kirishadilar. Arab tiliga bo'lgan bunday ehtiyoj va intilish tufayli ko'p vaqt o'tmay Movarounnahrda ham hatto o'z ona tilidan ko'ra arab tili va yozuvini yaxshiroq o'zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo'ladi. O'z navbatida, chegaralari borgan sari kengayib ulkanlashib borayotgan xalifalik uchun ham ilm va ilm ahli suv va havodek zarur edi. Davlatni boshqarishda abbosiylar ma'muriyati ayniqsa ko'plab bilimdon siymolarga muhtoj edi. Chunki arablar orasida bu paytda davlat ishiga yaroqli bo'lgan bilimdonlar hali oz, bori ham zaif edi⁶⁶.

Shu boisdan Movarounnahr, Xorazm va Xurosonda mahalliy tillarda yozilgan asarlar yo'q etilib, yerli bilimdonlar quvg'in ostiga olib turilgan bir paytda bu mamlakatning ko'pgina tolibi ilmlari xalifalikning markaziy shaharlari — Damashq, Qohira, Bag'dod, Kufa va Basraga borib bilim olishga

⁶⁶ Маънавият юлдузлари. -Т.: 2001, -286.

va arab tilida ijod qilishga majbur bo'ladilar. Bu davrda ayniqsa Bag'dod shahri Sharqning yirik ilm va madaniyat markazi edi. IX asrda bu shaharda Sharqning o'ziga xos Fanlar Akademiyasi «Bayt ul-hikma» («Donishmandlar uyi») tashkil etilgan edi. «Bayt ul-hikma» da katta kutubxona hamda Bag'dodda va Damashqqa astronomik kuzatishlar olib boriladigan rasadhonalar mavjud edi. Bu ilm dargohiga jalb etilgan tolibi ilmlar tadqiqotlar bi-lan bir qatorda qadimgi yunon, fors va hind olimlarining ulkan merosini to'plash, asrash va ularni arab tiliga tarjima qilish bilan shug'ullanadilar. Qariyb ikki asr mobaynida faoliyat ko'rsatgan jahonga mashhur bu ilmiy dargohning ko'p sonli olimu fuzalolari orasida Masarjavayh, Muhammad Fazoriy, Fazl Navbaxt, Yoqub Kindiy va ko'pgina boshqalar kabi bir nechta chet tillarni mukammal biladigan yetuk tarjimonlar faoliyat ko'rsatganlar.

Bu davrda «Bayt ul-hikma»da Muso Xorazmiy, Yahyo ibn Abu Mansur, Xolid Marvarudiy, Ahmad Farg'oniy, Abdulloh at-Turk, Abu Xolid Sog'uniy, Qaffol Shoshiy kabi Movarounnahr va xurosonlik olimlar ijod qilib, o'rta asrlar ilmu fani, xususan, matematika, astronomiya, geografiya, tibbiyot, kimyo va huquqshunoslik fanlarining taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shadilar⁶⁷.

Muhammad Ibn Muso Xorazmiy (783—850) qadimgi Xorazm diyorida tug'ilib voyaga yetadi. Dastlabki savod va turli sohadagi bilimlarni u o'z ona yurti Xorazm va Movarounnahr shaharlarida ko'pgina ustozlardan oladi. So'ngra u xalifa Xorun ar-Rashidning Xuroson va Movarounnahrdagi noibi, keyinchalik Xalif Abdulloh ibn Xorun ar-Rashid Ma'mun zamonida (813—833) «Bayt ul-hikma» nomi bilan shuhrat topgan Ma'mun Akademiyasida mudir sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bag'dodda u Suriya, Iroq, Eron, Xuroson va movarounnahrlik olimlar bilan ijod qiladi. Ular orasida Xorazmiy bilan bir qatorda Yahyo ibn Mansur Marvaziy, Ahmad Farg'oniy, Xabash al-Marvaziy, Xolid ibn Abdumalik al-Marvarudiy, Abul Abbos al-Javhariy va boshqalarbor edi. Xorazmiy zamondosh olimlar bilan birgalikda yer aylanasini, uzunligi va

⁶⁷ Негматов Н. Государство Саманидов, Душанбе.: Дониш, 1997, -1676.

radiusini aniqlash hamda geografik xaritalar tuzish kabi masalalar bilan mashg'ul bo'ladi.

Zamonasining mashhur matematigi, astronomi va geografi sifatida fanga ulkan hissa qo'shadi. Xorazmiy 20 dan ortiq asarlar yozadi. Ulardan faqat 10 tasigina bizgacha yetib kelgan. Bu kitoblar «Aljabr va al-muqobala» hisobi hakida qisqacha kitob, «Hind hisobi haqida» yoki «Ko'shish va ayirish haqida kitob», ya'ni arifmetik asar; «Kitob surat ul-arz» — «er surati» haqida geografiyaga oid kitob; «Zij», «Usturlob bilan ishlash haqida kitob», «Usturlob yasash haqida kitob», «Usturlob yordamida azimutni aniqlash haqida» kabi astronomiyaga oid asarlar; shuningdek, «Kitob ar-ruhoma», «Kitob at-tarix», «Yahudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola» nomlari bilan atalgan.

Xorazmiy merosidan, ayniqsa, «Aljabr va al-muqobala» kitobi-ning ilmiy ahamiyati nihoyatda buyukdir. U bu kitobi bilan matematika tarixida birinchi bo'lib algebra faniga asos sodsi. Hatto «al-gebra» atamasi ushbu kitobning qisqacha «al-jabr» deb yuritilgan qisqacha nomining aynan ifodasidir. Xorazmiy nomi esa matematika faniga «algaritm» atamasi shaklida o'z ifodasini topdi. Uning «Aljabr» asari asrlar davomida avlodlar qo'lida yer o'lchash, ariq chiqarish, bino qurish, merosni taqsimlash va boshqa turli hisob va o'lchov ishlarida dasturilamal bo'lib xizmat qildi⁶⁸.

Xorazmiyning bu risolasi XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilinadi va qayta ishlanadi. Keyinchalik esa asrlar davomida yevropa olimlari Xorazmiy asarini qayta-qayta ishlab, uning asosida darsliklar yozadilar. Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasining yevropada, qolaversa butun dunyoda tarqalishida buyuk ahamiyat kasb etadi. Shunday kilib, buyuk vatandoshimiz Xorazmiy matematika faniga asos sol-di, tarixda o'zidan o'chmas iz qoldirdi.

⁶⁸ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Т.: Шарқ, 2000, -101б.

IX asr boshlarida «Bayt ul-hikma» da ijod qilgan olimlardan yana biri marvlik Yahyo ibn Abu Mansur edi. U 828 yilda xalifa Ma'mun farmoni bilan Bag'dodning Ash-sha-mosiya mahallasida rasadxona qurilishida boshchilik qiladi. Rasadxona ishlari va unda olib borilayotgan quzatishlar na-tijalari haqida «Bayt ul-hikma» ning mudiri Xorazmiygahisobot berib turadi. Yahyo ibn Abu Mansur «Az-Zij al-Ma'muni al-mumtaxan» («Sinalgan zich») nomli astronomik asar yozib qodsirgan. U 831 yilda Bag'dodda vafot etgan.

«Bayt ul-hikma» ning olimlaridan Xolid ibn Abdumalik al-Marvaziy esa 831 yidda Damashq yaqinidagi Ki-siyon tog'ida barpo etilgan rasadxonani boshqargan. U ham o'z «Zij» ini tuzadi. yer meridianining uzunligini o'lchash ishlariga boshchilik qiladi.

Bag'dodda Xorazmiy bilan hamkorlikda ishlagan matematik Ahmad ibn Adbulloh al-Marvaziy zamondosh olimlar o'rtasida Habash al-Hosib («Hisobchi habash») laqabi bilan mashhur edi. U ikkita «Zij» tuzadi. Uning zijlaridan o'rta asr astronomlari keng foydalanganlar. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Habash al-Marvaziy handasa fani (geometriya)ga tangens, kotangens, kosekans funksiyalarini kiritib, ularning jadvallarini keltirgan⁶⁹.

«Bayt ul-hikma»da faoliyat ko'rsatgan olimlardan yana biri buyuk astronom, matematik va geograf Ahmad Farg'oniy (taxminan 797—8-b5)dir. Uning to'liq ismi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniydir. U Farg'o-nada tavallud topgani uchun Sharqsa al-Farg'oniy, yevropada esa Alfraganus taxallusi bilan shuhrat topgan. Ahmad Farg'oniy xalifa Ma'mun (813—833), Mu'tasim (833—842) va Mutavakkil (846-861) hukmronlik qilgan davrda yashadi. U avval Marvda, so'ngra Bag'dod, Damashq va Qohira shaharlarida astronomiya, matematika va geografiya fanlari bilan shug'ullandi va qator ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirdi. U asosan Damashqsaga rasadxonada osmon jismlari hara-katini va o'rnini aniqlashning yangicha «Zij»ini yaratish ishlariga rahbarlik qiladi. 832—833 yillarda Suriyaning

⁶⁹ Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Т.: Ўқитувчи 1994.-466.

shimolidagi Sanjar dashtida va Ar-Raqqa oralig'ida yer meridianining bir darajasining uzunligini o'lchashda qatnashadi. 861 yilda uning rahbarligida Fustat (Qohira) shahri yaqinida joylashgan Ravzo orolida Nil daryosi sohilida qurilgan qadimgi Nilometr — daryo oqimi sathini o'lchagich inshooti Miqyos an-Nil va uning darajoti tiklanadi. Ahmad Farg'oniy tarixda birinchilardan bo'lib yerning yumaloqligini isbotlab bergan olimdir.

Bizning davrimizgacha Ahmad Farg'oniyning 8 ta asari saqlanib, ularning birortasi ham hozirgi zamon tillarigatarjima qilinmagan edi. Ahmad Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi munosabati bilan uning ayrim risolalari o'zbek va rus tillarida nashr ztildi. Ularning orasida uning «Kitob ul-harakat as-samoviya va javomi' ilm an-nujum» («Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum — astronomiya asoslari kitobi») ham bordir. Bu kitob XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilinib, nafaqat musulmon Sharqidagi, balki Ispaniya orqali yevropa mamlakatlaridagi astrono-miya ilmining rivojini boshlab berdi. Shundan so'ng Ahmad Farg'oniy nomi lotinlashtirilib, «Alfraganus» shaklida G'arbda shuhrat topdi. Uning «Astronomiya asoslari» nomli kitobi bir necha asrlar davomida yevropa universitetlarida astronomiya fani bo'yicha asosiy darslik sifatida foydalanibkelindi⁷⁰.

Dunyoviy fan olimlari bilan bir qatorda bu davrda Islom ta'limoti va mafkurasining takomili yo'lida movarounnahrlik muhaddis ulamolarning ham xizmati katta bo'ldi. Bu borada ayniqsa Ismoil al-Buxoriy va uning zamondoshi va shogirdi Iso at-Termiziylarning hissasi nihoyatda buyuqdir. Ismoil al-Buxoriyning to'liq ismi Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. U 810 yilda Buxoroda tug'ilgan, kuchli qobiliyat va xotiraga ega bo'lgan. Yoshligidanoq hadislarni o'rganishga kirishib, butun umrini hadis ilmiga bag'ishlagan. U hadis va tafsir olimi, tarixchi bo'lib yetishgan. Hijoz, Misr, Iroq, Xuroson va boshqa o'lkalarda yashab 600 mingdan ortiq hadis to'plagan. Ulardan eng ishonchlilarini saralab, 4 jildli «Al-jome as-sahih»

⁷⁰ Маънавият юлдузлари. Т.: 2001.-466.

(«Sahihi Buxoriy») to‘plamini tuzgan. Bu asar islom dunyosida Kur'ondan keyin ikkinchi manba sanaladi va islom dorilfununlarida asosiy darslik sifatida o‘rganiladi.

Bu bebaho asarga kiritilgan 7275 hadis va ularga berilgan ko‘pdan-ko‘p sharhlarda faqat shariat ahkomlariga oid qoidalargina ifodalanmaydi, balki inson ma'naviy kamolotining ramzi hisoblangan mehr-muhabbat, hurmatu izzat, muruvvatu himmat, halolligu mehnatsevarlik, saxiyligu ochiqko‘ngillik hamda o‘zaro tinch-totuvlik kabi insoniy fazilatlar haqida bayon etilgan⁷¹.

Imom al-Buxoriy «Al-adab ul-mufrad» («Adab durdo-nalari»), «Tarix al-Buxoro» («Buxoro tarixi»), «Al Jo-mi' al-sag‘ir» («Muxtasar to‘plam») nomli asarlar yozgan. Uatrofiga ko‘plab shogird va izdoshlarini to‘plagan. Uning eng mashhur shogirdlaridan biri Imom at-Termiziy edi.

Imom at-Termiziy 824 yilda Termiz shahridan 6 farsax (36 km) shimolda joylashgan Bug‘ qishlog‘ida dunyoga kelgan. Islom olamida mashhur bu muhaddis olimning to‘liq ismi Abu Iso Muhammad bin Iso bin Savra bin Muso bin az-Zahhok az-Zarir at-Termiziy al-Bug‘iydir. Samarqand, Buxoro, Marv va boshqa shaharlarda mashhur muhaddislar asarlarini o‘rganib, islom dunyosining turli shahar va mamlakatlariga safar qilib, Xuroson, Iroq, Hijozning mashhur muhaddis ulamolari bilan muloqotda bo‘lgan.

Imom at-Termiziy hadislar to‘plab, bir qancha asarlar yozgan, «Jome as-Sahih» yoki «Sunani Termiziy», «Kitob Ilal», «Kitob at-Tarix», «Kitob at-Shamoil an-Naboviya», «Kitob az-Zuhd» va boshqalar shular jumlasidandir.

Bu davrda islomning nazariy asoslari mustahkamlandi. Bu borada ham Movarounnahr olimlari ulkan hissa qo‘shdilar. Bu davrning islom nazariyachilaridan biri Hakim Ter-miziy edi. Uning to‘liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Husayn ibn Bashir al-Hakim at-Termiziydir. U 820 yidda Termiz shahrida dunyoga keladi. Umr bo‘yi ilm bilan shug‘ullanib,

⁷¹ Мухаммаджонов А.Р. Мухаммаджонов А.Р. Ўзбекистон тарихи. -Т.: Фафур Фулом нашриёти, 2004, - 1386.

tasavvufni targʻib qiladi. 80 dan ortiq muhim asarlar yozadi: «Kitob an-nahi» («Yoʻriqnoma kitobi»), «Kitob al-Furuh» («Oллоhdan qoʻrquvchilar haqida kitob») shular jumlasidandir. Ayniqsa uning «Ilal ash-Shariat va hatm ul-avliyotun» nomli kitobi islom nazariyachi-lari tomonidan eng koʻp qayd etiladigan asardir. Asarlari va ularda berilgan teran fikr-mulohazalar, gʻoyalar bilan at-Termiziy oʻz zamonining ma'naviy hayotiga katta hissa qoʻshadi. Shu boisdan zamondoshlari uni «Al-hakim» degan nom bilan ulugʻlashgan⁷².

Bu davrda kalom ilmiga asos solib, islom ta'limoti va mafkurasi takomiliga katta hissa qushgan. buyuk allomalardan yana biri Abu Mansur al-Moturidiydir. Uning toʻliq ismi Abu Mansur ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiydir. U taxminan 870 yilda Samarqand yaqinidagi Moturid qishlogʻida dunyoga keladi. Uning hayoti haqida ma'lumotlar juda oz. U 944 yilda Samarqand shahrida vafot etgan va Chokardiza qabristoniga dafn etilgan. Yoshligida otasidan turli ilmlardan saboq olgan. Soʻngra Samarqanddagi Raboti Gʻoziyon masjidi qoshidaga madrasada tahsil koʻrib, ustozlari Abu Bakr Ahmad al-Juzjoni va Abu Nasr Ahmad al-Ibodiylardan faqih va kalom ilmlaridan dars olgan.

Oʻrta asrlarning mashhur ilohiyotshunos olimi boʻlib yetishgan Abu Mansur al-Moturidiy islomiy odob qoidalari, shariat qonunlari, ma'naviy-axloqiy kamolot sirlaridan ta'lim berishga moʻljallangan qator asarlar yozgan. Ammo uning koʻpgina kitoblari bizning zamonimizgacha saqlanib qolmagan. Uning bizgacha yetib kelgan muhim asarlarvdan biri «Kitob at-Tavhid» («Oллоhning yakka-yagonaligi haqidagi kitob»), ikkinchisi «Ta'viylot al Kur'on» («Qur'oni Karimning sharhlari») nomi bilan ataladi. Bu kitoblar ilohiyat ta'limotiga bagʻishlangan eng qadimiy asarlardan boʻlib, islomshunoslikda ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega muhim manbalardan birvdir. Ularda diniy ta'limot va islomiy urf-odatlar insonning ruhiy kamoloti, uning dunyoqarashining shakllanishvdagi mohiyati talqin etiladi. Abu Mansur al-Moturvdiy asos

⁷² Уватов У. Донолардан сабоқлар. -Т.: А.Қодирий, 1994, -216.

solgan ta'limot kishilarni yaxshilikka, rostgo'ylikka, sabru-qanoatga, sharm-hayoga, oliyhimmatlikka, Vatanni sevmqlikka chorlaydi⁷³.

Bu davrda Movarounnahr, Xuroson va Xorazmdan xalifalikning markaziy shaharlariga borib fanning turli sohalarida ijod qilgan olimlardan tashqari madaniyatning deyarli barcha sohaları bo'yicha ham yetuk ustozu shogirdlarning soni Bag'dod shahrvda oz emas edi. Bu yerda ular o'z Vatanlaridagi ilmiy va madaniy an'analarni arab tilida islom mafkurasiga moslashtirilgan holda taraqqiy ettirishga va ularni jahon ilmu madaniyatiga qo'shishga muyassar bo'ladilar.

IX asming ikkinchi yarmvda Movarounnahrning madaniy haetvda yangi davr boshlanadi. Xalifalik hukmronligi tugab, mustaqil Somoniylar davlatining qaror topishi bilan madaniy hayotning jonlanishi uchun keng yo'l ochiladi. Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv va Nishopur kabi shaharlar ilmiy va madaniy markaz sifatida taraqqiy qila boshlaydi.

Bu davrda qishloq aholisining aksariyati sug'diy yoki xorazmiycha so'zlashsa-da, markaziy shaharlarda forsiy — dariy deb yuritilgan xalqning adabiy tili vujudga keladi. Bu til davlat tili sifatida qabul qilinadi. Dariyda nazm, nasr va ilmiy asarlar yozila boshlaydi. Bu davrda dariy ti-lida yozilgan nasriy asarlarning ayrim nusxalari bizgacha saqlanib qolgan. Abu Mansurning nasriy «Plohnoma»siga yozilgan muqaddima, noma'lum muallifning «Hudud al-olam» nomli asari hamda Abu Ja'far Tabariyning «Tarixi Tabariy», «Kur'oni Karim»ning 14 jildli «Tafsiri»ning arabchadan dariy tiliga tarjimalari shular jumlasidandir.

IX—X asrlarda ayniqsa Buxoro shahri madaniy jihatdan yuksaladi. Poytaxtda — amir saroyida turli sohalariga oid qo'lyozma kitoblar saqlanadigan kattagina kutubona barpo etiladi. Somoniy amirlarning aksariyati adabiyot, she'riyat, ilm-fan, san'at va me'morchilikka homiylik kiladilar.

Bu davrda Buxoroda ayniqsa she'riyat ravnaq topadi. Uning rivojiga fors klassik poeziyasining buyuk vakillari Abu Abdulloh Ja'far Rudakiy, Abu Mansur Daqiqiy, Abulhasan Balxiy va ko'pgina boshqa shoirlar g'oyatda katta hissa qo'shadilar.

Rudakiy IX asr oxirida Panjikent yaqinidagi Panjrudak qishlog'ida tug'ilgan. Yoshlik chog'idayoq u rud (chang) chalishni yaxshi o'rgangan. She'r yozib, kuy

⁷³ Хомидхон Ислоний. Абу Мансур Мотуридий. Т.: Ғафур Ғулом нашриёти, 2000, - 46.

bastalagan va hofizlik qilgan. Xalqoʻrtasidagi dongʻi tufayli u Nasr ibn Ahmad (914~943) tomonidan sozanda va shoir sifatida Buxoroga chaqirtirilib olingan. Rudakiy «Kalila va Dimna», «Sind-badnoma», «Arois un-nafois» va «Davroni oftob» asarlarini yozgan. U sheʼriyatda ayniqsa qasida bitishning mohir ustasi boʻlgan. Uning «Joʻyi Muliyon», «Mayning onasi» va «Qarilik» kabi qasidolari xalq oʻrtasida gʻoyat shuhrat topgan. Rudakiyning ulkan sheʼriy merosidan hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan ozgina qismi ham (2 ming misraga yaqin) shoirning zoʻr va yorqin isteʼdodidan, poetik tilining taʼsirchanligidan, obrazlarining teranligidan dalolat beradi. Rudakiy oʻz sheʼrlarida ona-Vatanni, uning tabiati va aholisini, insoniy his-tuygʻularini tarannum etadi. Shoir haqsizlik va adolatsizlikka dadil qarshi chiqadi, oʻsha vaqtlarda hukm surgan tartibsizliklarni ayamay fosh etadi. Umr boʻyi taʼqib etilgan, oxiri Buxorodan quvilgan Rudakiy 941 yilda ona qishlogʻida vafot etadi⁷⁴.

Bu davrning zakovatli shoirlaridan yana biri Daqiqiy edi. Avval u Chagʻoniyon hukmdorlari, soʻngra somoniylar saroyiga taklif etiladi. Daqiqiy anʼanaviy saroy poeziyasidan farqli oʻlaroq, xalq rivoyatlari va epik dostonlar asosida yangi poetik yoʻnalishda ijod qiladi. Umrining oxirida u «Shohnoma» nomli poetik asarini yozishga kirishadi. Biroq shoirning fojiali oʻlimi oqibatida asar boshlanganicha qoladi. Bu buyuk ish keyinchalik Abulqosim Firdavsiy tomonidan davom ettiriladi. Abulqosim Firdavsiy (934-1012) fors adabiyotining klassik shoiri. U dunyoga mashhur sheʼriy «Shohnoma» asarini yaratadi. Bu doston Eron va Turon xalqlarining qahramonona oʻtmishiga bagʻishlangan. U ashaddiy vatanparvarlik ruhida yozilgan asar. «Shohnoma» jahon adabiyoti xazinasining noyob durdonalaridan hisoblanadi. Asar juda koʻp tillarga, shu jumladan, oʻzbek tiliga ham tarjima qilingan.

IX—X asrlarda fors adabiy tili ancha rivoj topgan boʻlsa-da, ammo ilmfan va adabiyotda hali arab tili muhim oʻringa ega edi. Saolabiyning «Yatimat ul-bahr» nomli asarida qayd etilishicha, Buxoro, Xorazm va Xurosonda 119 arabiy zabon shoirlar ijod qilgan. Ularning deyarli barchasi saroy ahli, hukmron

⁷⁴ Негматов Н. Государство Саманидов, -Душанбе, : “Дониш”, 1997,- 2006.

xonadon a'zolari va boshqa oliy tabaqa vakillaridan iborat bo'lgan. Tilshunoslik, fiqh, musiqa, falsafa, matematika, tabobat, astronomiya, tarix va boshqa fanlar bo'yicha ilmiy asarlar asosan arab tilida yozilgan⁷⁵.

Buxoro va boshqa markaziy shaharlarda islom dini ta'limotining asosiy manbalari va shariat bilimlarini o'qitish uchun madrasalar ochilgan edi. Bunday ilmgohlardan yetishib chiqadigan ilm ahlining hammasi ham qozi yoki a'lam bo'lavermay, ular orasidan dunyoviy ilmlar: tabobat, handasa, matematika, kimyo, falakiyot, falsafa, mantiq, tarix va boshqa sohalar bo'yicha puxtagina bilim orttirgan olimlar ham yetishib chiqar edi. Bunday bilim egalari xalq o'rtasida baobro' va e'tiborli bo'lib, ular atrofida, shubhasiz, shogirdlar to'planar edi. Shogirdpeshalariga ular ma'lum soha bo'yicha o'z bilganlaridan ta'lim berar edilar.

Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Balx, Nishopur kabi markaziy shahar bozorlarida alohida kitobfurushlik rastalari bo'lgan. Ularda diniy va dunyoviy ilmlarning turli sohalar bo'yicha turli tillardagi qo'lyozma kitoblar sotilgan. Ibn Sinoning yozishicha, u Buxoro bozoridan Abu Nasr Forobiyning «Aristotel metafizikasiga sharh»lar nomli kitobini uch dirhamga sotib olgan. Bu kitobni o'qib chiqqach Ibn Sino qadimgi yunon faylasufi Aristotel ta'limoti va falsafasining mohiyatiga tushunib yetgan.

Shahar madaniyatining ravnaqi, o'rta asrlar jamiyati, ziyolilari davrasining kengayib borishi shubhasiz somoniy hukmdorlarni ilm ahli bilan yaqinlashtirdi. Mamlakatni boshqarishda ularning bilimi va maslahatlaridan foydalandilar. Hukmdorlarning aksariyati bu davrda o'z saroylarida olim, shoir va usta san'atkorlarni va turli sohalar bo'yicha qimmatbaho kitoblarni to'plashga odatlandilar. Saroyga jalb etilgan olim va shoirlar kutubxonalardagi nodir ko'lyozma asarlar bilan mag'rurlanardilar⁷⁶.

⁷⁵ Абу Мансур ас-Саолибий. Йатимат ад-даҳр. -Т.: 1976, -1866.

⁷⁶ Зоҳидов В.Уч даҳо (Форобий, Беруний, Ибн Сино). -Т., 1987, -326.

Mustaqil Somoniylar davlatining tashkil topishi, siyosiy barkarorlik va iqtisodiy ko'tarilish madaniy hayotning ravnakiga imkon berdi. Bu davr Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Abu Abdulloh Xorazmiy va Abu Bakr Muhammad Narshaxiy kabi jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk siymolarni o'z bag'rida tarbiyalab kamolotga yetkazdi.

Abu Nasr Forobiy 873 yilda Aris suvining Sirdaryoga quyilishida joylashgan Forob (O'tror) shahrida tug'ilgan. U avval ona shahrida, so'ngra Samarqand, Buxoro va Bag'dodda bilim olgan. Umrining oxirida Xalab va Damashq shaharlarida yashagan, 950 yilda vafot etgan. Forobiy riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, mantiq, falsafa, tilshunoslik va adabiyot sohalarida ijod etgan. U 160 dan ortiq asar yozib, o'rta asr fan va madaniyatiga ulkan hissa qo'shdi. Bular orasida <Aristotel (Arastu)ning «Metofizika» asari maqsad-lari haqida», «Musiqa kitobi», «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Tirik mavjudot a'zolari haqida», «Siyosati al-madaniya» («Shaharlar ustida siyosat yurgizish») va boshqa ko'pgina asarlari bo'lgan. Forobiy bilimi, ma'rifati, fikr-mulohazalarining kengligi va mantigining teranligi tufayli Sharqda Aristotel (Arastu) dan keyingi yirik mutafakkir — «Muallimus-soniy» («Ikkinchi muallim») nomi bilan shuhrat topdi. Forobiy ilk o'rta asr sharoitida aql va ilm tantanasi, ma'naviy ozodlik, inson takomili va adolatli jamiyat uchun kurashgan buyuk siymo edi⁷⁷.

Bu davrning ulug' mutafakkirlaridan yana biri Abu Ali ibn Sino edi. U 980 yidda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida mahalliy amaldor oilasida dunyoga keladi. Besh, o'n yoshlarida maktabda ta'lim oladi. Maktabni bitirgach, ustozi Abu Abdulloh an-Natiliydan mantiq, falsafa, riyoziyot va fiqh ilmlarini o'rganadi. O'n olti yoshidan boshlab turli fanlar bo'yicha Sharq va G'arb olimlarining ilmiy asarlarini mustaqil o'rganadi. Ayniqsa u tabobat ilmining qadimgi allomalari Gippokrat va Golen hamda o'rta asr Sharqining buyuk hakimi va mutafakkiri Abu Bakr ar-Roziy (864—925) ning asarlarini puxta

⁷⁷ Зоҳидов В.Уч даҳо (Форобий, Беруний, Ибн Сино). -Т.: 1987, -441б.

o'rganadi. Ibn Sino o'n yetti yoshidayoq e'tiborli hakim va olim bo'lib yetishadi. U amir Nuh ibn Mansurni davolab tuzatgach, somoniylarning saroy kutubxonasidan foydalanishga ruxsat oladi. Kutubxonada u bir yil davomida turli sohalardagi ilmiy asarlarni mutolaa qilib, bilimini chuqurlashtiradi.

X asr oxiri — XI asr boshlarida Movarounnahr va Xurosondagi murakkab siyosiy vaziyat oqibatida yuzaga kelgan og'ir sharoitda Ibn Sino o'z ona shahri Buxoroni tark etib, avvalo Xorazmshoh Ma'mun saroyidagi olimlar qatoridan joy oladi. So'ngra Mahmud G'aznaviyning tazyiqi tufayli Xorazmdan ham chiqib ketadi. U umrining oxirigacha Obivard, Gurgon, Ray, Kazvin, Isfaxon va Hamadon shaharlarida hukmdorlar qo'l ostida tabiblik va vazirlik qiladi. 1037 yilda Hamadonda vafot etadi⁷⁸.

Ibn Sino arab va fors tillarida fanning turli sohalari bo'yicha 300 dan ortiq asarlar yozadi. Nazm va nasrda qalam yuritadi. Uning besh jildlik «Al-Qonun fit-tib», «Kitob ush-shifo», «Donishnoma», «Salamon va Ibsol», «Risalat at-tayr» va ko'pgina boshqa asarlari shular jumlasidandir. Uning tabobatga doir asarlarida kasalliklarning kelib chiqish sabablari va manbalari, diagnostika, muolaja usullari, dorivor o'simliklar va dorivor o'simliklar xususiyatlari, parhyez, inson salomatligi uchun jismoniy tarbiyaning ahamiyati kabi tabobatning ko'pgina g'oyat muhim masalalariga alohida e'tibor berilgan. Uning «Al-Qonun fit-tib» asari XII asrdayoq lotinchaga tarjima qilinib, to XVII asrgacha yevropa tabobatida asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan. O'rta asrning bu buyuk allomasi Sharqda «Shayxur-ra'is», G'arbda «Avitsenna» nomlari bilan shuhrat topdi⁷⁹.

Bu davrda Xorazm poytaxti Urganch ham obod va madaniy shahar edi. Xorazmshoh Abul Abbas Ma'mun ancha bilimli hukmdor bo'lib, olim, shoir, san'atkor, naqqosh va musavvirlarga homiylik qilar edi. Urganchda xorazmshohlar saroyida zamonasining yirik mutafakkirlari Ibn Sino va

⁷⁸ Беруний билан Ибн Синонинг савол-жавоблари. -Т.: Фан, 1950. -146.

⁷⁹ Ирисов А. Улуғ табиб ва олим Абу Ади ибн Сино.- Т.: Фан. 1960, -146.

Beruniydan tashqari, tarixchi Miskavayx, matematik Abu Nasr Arroq, faylasuf Abu Sahl Masihiy, tabib Ibn Hammorlar to'plangan edilar. Bu yerda «Bilimdonlar uyi» — «Ma'mun akademiyasi» tashkil etilib, u yerda Xorazmshoh homiyligida falsafa, matematika, tib ilmiga oid masalalar muhokama qilinar edi. Ammo Urganchdagi bu ilmiy muhit uzoq yashamadi. Mahmud G'aznaviyning tazyiqi ostida u tezda tarqalib ketdi.

O'sha zamonda Urganchda yashab ijod qilgan ulug' mutafakkirlardan biri Abu Rayhon Beruniy (973-1048) edi. U Xorazmda tug'iddi, dastlab Urganchda ta'lim oldi. Uzoq yillar Gurgonda yashadi. So'ngra Xorazmshoh Ma'mun saroyida ijod qildi. 1017 yilda Mahmud G'aznaviyning talabi bilan G'azna shahriga bordi va umrining oxirigacha shu yerda ijod qildi. Beruniy 1048 yilda G'aznada vafot etdi. U falakiyot, geografiya, matematika va tarix fanlari bo'yicha 154 ta ilmiy asar yozdi. Beruniyning «O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Geodeziya» kabi yirik asarlari shular jumlasidandir. U o'zining falakiyotga oid asarlaridan Koperniqdan qariyb 5 asr muqaddam yerning quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni o'rta asrlarda birinchi bo'lib ilgari surdi. yerning dumaloq shaklda ekanligini asoslab berdi. U dunyoning geografik xaritasini tuzdi.

Beruniyning fan olamida shuhrat qozontirgan katta asarlari «Hindiston» hamda «O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar» nomli kitoblaridir. Ulardan birinchisida u Hindistonning geografiyasi, aholisining mifologik tasavvurlari haqida ma'lumot beradi. Ikkinchi kitobida esa yunonlar, rumoliklar, sug'dlar, xorazmliklar, nasorolar, yahudiylar, arablarning islomgacha bo'lgan urf-odatlar, diniy e'tiqodlari, matematik va geografik tushunchalari to'g'risida qimmatli tarixiy ma'lumotlarni bayon qiladi. Beruniyning ilmiy va falsafiy merosi, shubhasiz, jahon fani va madaniyati xazinasiga qo'shilgan katta hissa bo'ldi⁸⁰.

X—XI asrlarning qomusiy olimlaridan ikkinchisi Abu Abdulloh al-Xorazmiy edi. Xorazmlik bu olimning hayoti haqida juda oz ma'lumot bizgacha

⁸⁰ Ирисов А. Беруний ва Ҳиндистон. -Т.: Фан. 1963, -136.

yetib kelgan, hatto uning na tavallud topgan, na vafot etgan sanasi ma'lum. Olimning to'liq ismi Abu Abdulloh ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiydir. Uning yoshligi Xiva, Zamahshar va kindik qoni to'kilgan Kat shahrida o'tgan. Bu shaharda Abu Abdulloh al-Xorazmiy yashadi, savod chiqardi va fanning turli sohalari bo'yicha bilimlarga ega bo'ddi. Ma'lum bir vaqt u Xurosonda istiqomat qiladi. Nishopur shahrida kotiblik, Somoniylar davlati poytaxti Buxoroda Nuh ibn Mansur (976- 997) saroyida hatto vazirlik lavozimida faoliyat ko'rsata-i. Saroydagi hayot unga Buxoro shahridagi nihoyatda boy amir kutubxonasidan foydalanish imkonini beradi.

Abu Abdulloh Xorazmiydan bizgacha arab tilida yozilgan yagona asar — «Mafotih ul-ulum» («Fanlar kalitlari») yetib kelgan. Bu kitob fanlarning rivoji tarixi va ularning tasnifiga bashshlangan. Unda o'rta asrlardagi fanlar borasida ma'lumotlar qomusiy uslubda berilgan. Aruz, arifmetika, geometriya, kimyo kabi fanlarning asoslari bayon etilgan. Abu Abdulloh al-Xorazmiy o'z asarida aniq fanlar to'g'risida tushunchalar beribgina qolmay, balki ularning taraqqiyot darajasini ham aniqlagan. Uning bu asari o'rta asrlarda O'rta Osiyoda aniq fanlarning rivojida muhim o'rin tutgan⁸¹.

Bu davrda Xorazm diyorida yetishib chiqqan buyuk allomalardan yana biri Mahmud Zamahshariydir. Uning to'liq ismi Abul Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamahshariy bo'lib, u 1074 yidda Xorazmning Zamahshar qasabasida dunyoga keldi. Dastlab bilimni u avval otasidan oladi, so'ngra madrasada tahsil ko'radi. Ilmga bo'lgan chanqoqlik uni Buxoro, Marv, Nishopur, Isfaxon, Shom, Bag'dod, Hijoz va Makkada hayot kechirib kelgan arab tili grammatikasi va lug'ati, arab qabilalarining lahjalari, maqollari, urf-odatlarini chuqur o'rganishiga sabab bo'ladi. Mintaqa geografiyasiga doir ma'lumotlar to'playdi.

Mahmud Zamahshariy arab tili grammatikasi, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, jug'rofiya, tafsir, hadis vafiqh ilmiga oid 50 dan ortiq asarlar yozib qoldiradi. Ayniqsa uning arab tili fonetikasi va morfologiyasiga bag'ishlangan

⁸¹ Баҳодиров Р. Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмий ва илмлар таснифи тарихидан. -Т.: Ўзбекистон, 1995, -276.

«Al-Mufasssal», Xorazmshoh Otsizga bag'ishlangan «Muqaddimat ul-adab», «Kitob al-Jibol va-lamkina val-miyoh» («Tog'lar, joylar va suvlar haqidagi kitob») kabi asarlari nihoyatda ahamiyatlidir. Uning «Asos al-balog'a» («Notiqlik asoslari»), «Al-Kustos fil-aruz» («Aruzda o'lchov (mezon)») asarlari qimmatli manbalardan hisoblanadi. Az-Zamahshariyning Qur'on tafsiriga oid «Al-Kashshof» asari musulmon olamida ayniqsa mashhurdir. Qohiradagi dunyoga dong'i ketgan Al-Azhar diniy dorulfunining talabalari «Al-Kashshof» asosida Qur'oni Karimni o'rganadilar⁸².

XII asrda fiqh ilmining rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomaning to'liq ismi Abul Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abdul Jalil ar-Rishtoniy al-Marg'inoniydir. U 1118 yil-da Farg'ona vodiysining Rishton qasabasida tavallud topdi, 1197 yili vafot etdi. U yoshligidayoq Rishton, Marg'inon, Samarqand, Buxoro hamda Movarounnahrning boshqa shaharlarida Qur'on, hadis ilmlarini mukammal egallab, islom huquqshunoslik borasida yuksak yutuqlarga erishgan⁸³.

X-XII asrlarda Movarounnahrda tarix va geografiyaga qiziqish ortib, bu ilmlarga e'tibor kuchayadi. Chunki bu davrda mahalliy aholining ma'naviy hayotida o'z ona tili va unda yozilgan tarixiy va adabiy asarlarga bo'lgan ehtiyoj ham tobora ortib bormoqsa edi. Ayni shu davrda Gardiziyning «Zaynulaxbor» («Xabarlar ko'rki»), Bayxaqiyning 30 jildlik tarixiy asari, Majiduddin Adnoniyning «Tari-xiy mulki Turkiston», Muhammad Narshaxiyning «Tarixi Buxoro» kabi asarlari fors tiliga tarjima qilinadi.

Bu davrda Movarounnahr, Shosh, Fargona, yettisuv va Sharqiy Turkistonda turkiy xalqqaarning qadimdan davom etib kelayotgan og'zaki adabiyoti yuzaga keladi. Qator didaktik poemalari bitiladi. Ammo ularning juda oz nusxalarigina bizgacha saqlangan. Ulardan eng nodiri Yusuf Xos Hojib Bolasog'uniyning «Kutadg'u bilik» («Saodatga boshlovchi asar») nomli

⁸² Абул Қосим Маҳмуд аз-Замахшарий. Нозик иборалар. –Т:Камалак. 1992, 136.

⁸³ Қориев О. Ал-Марғиноний – машхур фикшунос. -Т.: Фан. 2000, -206.

asaridir. Asarda mavzular qamrovi juda keng. Ularda inson va uning ijtimoiy mohiyati, hayotidagi o'zni va vazifasi har tomonlama tahlil qilinadi. «Qutadg'u bilik»da oddiy xalq, mehnatkash inson alohida ehtirom bilan tasvirlanadi. Yusuf Xos Hojib ayniqsa dehqonlar, chorvadorlar, hunarmand va savdogarlarni iliq mehr bilan tilga oladi. Dehqonlarni u hammadan ham yuqori qo'yadi. Turli tabaqalar bilan hokimiyatning qanday munosabatda bo'lishi kerakligini uqtiradi. Dehqonlar «zarur kishilardir... bular bilan sen aloqada bo'l va aralashgin.... hammajonliylarga ulardan oziq yetadi, hamma o'z yeyim-ichimini ulardan oladi»⁸⁴, deb ta'kidlanadi kitobda.

X—XII asrlarda Movarounnahr va Xorazmda me'morchilik va san'at yangi taraqqiyot bosqichiga ko'chdi. Avvalambor, o'rta asr jamiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi va bu davrda to'la g'alaba qozongan islom dini mafkurasi madaniy hayotning bu sohasiga ham kuchli ta'sir qildi. Uning tashqi qiyofasi va mazmuni tubdan o'zgardi.

Qolaversa, mamlakatning iqtisodiy qo'tarilishi natijasida uning yangi yo'nalishda ravnaq topishi uchun qulay sharoit yuzaga keldi. VIII asrda yuz bergan tushkunlikdan keyin shaharlar kengayib, obodonlashadi. Asrlar davomida to'plangan va avloddan-avlodga an'anaviy ravishda o'gib, tobora boyib kelgan me'morchilik yuqori darajada rivojlanadi.

Shaharlarda hashamatli binolar qad ko'taradi. Binokorlikda xom g'isht va paxsa bilan bir qatorda, pishiq g'isht va turli xil ganch hamda ohakli qurilish qorishmalari keng ishlatilib, binolarning shakli ham, ko'rinishi ham ko'rkamlashadi. Baland peshtoqli yoki chortoqqi, tomi gumbazli hashamatli binolar hamda o'ymakor g'ishtlardan qurilgan qo'rkam minoralar har bir shaharning ko'rki bo'lib, uning husniga husn qo'shar va manzarasini bezab turar edi.

Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O'zgan va Marv kabi shaharlarda bu davrda ko'plab saroy, masjid, madrasa, minora, xonaqoh, maqbara, tim va

⁸⁴ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Т.: Юлдузча, 1990, -436.

karvonsaroylar quriladi. Buxoro shahridagi Ismoil Somoniy, Zirabuloq yaqinida -Tim qishlog'idagi Arabota, Karmanadagi Mirsaid Bahrom maqbaralari, Buxorodagi namozgoh, Minorai Kalon, Vobkent va Jarqo'rg'on minoralari va boshqa ko'pgina binolar o'sha davr me'morchiligining namunalaridandir. Bu yodgorliklar X-XII asrlarda Movarounnahrda o'ziga xos me'morchilikning g'oyat rivoj topganligidan dalolat beradi⁸⁵.

Bu davrda monumental me'moriy binolardan tashqari, yo'nilgan tosh, pishiq g'isht va suvga chidamli qurilish qorishmalaridan turli xil suv inshootlari: suv omborlari - bandlar, novalar, ko'priklar, sardobalar va korizlar barpo etiladi. Qizig'i shundaki, bunday inshootlarning o'lchamlari matematik jihatdan uyat puxta ishlangan. Shunga qaraganda, mahalliy gidrotexniklar bunday suv inshootlarini qurishda o'sha davrda rivoj topgan handasa va riyoziyot ilmlari hamda asriy mirobchilik muhandisligi tajribalaridan keng foydalanganlar.

Masalan, X asr Nurota tog' tizmalarining Pasttog' darasi to'silib, barpo etilgan Xonbandi nomli suv omboriga 1,5 mln metr kub suv to'plangan. To'g'on granit toshi va suvga chidamli qurilish qorishmasidan qurilgan. Xonbandining matematika yechimlaridan ma'lum bo'lishicha, uni bino qilishda X asr muhandislari hovuzga to'planadigan suvning vertikal hamda ag'daruvchi kuchlarigina emas, balki bu hududlarda tez-tez sodir bo'ladigan zilzilalarning silkinish kuchlarini ham hisobga olganlar. Bu, shubhasiz, XVII asr mashhur fransuz fizigi Blez Paskal tomonidan suvning bosim kuchi to'g'risida yaratilgan qonun kashfiyotchisidan qariyb VII asr muqaddam movarounnahrlik muhandislarga ma'lum ekanligidan dalolat beradi⁸⁶.

X asrdan boshlab binokorliqsa sinchkori imoratlar keng tarqaladi. Yakkasinch va qo'shsinchli binolarning tagsinchlaridan tortib, ustunlariyu sarrovlari va to'sinlarigacha yog'ochlarni payvandlash uslubida qurilib,

⁸⁵ Пугаченкова Г.А. Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. Т.: 1989, -38с.

⁸⁶ Мухаммаджонов А. Ўзбекистоннинг қадимги гидротехника иншоотлари. Т.: Ўзбекистон, 1997, -326.

sinchlarning orasi xom g'isht yoki guvalalar bilan urib chiqilgan. Bu tuzilishdagi imoratlarni qurish uslubi hozirgacha saqlanib keladi.

Afrosiyob, Varaxsha, Buxoro va Poykand shahar xarobalarida kovlab ochilgan turarjoy qoldiqlaridan ma'lum bo'lishicha, X—XI asrlarda ham paxsa va xom g'ishtdan qurilgan imoratlar shahar me'morchiligida asosiy o'rinni tutgan. Xona, yo'lak, ayvon va hovlilardan iborat bunday turarjoylar va saroylar odatda mustahkam qalin paxsa devor bilan o'ralib suvalgan, xona devorlari ganchkori naqshli panellar bilan bezatilgan. Turarjoy sahni ko'pincha naqshli qilib to'shalgan pishiq g'yshtlar bilan qoplanar edi⁸⁷.

IX—XII asrlarda me'morchilik bilan birga naqqoshlik va o'ymakorlik san'ati ham ancha rivoj topadi. Imoratni o'ymakor ustun va to'sinlar, devorlarini bo'yoqli yoki ganchkorli naqshlar bilan bezash keng tarqaladi. Bu davrga kelib naqqoshlik va tasviriy san'at o'zgacha tus oladi. Endiliqsa jonli mavjudotlarni tasvirlashdan murakkab geometrik va islmiy gulli naqshlar ishlashga o'tiladi. Islom dini mafkurasiga asosan, garchi tirik jonzodlarni tasvirlash majusiylilik va butparastlik deb qagiy man qilinganiga qaramay, xalq san'atining bu sohadagi asriy an'analari butunlay yo'qolib ketmaydi. Bu davrda yog'och, ganch va sopoldan turli jonzodlarning haykalchalarini yasash va ularning tasvirlarini sirli sopol buyumlariga tushirish keng tarqaladi.

Naqqoshlik san'atining taraqqiyoti o'z navbatida kulolchilik, misgarlik va zargarlikning ravnaqiga yordam beradi. Samarqand, Buxoro, Toshkent va boshqa shaharlar kulolchilik, misgarlik va zargarlik rivoj topgan markazga aylanadi. IX—XII asrlarda ayniqsa sirli sopol buyumlar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yiladi. Rango-rang sopol idishlarga nimsariq, ko'kimtir, yashil, qizil, jigarrang va qora bo'yoqli naqshlar tortilib, sirti yupqa sir bilan qoplangan. Idish-tovoqlarni epigrafik naqsh — arabcha «xatti kufiy»da bitilgan maqollar, hikmatli so'z va tilaklar bilan bezash katta o'rin tutgan. Bunday sopol buyumlar nihoyatda sifatli bo'lib, chet mamlakatlarga ham olib chiqilgan.

⁸⁷ Ўлмас обидалар./ М.Исҳоков ва муаллифлар гуруҳи. Т.: Фан, 1989, -576.

Bu davrda xattotlik xalq san'atining muhim va keng tarqalgan sohalaridan biri edi. Hali kitob bosish kashf etilmaganligi, qo'lyozma kitoblardan nusxalar xattotlar tomonidan faqat qo'lda ko'chirilishi tufayli xattotlik san'ati ancha rivoj topadi. Turli uslubda husnixat bilan bitilgan xattotlik namunalari me'moriy naqshlarda ham hayotiy mazmun va estetik zavq beruvchi bezak sifatida ishlatiladi.

Odatda, imoratlarning peshtoqi, eshigi va devorlarining ayrim qismlari turli mazmundagi bitiklar bilan qoplanar edi. Shu jumladan, masjid, xonaqoh va madrasalarga ayrim oyatlar, saroylarga turli madhiyalar, oddiy bino va buyumlarga esa hikmatli so'zlar bitilar edi. Shuningdek, imoratning qurilgan yili, binokor ustaning ismini yozish ham odatga aylangan. Bu odat, shubhasiz, kulolchilik, misgarlik va zargarlik buyumlarida ham namoyon bo'ladi. Shunday qilib, IX—XII asr me'morchiligi va unda ishlangan me'moriy naqsh uslublari o'z navbatida mexnatkash aholining did-nafosat va binokorlik g'oyalari bilan chambarchas bog'langan xalq me'mor-bannolarining sermazmun ijodini namoyish etadi⁸⁸.

IX—XII asrlarda musiqa san'ati xam g'oyat taraqqiy qiladi. Bayramlar, to'ylar, xalq sayillari va boshqa marosimlar, shubhasiz, kuy va qo'shiqsiz o'tmas edi. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» kitobida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, xalq orasida ayniqsa qo'shiq janri keng tarqalgan⁸⁹. Bu davrda sozandalar rud, tanbur, qo'buz, rubob, nay, surnay, karnay, qo'shnay, tabl, barbat, daf, ko's, taburok, zir, chag'ona, shaynur, arg'unun va qonun kabi g'oyat xilma-xil torli, zarbli va puflab chalinadigan cholg'u asboblardan keng foydalanganlar.

Bu davrda hatto yangi sozlar ixtiro etilgan. Masalan, Rudakiyning zamondoshi Abu Hifz Sug'diy nayga monand «shohrud» nomli torli asbob yaratgan edi. Manbalarda Abu Bakr Rubobiy, Bunasr, Buamir, changchi

⁸⁸ Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъатининг тарихи. Т.: Фан, 1971, -286.

⁸⁹ Махмуд Кашгарий. Девону луғотит-турк. 3-жилд. Т.: Фан, 1963, -686.

Lo‘kariy kabi sozandalar hamda hofizlarning nomlari saq-lanib qolgan. Rudakiy rud va tanbur kabi sozlarni yaxshigina chaladigan sozanda va xushovoz hofiz bo‘lgan, uning mashhur «Bo‘yi jo‘yi Mo‘liyon» she’ri ushshoq kuyida aytilib, nihoyatda shuhrat qozongan. Rudakiyning zamondoshlaridan shoir Abu Tayib Tohir «Xusravoniy» kuyini ijod qilgan edi.

Bu davrda xalq kuylari asosida keyinchalik tojik va o‘zbek xalqlarining klassik kuyi «Shashmaqom» uchun poy devor bo‘lgan «Rost», «Xusravoniy», «Boda», «Ushshoq», «Zerafkanda», «Buslik», «Sipohon», «Navo», «Basta», «Taron» kabi yangi-yangi quylar ijod etiladi. Bu soz va kuylarning ko‘pi o‘zbek va qardosh xalkdarning madaniy merosi tarzida hozirgi kungacha sakdanib kelmoqsa. Musiqa san'ati, shubhasiz, poeziya hamda musiqashunoslik ilmi bilan uzviy bog‘langan holda taraqqiy etadi. Forobiy va Abu Ali ibn Sino kabi ulug‘ olimlar musiqa va musiqashunoslikka katta e'tibor beradilar va nodir asarlar yaratadilar⁹⁰.

IX-XII asrlar ma'naviy hayotida islom dini muhim rol o‘ynaydi. Bu davrda musulmon Sharqida keng tarqalib, jahon dini darajasigacha ko‘tarilgan islom dini va shariat musulmon dunyosining mafkurasiga aylandi. Arab xalifaligining olib borgan siyosati natijasida o‘zining barcha haq-huquqlaridan ajralib, madaniyati oyoq osti qilingan Mo-varounnahr aholisi o‘z e'tiqodi va xat-savodidan mahrum bo‘lib, islom dinini qabul qilishga, shariat ahkomlarini bajarishga, shuningdek, arab tili va yozuvini o‘rganishga majbur bo‘ldi. Ko‘p vaqg o‘tmay e'tiqodli xalq yod arab imlosida xat-savod chiqarishga kirishadi. Masjid va xonaqohlar savod maktabiga aylanib, imomu mutavallilar ustozu muta-kallim vazifasini bajaradilar.

Biroq shunisi e'tiborliki, Movarounnahr aholisining murakkab arab imlosini o‘zlashtirib, xat-savodli bo‘lishi uchun hamda fan va davlat tili deb hisoblangan arabiy tilni mukammal o‘rganib, bu tilda asarlar yarata oladigan

⁹⁰ Хамидов Х. Ўзбек анъанавий қўшиқчилик маданияти тарихи. Т.: Ўқитувчи, 1996, -266.

olim va mutafakkirlarning yerli xalq orasidan yetishib chiqishi uchun qariyb bir yarim asr, ya'ni besh avlodning umri sarf bo'ladi.

Shunday bo'lsa-da, bu davr mobaynida Movarounnahr aholisining ma'naviy va e'tiqodiy hayotida keskin o'zgarishlar sodir bo'ladi. Ma'lumki, ilk islomda jamiyatni hukuqiy va mafkuraviy jihatdan boshqarish faqat Qur'on va hadis asosida olib borilgan. Biroq musulmon jamoalarining barcha huquqiy va axloqiy masalalari Qur'onda qamrab olinmaganligi sababli VII asr oxiri - VIII asr boshlaridayoq hadislarni to'plab yozish boshlanadi. Chunki hadislar Qur'ondan keyin muqaddas manba hisoblangan. IX-X asr boshlarida islomiyat ulamolari orasida obro'li deb e'tirof etilgan hadislarning 6 ta to'g'shami yuzaga keladi. Bulardan sunna deb hisoblangan hadislardan «Sahihi Buxoriy» va «Sahihi Muslim» eng mo'tabarlari hisoblanadi. Movarounnahrdan Abu Abdulloh Ismoil al-Buxoriy va Abu Iso at-Termiziy kabi buyuk muhaddislar yetishib chiqqan⁹¹.

Ammo vaqt o'tishi bilan xalifalik tomonidan fath ztilgan mamlakatlar ulamolarining ta'siri tufayli islom ta'limotining ba'zi masalalari bo'yicha g'oyaviy bahslar va ixtiloflar yuzaga keladi. Natijada ko'plab yo'nalish, mazhab va fiqrlar paydo bo'ladi. X asrda islomning sunniylik yo'nalishi, xususan, Abu Xanifa (Imom A'zam) tomonidan Iroqda asos solingan Xanafiya mazhabi, ayniqsa, Xuroson va Movarounnahrda ravnaq topadi. Chunki Xanafiya mazhabi o'zga dinlar va mahalliy urf-odatlariga nisbatan erkinlik berib, xalqlarning mahalliy an'analarini e'tiborga olgani uchun u keng yoyiladi.

Bunday vaziyatda, shubhasiz, musulmonlarning ijtimoiy-iqtisodiy, diniy faoliyatini qamrab oluvchi qonunlar majmuasiga ehtiyoj tug'iladi. Bir necha asrlar mobaynida ilohiyotchilar shariat qonunlarini ishlab chiqadilar. U diniy-huquqiy tizim sifatida XI-XII asrlarda to'la shakllanadi. Bu borada ham Movarounnahr ula-molari ma'naviy va madaniy merosni shakllantirish yo'lida

⁹¹ Уватов У. Муҳаддислар имоми. Т., Маънавият, 1998, -416.

imkoniyat doirasida faoliyat ko'rsatadilar. Burhonuddin al-Marg'inoniy va uning mashhur «Al-Hidoya» asari buning yorqin dalilidir.

Movarounnahr va Xurosonda xalifalik hukmronligi tugatilib, mustaqil Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar va G'aznaviylar davlatlari qaror topadi. Islom ta'limoti, shariat ahkomlari va ilmu ma'rifatga e'tibor yanada kuchayadi. Markaziy shaharlarda qator masjid va madrasalar qad qo'taradi. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, dastlabki madrasa Buxoroda X asrda shaharning Kavushdo'zlar timi yaqinida bino qilinadi. U Farjak madrasasi deb yuritilgan. XII asrda esa Buxoroning Darvoza mahallasida qonunshunoslar uchun maxsus «Faqihlar madrasasi» quriladi.

Bunday oliy ilmgohlarda asosan islom dini ta'limotining asosiy manbalari — Qur'oni Karim, Hadisi Sharif va arab tilini mukammal o'rganishga katta e'tibor berilgan. Shariat ahkom Qur'ondan keyin muqaddas manba hisoblangan. IX—X asr boshlarida islomiyat ulamolari orasvda obro'li deb e'tirof etilgan hadislarning 6 ta to'g'shami yuzaga keladi. Bulardan sunna deb hisoblangan hadislardan «Sahihi Buxoriy» va «Sahihi Muslim» eng mo'tabarlari hisoblanadi. Movarounnahrdan Abu Abdulloh Ismoil al-Buxoriy va Abu Iso at-Termiziy kabi buyuk muhaddislar yetishib chiqqan⁹².

Ammo vaqt o'tishi bilan xalifalik tomonidan fath ztilgan mamlakatlar ulamolarining ta'siri tufayli islom ta'limotining ba'zi masalalari bo'yicha g'oyaviy bahslar va ix-tiloflar yuzaga keladi. Natijada ko'plab yo'nalish, mazhab va fiqrlar paydo bo'ladi. X asrda islomning sunniylik yo'nalishi, xususan, Abu Xanifa (Imom A'zam) tomonidan Iroqda asos solingan Xanafiya mazhabi, ayniqsa, Xuroson va Movarounnahrdan ravnaq topadi. Chunki Xanafiya mazhabi o'zga dinlar va mahalliy urf-odatlariga nisbatan erkinlik berib, xalqlarning mahalliy an'analarini e'tiborga olgani uchun u keng yoyiladi⁹³.

⁹² Баҳодиров Р., Расулов Д. Ислам илмларининг буюк алломалари. Т.: 2000, -246.

⁹³ Алоуддин Мансур. Имоми Аъзам – буюк имомимиз. Т.: 1999, -956.

Bunday vaziyatda, shubhasiz, musulmonlarning ijtimoiy-iqtisodiy, diniy faoliyatini qamrab oluvchi qonunlar majmuasiga ehtiyoj tugʻiladi. Bir necha asrlar mobaynida ilohiyotchilar shariat qonunlarini ishlab chiqadilar. U diniy-huquqiy tizim sifatida XI-XII asrlarda toʻla shakllanadi. Bu borada ham Movarounnahr ula-molari ma'naviy va madaniy merosni shakllantirish yoʻlida imkoniyat doirasida faoliyat koʻrsatadilar. Burhonuddin al-Margʻinoniy va uning mashhur «Al-Hidoya» asari buning yorqin dalilidir⁹⁴.

Movarounnahr va Xurosonda xalifalik hukmronligi tugatilib, mustaqil Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar va Gʻaznaviylar davlatlari qaror topadi. Islom ta'limoti, shariat ahkomlari va ilmu ma'rifatga e'tibor yanada kuchayadi. Markaziy shaharlarda qator masjid va madrasalar qad qoʻtaradi. Manbalardan ma'lum boʻlishicha, dastlabki madrasa Buxoroda X asrda shaharning Kavushdoʻzlar timi yaqinida bino qilinadi. U Farjak madrasasi deb yuritilgan. XII asrda esa Buxoroning Darvoza mahallasida qonunshunoslar uchun maxsus «Faqihlar madrasasi» quriladi.

Bunday oliy ilmgohlarda asosan islom dini ta'limotining asosiy manbalari - Qur'oni Karim, Hadisi Sharif va arab tilini mukammal oʻrganishga katta e'tibor berilgan. Shariat ahkom uzgan, zehnu zakovat, aqlu farosatda tengsiz, shariat ilmining bilimdoni, toatu ibodatda mustahkam, ammo oddiy mutaabbid dindorlardan ajralib turadigan ajoyib xislatli insonlar toifasi boʻlib, tarixda ular «ruh kishilari» deb ulugʻlangan. Yozma manbalarda ular ahdulloh, avliyo, arbobi tariqat, darvesh, qalandar va faqir kabi nomlar bilan tilga olinadi. Ammo diniy adabiyotda ularga koʻproq «soʻfiy» nomi qoʻllanilgan. Soʻfiy soʻzi arabcha «soʻf» iborasidan yasalib, jun chakmonli, jun kiyimli ma'nosini anglatgan. Chunki soʻfiy darveshlarning aksariyati, odatda, jun chakmon yoki qoʻy terisidan tikilgan poʻstin kiyib yurganlar. Soʻf yoki soʻfiy soʻzidan yasalgan «tasavvuf» iborasi soʻfiylik tariqati haqidagi ta'limot degan ma'noni bildirgan.

⁹⁴ Уватов У. Муҳаддислар имоми. Т.: Маънавият, 1998, -486.

Bu diniy-falsafiy ta'limotning rusumlari - tartib-qoidalari IX-X asrlarda shakllangan. XI-XII asrlarda esa tasavvuf maktablari va ularning silsilalari tarkib topgan. Bu davrlarda islom Sharqida Misr, Bagʻ-dod, Basri, Buhoro, Nishopur, Termiz va Balx kabi shaharlar tasavvuf va tariqat markazlari sifatida muhim rol oʻynagan edi. Ayni shu davrda Misr, Xuroson, Movarounnahr, Iroq va Turkiston maktablari shuhrat topadi⁹⁵. XIII asr va XIV asrning birinchi yarmida tasavvuf ham nazariy-ilmiy, ham amaliy jihatdan yuksak darajaga koʻtariladi. Bu davrda Yahyo Suxravadiy, Najmuddin Kubro kabi mutafakkir shayxlar, Fariruddin Attor, Ahmad Yassaviy, Jaloluddin Rumiy singari buyuk soʻfiy shoirlar tasavvuf ilmining rivojiga ulkan hissa qoʻshib, uni falsafa va hikmat bilan boyitadilar.

⁹⁵ Хожа Абдухолиқ Ғиждувоний. Мақомоти Юсуф Ҳамодадоний. Т.: Янги аср авлоди, 2005, -166.

Xulosa

O'zbek xalqi davlatchiligi taraqqiyotida Somoniylar sulolasining hukmronligi katta ahamiyat kasb etadi. Arablarga qarshi olib borilgan kurashlar natijasida 1X asrning ikkinchi yarmidan boshlab Markaziy Osiyoda mustaqil davlatlar tashkil topdi. Bunday davlatlarning eng kattasi Somoniylar davlati edi. U Movarounnahr va Xurosondan Ray va Kavzingacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan.

Ismoil ibn Ahmad (892-907) davrida mazkur sulolaning ko'zga ko'ringan namoyandalari, Somoniylar markaziy davlat apparatini mustahkamlashdan manfaatdor bo'lgan feodal zodagonlar, din peshvolari, barcha badavlat dehqon tabaqalarining qo'llab-quvvatlashlari bilan xorijiyarning yetakchilaridan Amir Husaynni ag'darib tashlashga, Buxoroning Barnod va Romiton tumanlarida boshlangan dehqonlar harakatini bostirishga hamda teskarichi boyonlarni davlat ishlaridan chetlashtirib tashlashga muvaffaq bo'ldilar. 893 yili qadimiy Ushrushonaning mahalliy hokimiyatini ag'darib tashladilar hamda iqtisodiy va siyosiy jihatdan ahamiyatga molik bo'lgan bu hududni o'z tasarruflariga olishga muvaffaq bo'ldilar. Turk-qorluqlarning Sirdaryo bo'yidagi yerlarga qilib turgan bosqinini to'xtatib, Tarozni bosib oldilar (893) hamda u yerdagi aholini musulmon diniga kirgizdilar.

Abbosiylar xalifaligi davrida bir butun bo'lgan mazkur shahar va viloyatlar X asrning biriichi choragida undan ajralib chiqdi. Bu bo'linish to 935 yillargacha davom etdi. Natijada Mesopotamiya hamdoniylar (905-1004), Misr bilan Suriya ixshidiylar (935-969) qul ostiga, G'arbiy Eron buvayxiylarga, Tabariston bilan Gurgon mahalliy daylimiylar sulolasi bo'lmish ziyoriylarga, Movarounnahr bilan Xuroson somoniylar qo'lga utib qoldi. Tarixchilar o'xshatib aytganlaridek, xalifaga Bag'dod bilan Vaviloniyaning bir qismigina qoldi, xulos. To'g'ri, maxalliy hukmdorlar (mulk at-tavoif) hali ham xalifa hokimiyatini tan olar, uning nomini xutbaga qo'shib uqitar, tangalarda uning

nomini o'z nomlari bilan bir qatorda zarb etar, vaqt-vaqti bilan xalifaga hadyalar yuborib turar edilar. Ammo ular Bardodga shunchaki qaram edilar, xolos. Xalifa nomigagina davlat boshlig'i bo'lib, hech kanday real hokimiyatga ega emas edi.

Somoniylar Movarounnaxr va Xurosonda mustakil davlat tuzish uchun avvalambor, kuchli markazlashgan xokimiyat tuzish kerakligini yaxshi tushunishgan. Bu ayniksa Ismoil Somoniy xukmdorligi davrida kunning dolzarb masalasiga aylandi. Chunki Ismoil Somoniy Movarounnaxr va Xurosonni birlashtirishga va yagona markazlashgan davlat tuzishga muvaffak buldi. Endi bu davlatni idora kilish lozim edi. Shuning uchun u bir kancha isloxotlar utkazdi. Mana shunday isloxotlardan biri davlatni boshkarish ma'muriyatini joriy kilish buldi. Bu isloxotga binoan davlatni idora kilish saroyi (dargox) va devon (xarbiy—fukaro maxkamalari) tashkil etildi. Ismoil Somoniy davlatning majmuini tashkil etishda Somoniylar Eroni va Arab xalifaligida kabul kilingan tajribalardan foydalandi va uni zamon talabiga karab mukammallashtirdi.

Xokimiyatning eng yukori pogonasida somoniylar turib, ular amir unvoni bilan idora kilganlar. Davlat majmuini mustaxkamlashda, Nasr II Somoniyning ma'rifatli vazirlari Abuabdullo Muxammad Jayxoniy va Abufazl Muxammad Balamiylarning xizmatlari katta bulgan. Umuman, Somoniylar xukmdorligi davrida vazirlik mansabiga asosan shu ikki sulola vakillari tayinlanganlar.

Umuman somoniylar davrida Xuroson va Movarounnaxr kishlok xujaligini turli tarmoklari xususan, dehqonchilik yaxshi rivojlangan. Somoniylar davrida dehqonchilik bilan bir qatorda xunarmandchilik xam keng sur'atlar bilan tarakkiy kildi. Shaxar aholisining kup kismi xunarmandchilikning turli soxalari bilan mashgul bulishgan. Manbalarda kayd kilinishicha Movarounnaxrda, ayniksa, tukimachilik yaxshi tarakkiy kilgan. Bu yerda ipak va jundan tayyorlangan turli-tuman gazlamalar uzining yukori sifatlilik, bejirim va nafis nakshlari bilan ajralib turgan. Buxoroning Zandana, Samarkanddagi Vedar va Surxon daryodagi Darzangi tukimachilarining maxsulotlari fakatgina

Movarounnaxr va Xurosondagina emas, balki Irok, Eron va Xindistonlarda xam ma'lum bulgan. Xususan, Narshaxiyning yozishicha, Zandanada tayyorlangan gazlamalarga Shark bozorida extiyoj juda katta bulgan. Ibn Xavkal va Mukaddasiyning kayd etishicha Vedarda tayyorlangan yukori sifatli gazlamalar axolining yukori tabakalari orasida juda kadrlangan. Bu gazlamalardan asosan amirlar, vazirlar, turli amaldorlar, kozilar uzlariga liboslar tiktirganlar. Vedar gazlamasi xatto Xuroson parchasi xam deb atalgan. Gazlamalarning turli navlari bundan tashkari Keshda, Nasafda, Binketda, Dabusiyada va kupgina boshka shaxarlarda xam tayyorlangan.

Somoniylar davrida kuchli va mustakil davlatning paydo bulishi dexonchilik, xunarmandchilikning rivojlanishi, shaxarlarning tarakkiyoti uz navbatida ichki va tashki savdoni yanada uzviylashuviga va tarakkiyotiga olib keldi. Avvalo shaxar va kishloklar urtasidagi savdo kengaydi. Ikkinchi tomondan shaxar va kishloklarni kuchmanchi xalklar va boshka davlatlar bilan alokasi rivojlandi.

Yozma manbalarda kayd kilinishicha, bozorlar katta-kichik shaxarlarda va xatto kishloklarda bulgan. Ayniksa karvon yullari buyida joylashgan shaxarlarkda bir nechtdan bozorlar bulgan. Buxoro, Xujand, Kesh, Termiz, Xirot, Marv, Nishopur shaxarlaridagi bozorlar katta va juda gavjum bulgan. Istaxriyning yozishicha, Samardandda Movarounnaxrzfning bosh bozori joylashgan. Bu yerga xamma yerdan savdogarlar kelgan. Movarounnaxrda tayyorlangan maxsulotlarning katta kismi Samarkandga keltirilgan va undan keynn boshkayurtlarga tarkatilgan. Ichki va tashki savdoda ayrim kichik shaxarlarning xam ;urni katta bulgan. Bu borada Poykand shaxri muxim axamiyat kasb etadi. Manbalarda yozilishicha, bu shaxarda somonnylardan oldin xam savdogarlar Xorazm, Kaspiy buyidagi ulkalar va Xitoy bilan oldi-sotti ishlari olib borishgan.

IX—X asrlarda mamlakatda, bir tomondan, dehqonchilik, ikkinchi tomondan, hunarmandchilikning rivoj topishi, shubhasiz, o‘z navbatida ichki va

tashqi savdoning kengayishiga olib keladi. Bu davrda Old Osiyoni Mo'g'uliston va Xitoy bilan tutashtirgan qadimgi karvon yo'li orqali olib borilgan tashqi savdo aloqalari, ayniqsa* gavjumlashib ketadi. Bag'dod shahridan boshlangan katta karvon yo'li Hamadon, Nishopur, Marv, Omul, Buxoro, Samarqand, Shosh, Tarozi, Qulon, Marke, Bolasog'un, Suyob, Issiqko'lining janubiy sohili orqali o'tib, Sharqiy Turkistonga va undan Xitoyga kirib borar edi. Bu yo'lining Farg'ona orqali o'tgan janubiy, o'g'uzlar yoki Dashti Qipchoq orqali Janubiy Sibirga yo'nalgan shimoliy hamda Xorazm orqali Volga daryosi bo'ylab Xazar va Bulg'or davlatlariga eltadigan shimoli-g'arbiy tarmoqlari, ayniqsa, serqatnov bo'lgan.

Markaziy Osiyolik savdogarlar uz mollarini arab xalifaligi tarkibiga kirgan davlatlarga, Kavkazga, Xazar va Bulroriyaga, Xitoy va Xindistonga olib borib sotganlar. Markaziy Osiyodan Xitoy bilan Urta yer dengizini birlashtiruvchi va Janubi-Sharkiy yevropaga olib boruvchi karvon yullari uggan. Ayniksa Urta yer dengizi bilan borgovchi karvon yuli ancha gavjum bulgan. Bu yul Bagdod, Xamadon, Nishopur, Marv, Amul, Buxoro, Samarkand, Ustrushona, Choch, Balasorun orkali Xitoyga olib borgan. Xitoyga Markaziy Osiyodan otlar va shisha buyumlar olib borilgan. Xitoydan esa turli-tuman ipak gazlamalar keltirilgan. Xazar Bulror va Rus yerlariga Markaziy Osiyodan kuruk mevalar turli-tuman gazlamalar, guruch va kumush chikarilgan. Uz navbatida Janubi-Sharkiy yevropadan Markaziy Osiyoga muyna, mis, teri, koramol, kullar keltirilgan. JanubiSharkiy yevropa bilan bulgan savda alokalarida xorazmlik savdogarlarning urni katta bulgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida ham Somoniylar davlati (IX-X asrlar) katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu davr ilmfan va ma'rifatning rivojlangan davri bo'ldi hamda Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ismoil Buxoriy, Imom at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband kabi ulug' mutafakkir olimlar va allomalar yetishib chiqishida muhim bosqich bo'ldi.

Somoniylar davri shunisi bilan ajralib turadiki, bu davrda o'lkada tinchlik siyosati hukmron bo'lgan va ilm-fan, madaniyat gullab yashnagan. Ushbu davrda o'lkamizdan mashhur mutafakkir olimlar, islom ilmlarida katta shuhrat qozongan ilohiyotchi olim va allomalar yashab ijod qilgan. Shuningdek, ushbu davrda o'lkamizda islomiy ilmlar taraqqiy etgan va ko'plab ilm markazlari, jumladan "Dor al-juzjoniya", "Dor al-iyodiya", "Buxoro fiqh maktabi" kabi maktablar faoliyat olib borgan. Ushbu davr yana shunisi bilan ajralib turadiki, bu davrda o'lkada millatlararo o'zaro totuvlik, e'tiqodiy xurlik va diniy bag'rikenglik barqaror bo'lgan.

Somoniylar davlatida IX asrning oxirlarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarda muhim o'zgarishlar yuz bergani va bir necha yillar davomida tinch siyosat va sharoitlar hukmron bo'lib turgani Movarounnahrning asosiy ilmiy markazlaridan hisoblangan Buxoro va Samarqand shahrida ilmiy jarayonlarning jonlanishiga zamin yaratdi. Samarqandning buyuk ipak yo'lida joylashgani tijorat, san'at va ilm markazlaridan biriga aylanishiga sabab bo'lgan. Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, somoniylar davrida Samarqandda nafaqat islom dinining, balki boshqa dinlarning ham ta'lim markazlari faoliyat olib borgan.

Mazkur tadqiqot ishida qariyb bir yarim asr davomida Movarounnahrda mustahkam imperiya sifatida hukmronlik qilgan somoniylar davridagi shu barqarorlik tarixi haqida ma'lumot berishga harakat qildim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Prezident I.A. Karimov asarlari:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T., «Sharq», 1998.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T., “O‘zbekiston” 2010.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 1992.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T., “O‘zbekiston”, 1997.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T., “Ma'naviyat”, 2008.
6. Karimov I.A. Biz bag‘ri keng va hamdard xalqmiz. “Andijon nashriyot matbaa” Ma'suliyati cheklangan jamiyat. 2010.
7. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T., “O‘zbekiston” 2011.
8. Karimov I.A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimiz garovidir. – Toshkent., 2012.

Asosiy adabiyotlar ro'yxati:

9. Abu Bakr ibn Jafar Narshaxiy. Buxoro tarixi. T. “Kamalak” 1995.
10. Abu Jafar Muhammad at-Tabariy. Istoriya at-Tabariy. T. “Fan” 1987
11. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.: 1993.
12. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. T.: Fan, 1968.
13. Abulg‘oziy. Shajarai turk. T.: Cho‘lpon, 1992.
14. Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma. Uch jildlik. T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1984.
15. Abu-l-Fazl Bayxaki. Istoriya Ma'suda (1030-1041). Per. s pers. A.K.Andersa. T.: 1962
16. Agadjanov S.A. Gosudarstvo Seljukidov i Srednaya Aziya. (XI-XII v.v.) M.: 1991.
17. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. T.: Sharq, 2000.
18. Axmedov B. Tarixdan saboklar. T. «Ukituvchi», 1994.
19. Ahmedov B. O‘zbek ulusi. T.: Nur, 1992.
20. Axmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. T., «O‘qituvchi», 2001.
21. Bartold V.V. Arabskie zavoevaniya i Turkestan pri Samanidax. Soch. T. 2. Ch.1.-M., 1963;
22. Bichurin N.Ya. Sobranie svedeniy o narodax, obitavshix v Sredney Azii v drevnie vremena. 1,2,3 tt. Материалы по истории Туркмении и туркмен. T.1.-Moskva, 1939.
23. Buryakov Yu.F., Gritsina A. Maverannaxr na Velikom shelkovom puti. Samarkand-Bishkek, 2006.
24. Buxoro tarixi. T.: Fan, 1976.
25. Buyuk siymolar, allomalar. T.: Meros (uch kitob), 1995, 1996, 1998.

26. Vamberi Xerman. Buxoro yoki Movarounnahr tarixi. T.: 1990.
27. Vosifiy Z. Badoe'ul vaqoe. T.: G'.G'ulom, 1979.
28. G'ulomov Ya.G'. Qadimgi madaniyatimizning izlaridan. T.: Fan, 1960.
29. G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orish tarixi. T.: Fan, 1959.
30. Gumilev L.N. Qadimgi turklar. T., 2007.
31. Yormatov I. Iloq tarixi. T., 2005.
32. Zaki Validiy. O'zbek urug'lari. T.: 1992.
33. Ipak yo'li afsonalari. T.: Fan, 1993.
34. Istoriya Uzbekistana. – T.: Fan, 2012.
35. Is'hoqov M. va b. Qadimgi yozma yodgorliklar. T.: Yozuvchi, 2000.
36. Is'hoqov M. So'g'diyona tarix chorrahasida. T.: Fan, 1990.
37. Kabirov J., Sagdullaev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. T.: O'qituvchi, 1990.
38. Kamaliddin Sh.S. Drevnetyurkskaya toponimiya Sredney Azii. T., 2006.
39. Karaev O. Istoriya karaxanidskogo kaganata. Frunze. 1983
40. Кычанов ye.I. Kochevie gosudarsvo ot gunnov do manchjurov. M., 1997.
41. Litvinskiy B.A. Kangyusko-sarmatskiy farn. Dushanbe, 1968.
42. Mavlonov O'. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari. T., 2008.
43. Mavlonov O', Maxkamova D. Madaniy aloqalar va savdo yo'llari. T., 2004.
44. Mason V.M. Srednaya Aziya i Drevniy Vostok. M., 1964.
45. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit-turk. Uch jildlik. T.: Fan, 1960-1963.
46. Ma'naviyat yulduzlari. T.: 2001
47. Mirzo Ulug'bek.t ulus tarixi. T.: Cho'lpon, 1994.
48. Murtazaeva R.H. va b. O'zbekiston tarixi (Ma'ruzalar matni). T.: 2000.
49. Muxamedjanov A.R. Istoriya orosheniya Buxarskogo oazisa (s drevneyshix vremyon do nachala XX v.). T., 1978.
50. Muhammadjanov A.R., Ne'matov T.I. Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tarixiga doir ba'zi manbalar. T.: 1957.
51. Muhammadjonov A. Qadimgi Buxoro. T.: Fan, 1991.
52. Myuller Avgustin. Istoriya islama. T. I-IX. –M.; 2004.
53. Narshaxiy M. Buxoro tarixi. "Meros" turkumi. T.: Kamalak, 1991.
54. Nasaviy. Siyrat as-Sulton Jaloliddin Mangburni. T.: 1999
55. Nasimxon Rahmon. Turk hoqonligi. T., 1993.
56. Negmatov N. Gosudarstvo Samanidov. Dushanbe 1997
57. Nizomulmulk. Siyosatnoma. T.: Adolat, 1997.
58. Pugachenkova G.A. Rempel L.I. Ocherki iskusstva Sredney Azii. T., 1989.
59. Ravshanov P. Qarshi tarixi. T., 2006.
60. Rahimov J. O'zbekiston tarixini o'rganishda arxiv manbalaridan foydalanish. T.: O'qituvchi, 1995.
61. Raxmonov N. Turk xoqonligi. T., 1993.
62. Rtveladze E.V. O'rta Osiyoning qadimgi tangalari. T., 1987.
63. Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullaev E.V. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. T.: "Adolat", 2001.

64. Sagdullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarida. T.: Universitet, 1996.
65. Sagdullaev A.S., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. – T.: Akademiya, 2006.
66. Sagdullaev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000.
67. Sadr ad-Din Ali al-Xusayni. Axbar ad-Daulat as-seldjukiya. Per. Z.M.Buniyatova. M.: 1980
68. Samarqand tarixi. Ikki jildlik. T.: “Fan”, 1969-1971.
69. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. T.: O'zbekiston, 1997.
70. Temur tuzuklari. T.: G'afur G'ulom, 1991.
71. Tokarev S.A. Rannie formy religii. M.. 1964.
72. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. T.: Fan, 1964.
73. Uvatov U. Donolardan saboqlar. T.: A.Qodiriy, 1994.
74. Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi. T.: Cho'lpon, 1995.
75. Xidayatov G.A. Krushenie Samanidov. T., 2003.
76. O'zbekim. “Vatan” seriyasi. T.: 1992.
77. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.1-2. T.: O'zMU nashriyoti, 2000-2001. 1997.
78. O'zbekiston tarixi (qisqacha ma'lumotnoma). T.: Sharq, 2000.
79. O'zbekiston tarixi. – T.: Universitet, 1997.
80. O'zbekiston tarixi. 1 qism. /A.Sagdullaev, B.Eshov tahriri ostida. T.: Universitet, 1999. 2 nashri.
81. O'zbekiston tarixining eng asosiy sanalari. T.. 2006.
82. O'lmas obidalar./ M.Is'hoqov va mualliflar guruhi. T.: Fan, 1989.
83. Habibullaev N. O'rta Osiyo qog'oz ishlab chiqarish tarixi. T.: Fan, 1992.
84. Hamidov H. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. T.: O'qituvchi, 1996.
85. Shaniyazov K. Uzbeki-karluki. T.: Nauka, 1964.
86. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni.T., 2001.
87. Eshov B.J. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – T.: Yangi asr avlodi, 2012.
88. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. T.: “Yulduzcha”, 1990.
89. Yakubovskiy A.Yu. Maxmud Gaznavi.-L., 1934;